

**S. X. SULLIYEVA, F. A. TOJIYEVA,  
G. I. G'ANIYEVA**

**UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA O'QITISHNING  
ZAMONAVIY TASHKILY SHAKLLARI**



Termiz-2023

# **Uzluksiz ta'lim tizimida o'qitishning zamonaviy tashkiliy shakllari (monografiya)**

**S. X. Sulliyeva, F. A. Tojiyeva, G. I. G'aniyeva**

Monografiyada jahon ta'lim tizimida erishilgan yutuqlar, ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning mohiyati va ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni, hamda ahamiyati yoritib berilgan.

Shuningdek, mazkur monografiyada ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash samarasi haqida, o'quvchilarini kasbga yo'naltirishda dastlabki pedagogik jarayonlar tahlil etilgan bo'lib, bu jarayonda o'qituvchining pedagogik mahorati, kasb tanlashga oid bilim va ko'nikmalari, vazifalari, shuningdek kasb tanlashda shaxs hislatlari, o'quvchi psixologiyasi, o'quvchilarni kasb tanlashga tayyorligini ko'rsatuvchi mezonlar mazmuni haqida ma'lumot berilgan.

Monografiya Oliy o'quv yurti talabalari, o'qituvchilari, o'rta maktab o'qituvchilari va boshqa qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

Jadv. ta, ta rasm, bibl. nomda.

Termiz davlat universiteti kengash yig'ilishining 2023 yil \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan

## **Taqrizchi:**

**Termiz davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori  
Y.G'. Mahmudov**

**Termiz davlat universiteti Zoologiya kafedrasi dotsenti,  
biologiya fanlari nomzodi  
K. Eshnazarov**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**S. X. SULLIYEVA, F. A. TOJIYEVA,  
G. I. G’ANIYEVA**

**UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA O‘QITISHNING  
ZAMONAVIY TASHKILY SHAKLLARI  
(monografiya)**

Termiz - 2023

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Bu esa o‘z navbatida pedagog kasbining yanada murakkablashuvi, mas’uliyati va vazifalarining ortishiga olib keladi. Chunki ommaviy ta’limning bugungi sharoitida yangi avlod bilan ishlash, ularni rivojlantirish, jahon talablariga mos qilib kasbga tayyorlash zamonaviy o‘qituvchidan yuksak texnologik bilim, salohiyat va mehnatni talab qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Yana bir muammoni hal etish o‘ta muhim hisoblanadi: bu pedagoglar va professor-o‘qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta’lim olish, ma’naviy-ma’rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonlariga faol ko‘mak beradigan muhitni yaratish zarur”, – degan fikrlari katta ahamiyat kasb etadi<sup>1</sup>. O‘zbekistonning kelajagi va ravnaqi ko‘p tomonlama undagi kadrlarning bilimdonligi, kasb tayyorgarligi va

---

<sup>1</sup>SH.M.Mirziyoyev “Tanqidid y tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. Toshkent 2017, 45-bet.

ma'naviy yetukligiga bog'liq.

Mustaqillik yillarida xalqimizning tarixiy xotirasini tiklash va takomillashtirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirildi. Bu borada hozirgi davrda yurtimiz kelajagini o'ylab zahmat chekkan, Vatanimiz ozodligi yo'lida kurashgan, millatimiz ravnaqi uchun umrini bag'ishlagan, o'zidan obod shahar-u vohalar, betakror go'zal yodgorliklar qoldirgan ajdodlarimiz mehnatini yuzaga chiqarish, ularni qadrlash, ruhi poklarini shod qilish, ezgu ishlarini davom ettirish biz uchun, bugungi avlodning zimmasidagi eng katta vazifasidir. "Farzandlarimizning qobiliyatini ro'yobga chiqarishga bolalikdan e'tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko'plab Beruniy, Ibn Sino, Ulug'beklar yetishib chiqadi. Men bunga ishonaman."<sup>2</sup>

Yoshlarning uzluksiz ta'limini ta'minlashda kasb-hunar maktablari, litseylar va oliy o'quv yurtlari o'rtasidagi hamkorlik katta ahamiyatga ega. Ular bir o'quv muhitidan ikkinchisiga o'tishda iloji boricha kamroq stress vaziyatlariga tushishlari lozim. Shundagina ularda bilimga ishtiyoq yo'qolmaydi, ta'lim olish darajasi pasaymaydi va samaradorligi oshadi. Ushbu hamkorlik doirasida ta'lim muassasalari uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish borasida pedagogik-psixologiya, pedagogikaning turli yo'nalishlarini tadqiq etishga qaratilgan hamkorlik loyihalarini yaratish va ularning natijalarini amalga tadqiq etish; tegishli soha, jumladan

---

<sup>2</sup>Mirziyoyev Sh.M. "Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, O'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi.// "Xalq sO'zi" gazetasi 2018-yil 8-dekabr

pedagogika va psixologiya, ijtimoiy pedagogika sohasidagi muammolar yuzasidan axborot va tahliliy ma'lumotlar bilan almashish; oliy o'quv yurtlaridan kasb-hunar maktablari, litseylarga amaliyot uchun yuboriladigan talabalarni tanlov asosida saralab olish; hamkorlik asosida tashkil etiladigan seminar, anjuman va davra suhbatlariga professor-o'qituvchilar va magistr talabalar orqali qo'llab quvvatlash; amaliyot o'tayotgan talabalarga ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari uchun ilmiy va elektron kutubxona manbalaridan foydalanish imkoniyatini yaratish; litsey o'quvchilarini bo'lg'usi sohasi bo'yicha oliy o'quv yurtida o'qish uchun tayyorlash, ya'ni ta'lim sharoitlari va muhiti bilan tanishtirish va hokazo.

Noan'anaviy ta'lim - talabalarni o'z kasbiga qiziqtiruvchi, bilim doiralarini kengaytiruvchi, ularda hozirjavoblik xususiyatlarini tarbiyalovchi, faollashtiruvchi va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi kabi didaktik funksiyalarni bajaradi. Tajribalarda ta'kidlanganidek, agar mashg'ulot odatdagi - faqat tinglab o'tirishga asoslangan usulda o'tkazilganda, talabalar axborotning ko'pi bilan 20 foizini o'zlashtirgan bo'lsa, ilg'or pedagogik usullardan foydalanilganda esa, bu ko'rsatkich 80-90 foizgacha oshganligi tasdiqlangan. Noan'anaviy ta'limning samaradorligi yana shundan iboratki, uning qatnashchilari yaxlit tizimli bilimga ega bo'ladi va mustaqil - ijodiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanishi negizida bo'lajak kasbiy faoliyatga oid boshlang'ich ko'nikmalar shakllantirilib, o'quv-tarbiyaviy jarayonni amaliyot bilan bevosita bog'lab olib borishni ta'minlaydi. Shuning uchun ham u, rivojlantiruvchi o'qitishning yuqori samarali usullaridan biri bo'lib hisoblanadi.

## **I BOB. TA'LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI**

Ta'limni tashkil etish shakllari deganda, aniq muddatda va tartibda o'qituvchining o'quvchilar bilan olib boradigan mashg'ulot turlarini tushunamiz. Hozirgi kunda, ta'lim muassasalarida ta'limni sinf-dars shaklida olib borish keng tarqalgan. Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, ta'limni tashkil etish shakllari ijtimoiy tuzum manfaatlariga mos xolda paydo bo'lgan va rivojlangan. Dastlabki davrlarda ta'lim berish ishlari odamlarning mehnat faoliyati, turmush tarzi bilan uzviy bog'langan hamda bilim berish, o'rgatish ishlari yakka tartibda olib borilgan. Davr o'tishi bilan ko'pchilikka bilim berish ehtiyoji paydo bo'ladi. Ta'lim tizimi mazmuni, bilimlarning murakkablashuvi, bolalarni guruh-guruh qilib, to'plab o'qitishni taqozo qilgan hamda ta'lim bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, o'qituvchi tayyorlash zaruriyatini keltirib chiqargan.

Shu davrga kelib o'qitishning maxsus tashkiliy shakllari paydo bo'la boshlaydi. Buning natijasida sinf-dars tizimi paydo bo'la boshlaydi. Xalq orasida hayotiy tajribaga, bilim va tarbiyaga ega bo'lgan kishilar murabbiy, o'qituvchi bo'lib faoliyat ko'rsatdi.

Xalqimiz tarixiga nazar tashlar ekanmiz, maktab va madrasalarda yoshlarga bilim berish bilan shug'ullanganligi «Avesto» va boshqa tarixiy manbalardan ma'lum. Ammo qadim davrlarda ta'limni qat'iy chegaralangan vaqtda, bir xil yoshdagi bolalar bilan olib borish, ta'lim mazmunini bosqichma-bosqich berish masalalariga aniqlik kiritilmagan edi.

Ta'limning tashkiliy masalalari Al-Forobiy «Fan va aql zakovat» asarida o'quv fanlarini guruhlarga bo'lib o'qitish, ularning tarbiyaviy

mohiyatini ochish masalalariga e'tibor berilgan. Pedagogika tarixida ta'lim tashkil etishning asosiy shakli dars hisoblangan. Sinf-dars tizimini didaktik talablar asosida yaratishda buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning (1592-1670) xizmatlari katta, uni sinf-dars tizimining asoschisi sifatida butun dunyo tan olgan. Ya.A Komenskiy «Buyuk didaktika» asarida o'quv mashg'ulotlarini guruh shaklida tashkil qilish, o'quv yili va o'quv kunini bir vaqtda boshlash, mashg'ulotlar orasida tanaffuslar berilishini, guruhlardagi bolalarning yoshi va soni bir xil bo'lishiga alohida e'tibor berdi. Dars davomida o'quvchilar diqqatini to'plash, materiallarni batafsil tushuntirish, o'quvchiga savollar berish, uzlashtirish jarayonini tushuntirish, o'quvchiga savollar nazorat qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Bu tarixiy jarayonda Pedagogika fani oldida turgan muammolardan biri ta'limning tashkiliy shakllarini samaradorligini oshirish, ayniqsa, darsni samaradorligini oshirish bilan bog'lik ilmiy-nazariy uslubiy va amaliy muammolarni xal etuvchi tadqiqotlar olib borishda ko'p ishlar qilindi. O'zbekistonimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda ta'lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalar tadbiq etish bilan bog'lik ishlar qilinmoqda.

Sinf deganda, yoshi va bilim darajasi bir xil bo'lgan o'quvchilar guruhi tushuniladi.

Dars – aniq maqsadni ko'zlab belgilangan vaqtda bir xil yoshdagi o'quvchi, yoshlar bilan o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg'ulotdir.

Darsning maqsadi, mazmuni, hajmi ta'lim standartlari (o'quv reja, dastur, darslik va qo'llanma) asosida belgilanadi. Dars o'quv



ishlarining asosiy tashkiliy shakli ekan, bu jarayonda quyidagilarga amal qilinishi lozim:

- Har bir sinfda o'quvchilarning yoshi va bilim darajasi bir xil bo'lishi lozim.
- Dars qat'iy jadval bo'yicha belgilangan aniq muddatda olib borilishi kerak.
- Dars o'qituvchi rahbarligida butun sinf bilan va alohida o'quvchilar bilan ishlash shaklida olib boriladi.

Dars o'quv fanining xarakteri, o'tilayotgan materialning mazmuniga qarab turli usullar va vositalarda olib boriladi va ta'lim tizimining bir qismi sifatida tugallangan bilim beradi va navbatdagi bilimlarni o'zlashtirmoq uchun zamin yaratadi.

Shuni unutmaslik kerakki, o'quv yurtlarida ta'lim ishlari faqat sinf-dars shaklida olib borilmasdan, balki amaliy mashg'ulotlar, tajriba ishlari shaklida ham olib boriladi. Bu mashg'ulotlar sinfdan va maktabdan tasharida fakultativ mashg'ulotlar, tugaraklar, ekskursiyalar shaklida olib boriladi.

Dars – ta'limning asosiy shakli ekan, u ilmiy, tizimli, tushunarli, ongli va faol bo'lishi, bilimlar mustaxkam uzlashtirilishi, ukuvchi-talabanning shaxsiy xususiyatlari e'tiborga olinan xolda tashkil etilishi dars oldiga kator didaktik talablarni kuyadi. Jumladan, har bir dars aniq maqsadni ko'zlagan holda puxta rejalashtirilmog'i lozim. Bu jarayonda o'qituvchi darsning ta'limi va tarbiyaviy maqsadini belgilaydi. Dars bosqichlarini, ya'ni qanday boshlash, qanday tamomlash ko'rgazmali materiallardan foydalanish kabilarni oldindan hal qilib oladi. Har bir dars aniq g'oyaviy, mafkuraviy izlanishga ega bo'lishi lozim.

O'qituvchi esa ulardan tarbiyaviy maqsadda foydalanmog'i lozim. Har bir dars maktabning, ijtimoiy muhitning imkoniyatini hisobga olgan holda amaliyot bilan bog'lanmog'i, ko'rsatmali vositalar bilan jihozlanmog'i lozim. Har bir dars xarakteriga mos usul, uslub va vositalardan samarali foydalanilgan xolda tashkil etilishi lozim.

Dars uchun ajratilgan soat va daqiqalarni tejash va unumli foydalanish darkor. Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi uzaro faol munosabatda bo'lishi lozim, o'quvchi talaba passiv tinglovchiga aylanmasligi lozim. Mashg'ulotlar butun sinf bilan va har bir o'quvchi bilan, ularning shaxsiy xususiyatlari e'tiborga olingan holda olib borilishi kerak. Darsning mazmuni va xarakteriga qarab xalqimizning boy ma'naviy merosidan, ma'naviy qadriyatlaridan samarali foydalanish. O'tilayotgan mavzuning mazmuniga bog'liq holda mustaqil yurtimizdagi o'zgarishlardan o'quvchi talabalarni xabardor qilish.

Darsda Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning ta'lim sohasidagi fikrlari, yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlarimizga, farzandlarimizga qarata aytgan murojaatlaridan o'z o'rnida foydalanish.

Ta'lim nazariyasi va amaliyotida dars turlari va ularning tuzilishiga ham alohida muammo sifatida qaraladi va o'rganiladi.

Dars bilim, ko'nikma va malakalar bilan o'quvchilarni qurollantirishda asosiy rol o'ynaydi. Shu sababli o'quv mashg'ulotlariga ajratilgan vaqtning asosiy qismi dars o'tish uchun sarflanadi.

Ta'lim tizimida tajribadan o'tgan dars turlari quyidagilardan iborat:



Ta'lim jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan dars yangi bilimlarni bayon qilishi darsidir. Bu darsning tuzilishi quyidagicha:



Dars turlarining o'zgarishi bilan darsning tuzilishida ham o'zgarishlar bo'ladi. Masalan, dars turlari uyg'unlashgan darslarida darsning hamma elementlari mavjuddir:

- Darsni tashkil qilish
- Uy topshiriqlarini bajarilishini nazorat qilish va baholash
- Yangi mavzuni bayon qilish
- Yangi mavzuni mustahkamlash
- Uy topshiriqlari berish
- Darsni yakunlash

Ta'lim tizimida takrorlash va bilimlarni mustahkamlash darslari ham ko'p qo'llaniladi. O'qituvchi dasturning ma'lum bir qismi, yirik mavzular o'tib bo'lingandan so'ng bunday darslar uyushtiriladi.

Bu dars bilimlarni oraliq nazorat orqali baholashda ham xizmat qiladi.

Har bir darsning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mashg'ulotni to'g'ri tashkil qilishga bog'liqdir. Bu davrda sinfning tayyorgarligini sinchiklab kuzatish, bolalarni darsni tinglashga ruhiy jihatdan tayyor ekanliklarini o'rganish darkor. Shundan so'ng, mahoratli pedagog fursatni qo'ldan bermay, shogirdlari diqqatini chalg'itmay, darsning asosiy qismini boshlab yuboradilar, chunki sinf o'quvchilarini tezlik bilan mashg'ulotga faol kirishlarini ta'minlash lozim. Dars yangi materialni bayon qilishga qaratilgan bo'lsa, dars mavzusi e'lon qilinadi. Rejada muljallangan o'quv materialini o'tib bo'lingach, u albatta yakunlanishi, xulosalar chiqarilishi kerak.

Dars o'qituvchi va o'quvchining ijodiy hamkorligiga asoslanishi lozim. Shundagina o'quvchilar mustaqil erkin fikrlay oladilar, irodalari

tarbiyalanadi. Nutq madaniyati rivojlanadi. Muammoli vaziyat izlanishlar orqali o‘z yo‘lini topa oladilar.

O‘quv mashg‘ulotlarining sinfdagi shakli darsdan tashqari yana qo‘shimcha qator ta‘lim shakllari mavjud bo‘lib, bular amaliy tajriba mashg‘ulotlar, qo‘shimcha darslar, fakultativlar, ekskursiya kabilardir. Bular darsda berilgan bilimlarni to‘ldirish, mustahkamlash, amaliyot bilan bog‘lash uchun uyushtirilgan qo‘shimcha mashg‘ulotlardir. Bulardan tashqari o‘quv yurtlari tajribasida fan to‘garaklari, ishlab chiqarish amaliyoti, o‘yin shaklidagi mashg‘ulotlardan ham foydalanilmoqda.

Uzluksiz ta‘limning hamma bosqichlarida ta‘limning o‘ziga xos tashkiliy shakllari mavjud. Jumladan, ikki bosqichli oliy ta‘lim tizimida o‘ziga xos ta‘lim shakllari mavjud, bularga ma‘ruzalar, seminar va amaliy mashg‘ulotlar, kafedra o‘qituvchilarining ochiq ma‘ruzalarida qatnashish, ma‘ruza matnini tayyorlash va muhokama qilish, o‘quv kurslari bo‘yicha dasturlar tayyorlash ishlari kabilar oliy ta‘limning ko‘p qirrali yo‘nalishlari va shakllaridir.

Oliy ta‘lim tizimida ma‘ruza o‘quv jarayonining ham usuli, ham shakli hisoblanib, u talabalarga fan asoslarini og‘zaki, uzviy va muntazam singdirishga xizmat qiladi. Ma‘ruza tufayli talaba shu fanning mohiyatini tushunib boradi hamda ularni erkin fikrlashga, fan ustida o‘ylashga majbur etadi. Shu sababli ma‘ruza ilmiy tafakkurni rivojlantirishning o‘ziga xos maktabiga aylanadi. Ma‘ruzani shunday o‘qish lozimki, uning ta‘sirida talabalarda shu fanga uning vazifa va kelajagiga nisbatan turli qarashlar, ilmiy e‘tiqod, g‘oya va milliy mafkura asoslari shakllansin. Buning uchun o‘qituvchi har bir

ma'ruzaning mazmuninni fandagi yangiliklar bilan boyitishi va tanlay bilishi lozim. Ma'ruza ijobiy hamkorlikka tayanib tashkil qilingandagina samarali natija beradi. Buning uchun ma'ruza jarayonida ham ta'limiy, ham tarbiyaviy vazifalarni samarali amalga oshirish yo'llaridan biri – o'qituvchi bilan talabalar o'rtasida do'stona, faol munosabatlarni tiklab olinishdan iborat.

Bundan tashqari dars va ma'ruzaning samarali natijasi o'quvchi va talabalarning o'quv jarayonidagi ruhiy xolatlarini qay darajada hisobga olinishiga ham bog'liq. Shunday ekan, ta'limni samarali tashkil etish, uning dars, ma'ruza va boshka shakllaridan o'qitish jarayonida o'rinli foydalanishlari uchun shubhasiz o'qituvchining pedagogik mahorati, pedagogik madaniyati, o'z predmetini puxta bilishligi va o'quvchi talabalar bilan umumiy til topa olishligi g'oyat katta ahamiyatga egadir.

Ta'lim jarayoni pedagogik jarayonning ajralmas, muhim qismlaridan biri bo'lib u o'qitish, bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish masalalari bilan shug'ullanadi. Ta'lim nazariyasini "Didaktika" tushunchasi bilan ham ifodalanadi. "Didaktika" so'zi grekcha "Didasko" so'zidan olingan bo'lib, "O'qitish, o'rgatish" degan ma'noni bildiradi. Didaktikaning o'rganish ob'ekti o'quv jarayoni, o'quv jarayonining rivojlanish qonuniyatlari, o'qitish tamoyillari, metodlari va shakllaridir. Ta'lim jarayonining asosiy mohiyati tarixan to'plangan ijtimoiy bilim va tajribani yoyish avlodga yetkazish, avlodlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ma'lum tizim orqali amalga oshirish bo'lib hisoblanadi. Albatta, avloddan-avlodga o'tib borgan sari ijtimoiy tajriba hajmi, demak bilimlar hajmi ham ortib boradi. Fan va

texnikaning rivoji ham ilmiy bilimlarning hajmiga va xarakteriga ta'sir ko'rsatadi. Bularning hammasi esa o'z navbatida ta'lim tizimida o'z aksini topadi. Ta'lim tizimi har bir jamiyatning rivojlanish asosi bo'lib xizmat qiladi. Chunki aynan ta'lim tizimi jamiyatning har bir a'zosini ma'naviy, ilmiy dunyoqarashini shakllanishida eng asosiy o'rinni egallaydi. Shuning uchun ham barcha tarixiy yuksalish, yangilanish bosqichlarida aynan ta'lim tizimini isloh qilish muhim o'rin tutgan. Ta'lim tizimi har bir jamiyatning rivojlanish darajasidan hamda shu jamiyatning talablaridan kelib chiqqan holda shakllanadi. O'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim jarayonida:

- Zarur bilimlar bilan qurollantiriladi;
- Kerakli malakalarga ega bo'ladi;
- Ko'nikmalar hosil qiladi;

O'quv jarayonida ta'lim oluvchilar va pedagoglar o'rtasida o'ziga xos munosabatlar o'rgatilib bu jarayon ikki tomonning birgalikdagi faoliyati natijasida boradi. Shuning uchun ham ta'lim jarayoni ikki tomonlama xarakterga ega deyiladi. Pedagoglar va talabalarning faollik darajasi ta'lim jarayonining samarasini belgilaydi. Albatta bu jarayonda pedagog yo'naltiruvchi sifatida maydonga chiqadi. Pedagog aniq maqsadni ko'zlab reja va dastur asosida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiradi. Talabalar esa ularni faol o'zlashtirib olishlari kerak. Ta'lim jarayonida pedagog o'rgatish, bilim, malaka, ko'nikma hosil qilish vazifasini bajarsa, talabalar o'zlashtirish jarayonini o'z boshidan kechiradilar. Bu murakkab psixik jarayon bo'lib, sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur kabilar ishtirokida boradi. O'qish talabalarning o'zlashtirish, bilish qobiliyatlari, fikrlash operatsiyalari va harakatlarini hosil qilish

jarayonidir. Bu passiv tomoshabinlik jarayoni emas, balki talabaga noma'lum bo'lgan haqiqatlarni ochib beradigan faol, ijodiy faoliyat jarayonidir.

Ta'limning asosiy vazifalaridan biri insoniyat hozirgacha erishgan ilmiy bilimlar va fan texnikaning yutuqlari bilan yosh avlodni qurollantirishdir. Yosh avlodda shunday bilimlar tizimini yaratish lozimki, bu bilimlar ularning keyingi rivoji uchun asos bo'lib xizmat qilsin. Hozirgi kunda bilimlar hajmi, axborotlar hajmi tobora oshib borayotgan bir davrda ta'lim tizimi talabalarga berilishi kerak bo'lgan bilimlar, malaka va ko'nikmalar hajmini belgilash hamda bu jarayonda qaysi omillarni hisobga olish kerak degan masalalarni yechimini topish ustida bosh qotirmoqda.

Zaruriy bilimlar hajmini belgilash va shu bilan bir qatorda o'qish muddatini aniqlash eng muhim masalalardan biri. Ta'lim jarayonida biror fan sohasidagi insoniyat tomonidan erishilgan hamma narsalarni o'rganish kerak deb o'ylash mutlaqo noto'g'ri bo'lar edi. O'quv jarayonida eng asosiy, eng muhim bilimlar- fanlarning asoslari o'rganiladi.

Ammo shunga qaramay hozirda o'rganish zarur bo'lgan yangi yangi fanlarning tarmoqlari (Biofizika, bioinformatika, genomika, bionika) vujudga kelmoqdaki ular ta'lim hajmini benihoya kengayishiga sabab bo'lmoqda. Bunday muammolar hozirda deyarli barcha davlatlarda mavjud va har bir davlat bu muammolarni o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda hal etishga harakat qilmoqda. Biz bu muammolarni ta'lim tamoyillarini (prinsiplarini) buzmagan holda, yosh avlodning sog'ligiga ziyon yetkazmagan holda yechimini topishga



harakat qilmoqdamiz. Ta'limning asosiy maqsadi - zamonaviy ilmiy bilimlarni egallagan, mustaqil fikrlash va muammolarni yechish imkoniyatiga ega bo'lgan ma'naviy jihatdan boy shaxslarni shakllantirishdir. Jamiyat rivojlanar ekan, hayotiy talablarning darajasi ham ortib boradi. Demak, ilmiy bilimlarning hajmi kengayib, ilmiylik darajasi chuqurlashib borar ekan, mantiqiy fikrlash va muammolarni tezda hal etishga bo'lgan talab yanada kuchayib boradi. Bu fikrdan kelib chiqqan holda ta'lim tizimi bugungi kun talabinigina hisobga olgan holda emas, balki kelajak talablarini aniqlagan va hisobga olgan holda ish olib borishi kerak degan xulosaga kelamiz. Chunki, bugungi kun talablari kelajakda jamiyatning asosiy o'zagiga aylanadi. Demak, ta'lim tizimi talabalarni bugungi kundagi hayotga emas, balki kelajakdagi hayotga tayyorlashi lozim. Bu ham ta'limning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

**Ta'limning yana bir o'ziga xos xususiyati uning tarbiyaviy xarakterga ega ekanligidir.** Har qanday tarbiya asosida bilim mavjud bo'lganidek har qanday ta'lim o'zida ma'lum tarbiyaviy ta'sirni mujassamlashtiradi. Bilimlarning talabaning faqat fikrlash qobiliyatiga emas, balki ichki kechinmalariga, his-tuyg'ulariga, fazilatlariga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Ayniqsa, gumanitar fanlarni o'rganish talabaning ma'naviyatini shakllanishida ahamiyatlidir. Shuning uchun ta'lim muassasalari tarixan faqat ilm maskanlarigina bo'lib qolmasdan, balki tarbiya o'choqlari sifatida ham qabul qilingan. Ta'lim va tarbiya bir jarayonning ikki tomoni bo'lib, biri-birini bilim berish bilan cheklanib qolmasligi, balki tarbiyalashdek murakkab jarayonini ham o'z zimmasiga olishi lozim.

Ta'lim jarayoni ta'sirida talabning aqliy kamolotini, bilish qobiliyatini, o'qishga, mehnatga bo'lgan munosabatini rivojlantirish va yangi to'ldirib keladi. Bilim bu kuch-qudrat, ana shu kuch-qudrat ma'naviyati yetuk inson qo'lida rivojlanishga xizmat qiladi. Ma'nan qashshoq inson bu qudratdan noo'rin foydalanishi va jamiyatga ziyon yetkazishi ehtimoldan holi emas. Bunday holatlar tarixda juda ko'p marotaba takrorlangan va bu isbot talab qilmaydigan aksiomaga aylangan. Demak, ta'lim albatta tarbiyaviy asosga ega bo'lishi va talabalarga faqat pog'onaga ko'tarish asosiy masalalardan biridir. Aynan ta'limning rivojlantiruvchi xususiyatini ikki darajaga ajratib tahlil qiladi.

**Zaruriy rivojlanish.** Bu talaba tayyorgarligidagi mavjud daraja, boshqacha qilib aytganda, talabadagi bor daraja, ya'ni talabning bugungi o'quv jarayonigacha bo'lgan tayyorgarlik darajasidir. Bu daraja talabning ishni mustaqil bajara olishi bilan xarakterlanadi.

**Yuqori darajadagi rivojlanish.** Boshqacha qilib aytganda, shu dars davomida ko'tarilish kerak bo'lgan darajadir. Bu talaba hozircha qila olmaydigan, lekin ko'mak vositasida eplay oladigan ishdir. Talaba ana shu o'zi uchun yangi bo'lgan va bajarishga kuchi yetadigan vazifani bajarish davomida ikkinchi darajaga ko'tariladi. Lekin bu vazifa talabning taraqqiёт zonasida joylashgan bo'lishi shart, aks holda rivojlanishga erishish qiyin. Yaqinlashib qolgan taraqqiyot zonasiga kirgan har narsa ta'lim jaraenida zarur rivojlanish darajasiga o'tadi.

Shunday qilib, yaqinlashib qolgan taraqqiyot zonasi rivojlanishdan ilgarilab ketadigan ta'lim vositasida yaratiladi. Ta'limning har bir bosqichi taraqqiётning erishilgan bosqichiga

tayanadi va muayyan bosqichni ko‘zlagan holda navbatdagi bosqichni tayèrlab beradi.

Demak, ta’limning yana bir zaruriy xususiyatlaridan biri uning rivojlantiruvchi xususiyatga ega ekanligidir. Ta’limning ana shu yuqorida sanab o‘tilgan xususiyatlarini hisobga olgan holda va ularga amal qilgan holda o‘quv jarayonini tashkil qilish shubhasiz ta’lim samaradorligini oshiradi.

Ta’lim jarayonida belgilangan maqsadga erishish uchun bir qator vazifalarni bajarish lozim. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Talabalarda bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish.
2. Talabalarda dunyoqarashni, ishonch va e’tiqodlarini o‘stirish.
3. Talabalarning ma’naviyatini boyitish va tarbiyalash.
4. Yoshlarning ichki imkoniyatlarini, qobiliyatlarini va iste’dodlarini ochish hamda o‘stirish.

Ushbu vazifalarni bajarishda **differensiyalashgan yondashuvning** ahamiyati beqiyosdir. Chunki, **differensiatsiya** (ya’ni yakka holdagi yondoshuv) talaba shaxsini chuqurroq o‘rganishga, kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga èrdam beradi. Talaba shaxsi chuqurroq o‘rganilgandan keyingina unga mos bo‘lgan metodlar tanlab olinishi maqsadga muvofiq. Barcha talabalar uchun umumiy metodlar qo‘llash ta’limni ko‘r-ko‘rona olib borish bilan barobar va bu holda ta’limning samarasini juda past darajaga ega bo‘ladi. Ta’limni differensiatsiyalash muammosi hozirgi davrda rivojlangan mamlakatlarda ma’lum darajada o‘z yechimini topmoqda va aytish kerakki, bu yechimlar ijobiy yutuqlarni qo‘lga kiritishga yordam bermoqda.

Ta'limda yoshlarni bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantirish, ularning qobiliyati va iste'dodlarini rivojlantirish jarayonida baholash va bilimlarni tekshirib turish muhim ahamiyat kasb etadi. Baholash ta'lim tizimida foydalanilayotgan metodlar qanchalik samarali ekanligini, talabalarning o'zlashtirish darajasini aniqlashga yordam beradi<sup>3</sup>.

Albatta ta'lim tizimini samarali bo'lishi pedagog kadrlarning tayyorgarlik darajasiga ham bog'liq. Pedagog birinchi galda o'z kasbini sevishi, hurmat qilishi, talabaga katta qiziqish va mehr bilan qarashi, jamiyat oldidagi o'zining katta mas'uliyatini his qila olishi shart.

Pedagog har bir talabaning bilimi va tarbiyalanganlik darajasini aniqlay olishi va hisobga olishi, o'quv materiallarini to'g'ri tanlay bilishi, tahlil qila olishi va umumlashtira bilishi pedagogik mahorat uchun zarur bo'lgan ta'lim usullari, vositalari va shakllarini mukammal bilishi, talabaga nisbatan talabchan bo'lishi pedagogik vaziyatga qarab ulardan o'rinli foydalana olishi, o'z faoliyatini tahlil qila olishi va xulosalar chiqara olishi kerak.

### **Bilish- ta'lim jarayonining metodologik asosidir**

Bilish jarayoni kabi ta'lim jarayonida ham o'quvchi bilmaslikdan bilishga, noto'g'ri va noaniq bilishdan toboro to'liqroq va aniqroq, chuqurroq bilishgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tadi. Bu jarayonda hissiy idrok etish ham abstrakt tafakkur ham, amalda sinab ko'rish ham bo'ladi.

Muayyan fan va hodisalar ob'ektiv dunyoni bilish jarayonidan o'rganiladi va ularning tashqi, ichki mohiyatini o'zlashtirish jarayonida

---

<sup>3</sup> "Pedagogika professionalnogo obrazovaniya." Pod. red. V.A.Slastenina. Moskva «Akademiya».2005. 48-str.


omillar aniqlanadi. Mushohada, tasavvur va abstrakt tafakkurga asoslanib faktlar umumlashtiriladi va ilmiy xulosalar chiqarish natijasida nazariyalar, qonunlar va kategoriyalar yaratiladi.

Bilish ikki pallaga- nazariya va amaliyotga bo‘linadi. Nazariya yangi bilimni, yangicha bilishni ifodalovchi tizimli fikrdir. Nazariya har hil shakllarda ifodalanadi: aksioma, teorema, qonun, formula, grafik, raqam va boshqalar. Nazariyada g‘oya shakllanadi. Amaliyot bilimlarning haqiqiylikini ko‘rsatuvchi mezondir. Kuzatish, tajriba o‘zgartirish, yaratish – bular amaliyot shakllariga kiradi.


Amaliyot ijtimoiy hayot va tabiatning murakkab jarayonlarini bilib olishda inson uchun asosiy qurol bo‘lib xizmat qiladi. Ilmiy bilishning vazifasi hodisalarning mohiyatini, ularning rivojlanish qonuniyatlarini ochishdan iborat emas, balki biror bir qonunning qay tariqa namoèn bo‘lish sabablarini ko‘rsatib berishdan iborat.

Ilmiy omil ilmiy bilishning elementi bo‘lib kuzatish, tajriba asosida qo‘lga kiritiladi, omilga asoslanmagan bilimning ilmiy qiymati, amaliy faoliyat uchun ahamiyati ham bo‘lmaydi. Shuning uchun ilmiy bilimning, fanning asosiy maqsadida omillar asosida yotgan umumiy bog‘lanishlarni, qonuniyatlarni topish, ularning mohiyatini bilishdadir.

Bilish sezishdan boshlanadi. Sezish tevarak – atrofdagi voqelik, narsa va hodisalarni sezgi organlarimizga ta’sir etuvchi ayrim sifatlarning ongimizda aks etishidir. Sezgilar – odam haqidagi barcha bilimlarimizning manbaidir. Ammo ilmiy asosda bilishda, masalan olimning bilishi bilan o‘quvchining bilish faoliyati o‘rtasida umumiylik bo‘lsa ham lekin, ular bir-biridan farq qiladi. Nazariy bilim negizida talabalarda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish bir necha bosqichlarda amalga oshirilishi mumkin:



Bilim olish darajalarini biz quyidagi bosqichlarda ko'rsatib o'tamiz.



## Ta'limning mazmuni

Ta'limning mazmuni uning maqsadidan kelib chiqadi. Ta'limning mazmuni deganda, o'quvchilarning o'qish jarayonida egallab olishi lozim bo'lgan hamda tizimga solingan bilim, malaka va ko'nikmalarning aniq belgilangan doirasi tushuniladi.

Ta'limning mazmuni bir qator ehtiyojlarni hisobga olish bilan belgilanadi:

1. Ijtimoiy ishlab chiqarishning eng zarur ehtiyojlar, ijtimoiy tuzimning xususiyatlari.

2. Davlatning xalq ta'limi va muayyan turdagi o'quv yurti oldiga qo'yadigan maqsad va vazifalar.

3. O'qitish qoidalaridan kelib chiqadigan va o'quvchilarning imkoniyatlarini (yosh imkoniyatlari va boshqalar) e'tiborga oluvchi didaktik talablar.

Ta'lim mazmuni o'quv rejasi, o'quv dasturi va darsliklarda ifodalangan.

**O'quv rejasi** - deb, o'qitiladigan fanlar, o'qitish uchun ajratilgan soatlar va o'quv yilini tuzilishini belgilab beruvchi davlat xujjatiga aytiladi. O'quv rejasi – barcha umumta'lim maktablarida so'zsiz amal qilinishi lozim bo'lgan davlat hujjatidir. Unda sinflar bo'yicha o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv fanlari va o'sha fanlar uchun ajratilgan o'quv soatlari ko'rsatilgan bo'ladi.

Maktabning yagona o'quv rejasi xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

**O'quv dasturi** – o'quv rejasi asosida ishlab chiqiladi. O'quv dasturi har bir o'quv fanining o'qitish uchun ajratilgan bilim xajmi,

tizimi va g'oyaviy – siyosiy yo'nalishini aniqlab beradigan davlat hujjatidir.

O'quv dasturida o'quv yili davomida xar qaysi sinfdan alohida fanlar bo'yicha o'quvchilarga beriladigan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarning hajmi belgilab beriladi. Dasturda xar qaysi o'quv fanlarining mazmuni izchillik bilan èritiladi va ma'lum mavzular orqali ko'rsatiladi. Ma'lum mavzu yuzasidan o'quvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar qisqacha ifodalab beriladi.

**Darslik** – o'quv jarayonining zarur qismidir. Ko'p vaqtlardan beri u o'qitishning eng muhim vositasi hisoblanar edi.

Har bir o'quv fanining mazmuni darslikda batafsil yoritiladi. Darslik tegishli fanga oid ilmiy bilim asoslarini dasturga va didaktika talablariga muvofiq ravishda bayon qiluvchi kitobdir. Darsliklar bilan bir qatorda ayrim fanlardan o'quv qo'llanmalar ham tuziladi. Masalalar va mashqlar to'plami, atlaslar, lug'at kitoblari va shu kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

O'quvchilar darslik va o'quv qo'llanmalari bilan ham darsda, ham uy sharoitida mustaqil ish olib boradilar. Darslik materiali katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. U bilan ishlash tarbiyalanuvchilarning aqliy tarbiyasiga, ularda ilmiy dunyoqarashning, axloq, odob, tafakkurning, nutqning, ishdagi mustaqilligini rivojlanishiga yordam beradi.

### **Ta'lim tamoyillari**

Inson vujudga kelibdiki, o'z farzandiga bilganlarini o'rgatish, o'zi ega bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarini keyingi avlodga o'tkazish dastavval anglanmagan holda bo'lsada mavjud edi. Bu yashash uchun kurash jarayoni kelib chiqib, yashashning zaruriy sharti hisoblangan.



Jamiyat rivojlanar ekan avloddan-avlodga o'tkazish lozim bo'lgan bilimlar hajmi ortib bordi. Bilimlar, egallash lozim bo'lgan malaka va ko'nikmalar murakkablashib bordi. Bu jarayon olimlar tomonidan tahlil qilinib asta-sekin ma'lum qoidalar ishlab chiqildi.

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048) ta'lim jarayonini chuqur o'rgangan olimlardan biri. U ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari haqida shunday fikrlarni bildiradi. O'quv jarayonida pedagog quyidagi qonuniyatlarga:

- talabani zeriktirmasligi;
- bilim berishda turlilikka asoslanishi;
- uzviylikka, izchillikka rioya qilish kerak;

Beruniy yangi mavzularni qiziqarli, asosan ko'rgazmali bayon etish samarali natijalar berishini ham ta'kidlaydi.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037) bilim olishda shaxslarni o'quv muassasasida o'qitish zarurligini qayd etar ekan, ta'limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi:

- talaba bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'yimaslik;
- o'qitishda jamoa bo'lib, ukuv muassasasida o'qitishga e'tibor berish;
- bilim berishda talabalarning maylini, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- o'qitishni jismoniy mashklar bilan qo'shib olib borish.

Ushbu ishlab chiqilgan qoidalar ta'limda mustahkam o'rin egallay boshladi.

Keyinchalik chex olimi Yan Amos Komenskiy ham bu borada ilmiy izlanishlar olib boradi va o'zining "Buyuk didaktika" asarini yozishga kirishadi. Va u bu asarida ta'lim-tarbiyaning samarali

tamoyillari, uslublari, dars jaraenlarini tizimlarini aniq ma'lumotlar asosida ko'rsatib o'tadi "Didaktikaning otasi, asoschisi" nomiga sazovor bo'ladi.

O'zbekistonda didaktik ta'limning tashkil topishi va rivojlanishi Abdulla Avloniy, Hamza Xakimzoda Niyoziy, Muhammadrasul Rasuliy, Qori Niyoziy kabi pedagog va olimlarning nomlari bilan bog'liq. Shunday qilib didaktika tamoyillari asrlar osha sayqal topib bordi.

Albatta didaktika tamoyillari har bir davrning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini hisobga olgan holda o'zgarib boradi. Chunki ta'lim tamoyillari jamiyat va davlat oldida turgan ulkan vazifalar asosida belgilanadi. Ta'lim (o'qitish) jarayoni murakkab hamda ko'p qirralidir. Unda pedagog va talabalar faol ishtirok etadilar. Bu jarayonning muvaffaqiyatli va samarali natijasi ta'lim jarayonining qonun qoidalari ya'ni ta'limga quyilgan didaktik talablarga qay darajada amal qilishlariga bog'liq. Ta'lim tamoyillari pedagogning faoliyatini va talabalar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi tegishli ko'nikma va malakalar hosil qilishning asosiy qonun va yo'l yo'riqlarini o'z ichiga oladi. Shu bilan bir vaqtda ta'lim tamoyillari har ikkala faoliyatning ya'ni pedagog va talaba tomonidan o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatini beradigan bir qancha talablarni ham umumlashtirib beradi. Shunga ko'ra ta'lim qoidalari o'qitishning eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hal qilishning asosiy negizi hisoblanadi. Ta'lim tamoyillari deb umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qish va o'qitish jarayonlarining yo'nalishi talabalar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, bilim

va malaka hosil qilishning asosiy qonun va qoidalarining yig'indisiga aytiladi.

Keyingi yillarda ta'lim qoidalarini o'rganish ularni tahlil qilish va mukammallashtirish ustida ish olib borilmoqda. Ta'lim qoidalarini sistemallashtirish masalasi ham doimo faol masala bo'lib kelgan.

Bugungi kunda pedagogika fani quyidagi ta'lim tamoyillarini ajratib ko'rsatmoqda:



Ta'lim tamoyillarini guruhlariga ajratish va ularga tavsif berish ishi butunlay yakunlangan deya olmaymiz. Chunki yuqorida aytib o'tganimizdek bu tamoyillar davr talablari va ehtiyojlaridan kelib chiquvchi ta'lim xususiyatlariga qarab o'zgarishi mumkin. Bundan tashqari pedagogika va xususan didaktikaning fan sifatida mukammallashtirib borishi yangi bilimlarning hosil bo'lishi ham ushbu

tamoyillarni guruhlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun ba'zi adabiyotlarda 7 ta, ba'zi adabiyotlarda 9 ta, ba'zi adabiyotlarda esa 10ta tamoyilni sanab o'tilgan. Hozircha biz 9 ta tamoyil guruhini ajratishni lozim topdik.

### **Ta'lim tamoyillariga tavsif**

*Ta'limning ilmiy bo'lishi tamoyili:* Ilmiy bilimlar haqqoniy voqelikni inson ongida aks etishidir. Tevarak-atrofnı o'rab olgan dunyoning qonuniyatlarini, narsa va hodisalarning xossalarini va ularning o'zaro aloqalarini aks ettiruvchi bilim ilmiy bilimlar hisoblanadi. Ilmiy bilimlar tajribalar, tekshirishlar, tahlil qilish, isbotlash kabilarnı talab etadi. Insoniyat ilmiy bilimlarini kengaytirib borgan sari haqiqiy voqelikka ma'lum darajada yaqinlashib boradi. Ilmiy jihatdan isbotlanmagan bilimlar ham mavjud va bu bilimlarnı hali inson tahlil qilishi va chuqurroq o'rganishi kerak bo'ladi. Ta'lim jarayonida biz talabalarga isbotlab bo'lingan, aniqlangan va amaliyotda tekshirib ko'rilgan bilimlarnı yetkazishimiz lozim.

Ta'limning ilmiyligi talabaning o'quv materiallaridagi qonuniyatlarini aks ettirish, tushunish va o'zlashtirishi uchun to'g'ri sharoit yaratish maqsadida zarurdir. Nazariy qoidalarnı tushunish-materialini ilmiy asosda izohlab berishning muhim belgisi bo'lib, u talabaning fikrlash faoliyatini xususiyatlarini belgilaydi. Ilmiy bilimlar ilmiyligicha qolib, voqeilikni har xil darajada aks ettirishi mumkin. Ilmiy izoh ta'limning hamma bosqichlarida, har bir sinfda ilmiylik qoidalari vazifalaridan biri nazariy ma'lumotlar tizimini shu ma'lumotlar tevarak-atrofdagi duneni qanchalik chuqur aks etganligi nuqtai nazaridan bilib olishdir. Ilmiylik qoidasi barcha yosh

guruhlardagi va turli o'quv yurtlaridagi talabalarga o'rganish uchun ilmiy jihatdan ishonarli, amalda sinab ko'rilgan ma'lumotlar berilishini talab etadi.

Ilmiy bilimlarni egallash jarayonida talabalarda ilmiy dunyoqarash e'tiqod tarkib topadi, tafakkur rivojlanadi. Yetuk milliy kadrlarni tarbiyalash va yetishtirish uchun hozirgi zamon fan-texnikasining rivoji darajasidagi ilmiy bilimlarni egallashga erishish muhim. Shu bilan bir qatorda talabalarni ilmiy-tadqiqot usullari bilan ham tanishtirib boorish maqsadga muvofiq. Ilmiylik ta'limning mazmuniga ham, usullariga ham aloqadordir ya'ni darsliklar, o'quv qo'llanmalar, o'quv dasturlari, o'quv rejasi ilmiy asosda yaratilishi lozim.

*Ta'lim-tarbiyaning birligi tamoyili:* Ta'lim va tarbiyaning o'zaro bog'liqligi isbot talab etmaydigan haqiqatdir. Har qanday bilim ma'lum tarbiyaviy ta'sirga ega va har qanday tarbiyaviy tadbir o'zida bilim asosini aks ettiradi. Bu hayotiy qonuniyat bo'lib biz ta'lim jarayonida uni hisobga olishimiz lozim. Ta'lim jarayonida o'tilayotgan katta va kichik mavzularning mazmunidan kelib chiqadigan tarbiyaviy tomonilarini to'g'ri belgilash va uni ta'lim bilan birga bir butunlikda amalga oshirishni ta'minlash juda qulay. Chunki tarbiya his-hayajon va amaliy hayot bilan chambarchas bog'liq. Bu esa bilimlarni puhtarok o'rganishga yordam beradi. Bilimlar esa ana shu tarbiyaviy jihatlarni mustahkamlanishiga ta'sir etadi. Bilimlar hayotni, hayotiy qonuniyatlarni bilishga xizmat qilsa, tarbiya ana shu hayotga nisbatan to'g'ri munosabatni tarkib topishini ta'minlaydi.

Demak, bir butun ta'lim jarayonida ikki o'zaro bog'liqlik: hayotni bilish va unga bo'lgan munosabatni tarkib toptirish jarayoni sodir bo'lar ekan. Ta'lim–tarbiyaning birligi ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil qilish va o'qitishning xilma-xil metod va uslublaridan foydalana olishga ko'p jihatdan bog'liq. Ta'lim bilan tarbiyaning birligini ta'minlamoq uchun:

a) bayon qilinayotgan o'quv materiallarining mazmuni ham ilmiy, ham g'oyaviy jihatdan to'g'ri tashkil qilinishi;

b) o'qitilayotgan mavzunining ilmiy va tarbiyaviy mohiyatini ochib borilishi, ta'lim jarayonida hadislardan foydalanish imkoniyatini yaratilishi;

v) bayon qilinayotgan ilmiy bilimlarning puxta va mustahkam o'zlashtirilishi va turmushda unga amal qilinishi;

g) ta'limda muammoli jarayonini vujudga keltirish, talabalarning qiziqishlari, aktivlik va tashabbuskorliklarini ta'minlashga e'tiborining kuchaytirilishi;

d) ta'lim jarayonida talabalarning uyushqoqligini, intizomlilik va javobgarlikni sezish, o'zaro yordam hislarini tarbiyalashni ta'minlash zarur.

*Ta'limning tizimli va izchil bo'lishi:* Ijtimoiy taraqqiyotning boy tajribasi ta'limda sistemalilik va izchillik bo'lishi shart ekanini tasdiqladi. Bilimlarning ma'lum sistemaga solinishi va izchil bo'lishi ta'lim samaradorligi belgilovchi eng yetakchi omillardan biridir. Hozirgi zamon didaktikasidan bu tamoyilga katta e'tibor berilmoqda. Chunki ta'limda izchillikka rioya qilib o'qitish bugun o'rganilgan bilimlarni mustahkamlashga va ertaga o'rganiladigan bilimlarga zamin tayyorlashga yordam beradi. Ya'ni o'tilayotgan fan yoki bayon

qilinayotgan yangi materialning talabalarning oldingi o'zlashtirilgan ilmiy bilimlari, ko'nikma va malakalari bilan izchil va uzviy bog'lanishi, shu bilan bir vaqtda o'qitilayotgan o'quv materiallarini o'zlashtirish orqali kelajakda yangi bilimlarni o'zlashtirishga, shuningdek navbatdagi ta'lim bosqichiga zamin yaratilishi nazarda tutiladi.

Ta'limning tizimli bo'lishi uning izchil bo'lishi bilan bog'likdir. Izchillikka asoslangan ta'limning xarakterli belgisi shundaki, u talabalarning oldindan o'zlashtirilgan bilim va malakalari zahirida yangi bilim ko'nikma va malakalar hosil qilish, ularning o'zaro boshlanishlarini takomillashtirish va aksincha, yangi bilimlarni bayon qilish jarayonida oldindan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarini yana ham chuqurlashtirish, kengaytirish va mustahkamlashni ta'minlashga qaratilganidir. Demak tizimli va izchillik ta'limda uzluksizlikni vujudga keltirishda ahamiyatlidir. Bundan tashqari ma'lum sistemaga solingan bilimlarni egallash o'rganish jarayonida qulaylik vujudga keltiradi. Albatta tizimli va izchillikni soddadan murakkabga qarab yo'naltirilishi maqsadga muvofiq. Bilimlarning asta-sekin, izchillik bilan murakkablashib borishi tafakkurni rivojlantiradi va natijada ta'limning rivojlantiruvchi xususiyati kelib chiqadi.

*Ta'limda nazariyaning amaliyot bilan bog'liq bo'lishini ta'minlash tamoyili:* Ta'limning asosiy maqsadi yoshlarni mustaqillik hayotga tayyorlash ya'ni turli xil hayotiy sharoitlarda o'z bilim, malaka va ko'nikmalarini amalda qo'llay olish darajasiga yetkazishdir. Shuning uchun biz ta'lim jarayonida talabalarni faqat ilmiy bilimlar

bilan qurollantiribgina qolmasdan, balki ana shu bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishlarini ta’minlashimiz lozim. Demak, bu tamoyil ta’limning ilmiyligi haqida tamoyil bilan hamohang bo‘lib, ular bir-birlarini to‘ldirib keladilar. Ta’limning ilmiyligi bilimlarni nazariy jihatdan o‘rganishga, mantiqiy bog‘liqliklarni tushunishga, fikrlash qobiliyatini o‘stirishga xizmat qilsa, amaliy harakatlar ana shu bilimlarni amalda qo‘llab ko‘rish yanada to‘liqroq ishonch hosil qilish, malaka hamda ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

*Ta’lim tizimida nazariya bilan amaliyotning birligi tamoyili:*  
Mazkur tamoyilda dastavval o‘quv fanining mazmunini va o‘ziga xos xususiyatga bog‘liq holda o‘qish jaraènida amalga oshiriladi. Bu birlik ilmiy bilimlarni puxta o‘zlashtirish va uni amalda qo‘llay olish, o‘quv materiallarini idrok qilish, anglash, shuningdek, uni mustahkam esda saqlab qolish kabi ruhiy operatsiyalar bilan bog‘liq holda bir butun jarayonni tashkil qiladi. Ta’lim jarayonida talabalar tomonidan matematika, fizika, biologiya, kimyo, astronomiya va boshqa tabiiy fanlardan o‘zlashtirilgan nazariy bilim, ko‘nikma va malakalar tajriba xonalari va laboratoriyalari, zamonaviy texnika vositalari, tajriba yer uchastkalari va ishlab chiqarish mehnati jarayonida qo‘llaniladi. Bu mashg‘ulotlar ularni kelgusida murakkab ilmiy nazariyalarni amalda qo‘llay olishlari uchun zarur bo‘lgan tajriba bilan qurollantiradi.

Talabalar o‘quv materialini tub mohiyatini, tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonununiyatlarini ilmiy asosda atroflicha to‘g‘ri, chuqur tushunib oladilar va kelajakda amaliy faoliyatlari uchun zarur bo‘lgan mahorat, ko‘nikma va malakalar hosil qiladilar. Shuning uchun ham har bir mavzuning xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘rganilayotgan



yangi bilimlarni mumkin qadar amaliyotga bog‘lash o‘quv jarayonining tamoyili sifatida qabul qilinadi.

*Ta’limda onglilik, faollik va mustaqillikka erishish tamoyili:* Ma’lumki, eski musulmon madrasalarida o‘qitish jarayoni, yod olish muhim o‘rin egallagan. Lekin tushunishga va anglab olishga e’tibor bir oz kamroq ajratilgan. Ayni vaqtda mohiyati anglab olingan bilimgina amalda samarali qo‘llash mumkin. Shuning uchun o‘quv jarayonida xotirasi kuchli bo‘lgan talabalarning mavzuni shunchaki yuzaki yodlab olishlariga yo‘l qo‘ymaslik lozim. Onglilik talabalarni yangi materialini idrok qilishda ta’riflar, teoremlar, adabiyotdan she’r yodlash va hokazolarning ifodalanishinigina emas, balki ularning hayotiy xodisalar, jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgan mavzuni ham tushunishlarini talab etadi.

Aks holda bilimlarda yuzakichilik avj oladi, bunda material quruq yodlab olingan bo‘ladi. Bunday bilimlar tez unitiladi. Bundan tashqari bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirish talabalarda bu bilimlarga nisbatan ma’lum munosabat hosil qilishni, emotsional kechinmalar uyg‘otishni ham o‘z ichiga oladi<sup>4</sup>. Biz yaxshi bilamizki, ta’lim ikki tomonlilik xususiyatiga ega. Ta’lim jarayoni pedagog yo‘naltiruvchi bo‘lib maydonga chiqadi va talabalar o‘rganish jarayonini o‘z boshlaridan kechiradilar. O‘rganish jarayoni murakkab psixologik jarayon bo‘lib talabadan ma’lum faollikni talab etadi. Pedagog qanchalik ta’lim jarayonini sermazmun, qiziqarli va mahorat bilan tashkil etmasin talaba tomonidan ma’lum faollik bildirilmasa, o‘quv

---

<sup>4</sup>Подласый И.П. Педагогика. Москва: Владос, 2005; Кн. 1

jarayonida samaraga erishish tashkil etmasin talaba tomonidan ma'lum faollik bildirilmasa, o'quv mumkin bo'lmaydi.

Demak o'quv jarayonida avval talabalarda faollikni uyg'otish zarur. Bu faollik bilish jarayoniga ta'sir etadi, idrok qilish, tahlil qilish, analiz va sintez kabi psixologik jarayonlarni ishga tushiradi. Talabalarda faollik holatini vujudga kelishda motivatsiyalar ahamiyatlidir.

Mustaqil tafakkur turli usullar bilan hosil qilinadi. Tafakkurni shakllantirish usullaridan biri mustaqil hal qilish, muammoli vazifalar qo'yishdir. Aytib o'tish joizki onglilik va faollikka mustaqil tafakkurni vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Bugungi kunda ta'lim oldiga qo'yilayotgan eng katta talablardan biri ham mustaqil fikrlash, muammolar yechimini mustaqil topish kabi xususiyatlarni talabalarda rivojlantirishdir. Umuman onglilik, faollik va mustaqillik o'zaro bir-birini to'ldirib turuvchi psixologik holatlar deyish mumkin. Bilimlarni ongli o'zlashtirish, bir tomondan, talabalarning mustaqil, faol fikr qilishlarini nazarda tutsa, ikkinchi tomondan aynan shu jarayon davomida talabalarning mustaqillik va faolliklarini hamda mantiqiy fikr qilish faoliyatlarini tarbiyalab, takomillashtirib borishni nazarda tutadi. Talabalar faolligini rivojlantirish, ularning mustaqilligini oshirish, talabalar ongliligini o'stirish o'qitishda yuksak samaradorlikka erishishga yordam beradi.

*Ta'lim jarayonining ko'rsatmali va ko'rgazmali bo'lishi tamoyili:*  
Ta'lim jarayonida mumkin qadar sezgi organlarini ko'proq jalb etish o'rganishni osonlashtiradi. Eshitish jarayonida abstrakt tafakkur ma'lum ish bajarsa, ko'rish orqali obrazli tafakkur ham ishga tushadi.

Ko'rsatmalilik mavzuni o'rganishda yengillik tug'dirishi bilan birga talabada qiziqish ham uyg'otadi. O'rganilgan mavzuni uzoq muddat esda saqlanishiga va qayta esga tushirishga yordam beradi.

Talabalarning sxema, jadval, diagramma kabi materiallar ustida ish olib borishlari va material xususiyatlarini taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, xulosa chiqarishlari mantiqiy fikrlash qobiliyatini o'stirishga yordam beradi. Albatta ko'rsatmalilik samarali natijalar berishi uchun uning boshqa tomonlarini ham e'tiborga olish kerak. Birinchidan, ishlatiladigan ko'rsatmali qurollar u e'ki talabalarining e'shi va o'ziga xos xarakter xususiyatlari, umumiy tayergarlikka-saviyasiga mos keladigan bo'lishi lozim. Ikkinchidan, foydalaniladigan ko'rsatmali qurollar o'tilaetgan dars mavzusining mazmunini ochib berishiga erdam beradigan materiallar bo'lishini hisobga olmoq, demak, uning to'g'ri tanlanishiga e'tibor bermoq lozim. Uchinchidan, dars jaraenida foydalanish uchun belgilangan ko'rsatmali materiallardan unumli foydalanmoq uchun zarur bo'lgan ta'lim usullari to'g'ri tanlangan bo'lishi lozim. Umuman olganda, ta'limni ko'rsatmali bo'lishini ta'minlash ustida hozirda ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda va ko'rsatmalilikni samaradorligini oshirishda fan-texnikaning keyingi yillar ichida erishgan yutuqlaridan foydalanish masalasi ishlab chiqilmoqda.

*Bilimlarni puxta va tizimli o'zlashtirib olish tamoyili:* Ta'lim jarayonida biz talabalarni bilimlarni mustahkam esda saqlanib qolishini ta'minlash zaruriy talablardan biridir. O'quv materiallarini mustahkam esda saqlab qolish, ayni dars jarayonida bayon qilinayotgan o'quv materiallarini tizimli va ongli o'zlashtirishga bog'liq. Avvalgi

mashg'ulotlarda hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalar ancha murakkabroq materialni o'zlashtirib olish uchun pillapoya, baza bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham bilimlar bazasining puxta bo'lmasligi keyingi o'rganiladigan yangi bilimlarni ham zaif bo'lishiga olib keladi. Yaxshi o'zlashtirilgan, mustahkamlangan bilimlarda esa keyingi yangi bilimlarni o'rganishda va mustahkamlashda asos bo'lib xizmat qiladi.

Bilimlarni o'zlashtirish jarayonida ularning puxta anglab olinganligini tekshirish, ba'zi tushunmovchiliklarni yo'qotish, mustahkamlashga e'tiborni qaratish didaktikaning asosiy masalalaridan biridir. Ta'lim jarayonida takrorlashni uyushtirish bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Takrorlashning ahamiyati shundaki, takrorlash faqat oldindan o'zlashtirilgan o'quv materialinigina esga tushirmay, balki shu o'quv materiallariga bog'liq bo'lgan yangi-yangi ma'lumotlar ham beriladi, o'zlashtirilgan bilimlarning noaniq tuman bo'lib qolgan tomonlari oydinlashtiriladi va to'ldiriladi. Bilimlarni o'zlashtirish jarayoni uzluksiz va ma'lum tizim asosida olib borilishi ta'lim samarasini oshiradi. Bilimlarni doimiy ravishda tekshirib borish, takrorlash tizimli va uzluksiz ravishda to'ldirib borish muhim didaktik talabdir.

*Ta'lim jarayonida shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish tamoyili:*  
Har bir talaba o'ziga yarasha qiziqishlari va shu bilan bir qatorda miqdori mavjud. Har bir talabaning o'ziga xos bo'lgan yutuqlari va shu bilan bir qatorda kamchiliklari ham bor. Agar pedagoglar o'quv jarayonida ana shu individual xususiyatlarni hisobga olmasalar har qancha unumli metodlardan foydalanmasinlar o'quv jarayonida yaxshi

natijalarga erisha olmaydilar. Chunki ta'limning asosiy vazifalaridan biri talabani umumiy rivojini ta'minlash. Lekin talabaning haqiqiy rivoji faqat uning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holdagina amalga oshirilishi mumkin. Talabalarning real o'quv imkoniyatlarini, ularning rivojlanish jihatlarini o'rganish hozirgi vaqtda shunchaki hohish emas, balki majburiy talabdir. Busiz o'quv jarayonini muqobillashtirish, uni boyitish aqlga sig'maydi. Albatta shaxsiy xususiyatlar juda xilma-xil va ularni o'rganish ma'lum vaqt talab etadi. Kuzatish jarayonida talabaning kuchli va ojiz tomonlarini, uning qiziqishlari, tafakkuri, nutqi, xotirasi, diqqati, hayoliga mos bo'lgan xususiyatlarini bilib olish mumkin.

Talaba shaxsining muammolari va qiyinchiliklarini tahlil qilish hamda shu muammolarning sabablarini aniqlash keyingi pedagogik chora-tadbirlarni rejalashtirishda juda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa o'zlashtirishi bir oz pastroq bo'lgan talabalar bilan yakka holda ishlash jarayonida pedagog o'zi uchun talabaning yangi qirralarini kashf etishi e'tiborli. Keyingi davrlarda "differensiallashgan ta'lim" degan tushunchani keng tarqalishining asosiy sababi ham shaxsiy xususiyatlari, qobiliyati, qiziqishlari, iqtidori kabilarni hisobga olgan holda talabalarni guruhlariga ajratishni va shu guruhlar uchun alohida dasturlar ishlab chiqishga qaratilgan. Guruhlar uchun tuzilgan dasturlar, qo'llaniladigan metodlar talabalarning shaxsiy xususiyatlari hisobga olgan holda tanlanadi. Didaktika bu yo'nalishda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda va bu ta'limning samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega.

*Ta'limda talabalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish tamoyili:* Ma'lum gurux uchun belgilangan o'quv materiallarining xarakteri, mazmuni va hajmi shu sinf talabalarining yosh xususiyatlariga mos bo'lishi lozim. O'rganilayotgan bilimlar, hosil qilinayotgan malaka va ko'nikmalar talabalarni haddan ziyod toliqtirib qo'ymasligi lozim. Boshqacha qilib aytganda, o'quv jarayoni talabalarning sog'lig'i, psixologik holatiga salbiy ta'sir etishini oldini olish lozim. Buning uchun har bir yosh xususiyatlarini chuqurroq o'rganib imkoniyatlar darajasini belgilab olish kerak. Ta'limning mazmuni shaxslarning kuch-quvvatiga mos bo'lishiga erishish lozim. Ta'limni haddan ziyod "yengillashtirish", "osonlashtirish" ham maqsadga muvofiq emas, chunki bunday ta'lim rivojlantiruvchi bo'la olmaydi. Demak har bir èsh davrida talabalarning imkoniyatlarini o'rganish va imkoniyatlarga mos ravishda ta'limni tashkil etish, o'rganiladigan bilimlar hajmini belgilashda talabalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish juda muhim bo'lib bu yo'nalishda ham tegishli ilmiy-tekshirish ishlari olib borilmoqda.

Hozirda O'zbekistonda ta'lim tizimini yangilash, mukammallashtirish borasida bir talay ishlar olib borilmoqda. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish hamda uni rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tarishga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida katta e'tibor berib kelinmoqda.

Uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi sifati har qanday davlatning zamon talablariga hamohang ravishda innovatsion rivojlanishida hal qiluvchi va muhim omil sanaladi. Fan, texnika va

texnologiyaning tobora taraqqiy etib borayotgani ta'lim sohasidagi tegishli o'zgarishlarni taqozo etadi. Mana shular asosida uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirishning asosiy tamoyillari (prinsiplari) belgilangan. Bular ta'limning ustivorligi, ta'limning ijtimoiylashuvi, ta'limning milliy yo'nalganligi, ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, iqtidorli yoshlarni aniqlash, yuqori darajada bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish kabilardir. Ko'rib turganimizdek uzluksiz ta'limni rivojlantirish tamoyillari didaktik tamoyillar bilan hamohang bo'lib, ana shu didaktik tamoyillarni yanada mukammallashuviga turtki bo'lib xizmat qilmoqda. Demak, bugungi kun talablarini va ehtiyojlarini hisobga olgan holda pedagogika va uning ajralmas qismi hisoblanmish didaktika o'quv jarayonini qonuniyatlarini yanada chuqurroq o'rganishi hamda ta'lim samaradorligini oshirish ustida ilmiy-tadqiqot ishlarini keng miqyosda olib borishi maqsadga muvofiq [22].

### **Ta'lim metodlari**


Xalq ta'limi vazirligi, pedagogika ilmiy tadqiqot instituti, metodist pedagoglarning, xususan pedagogika fanining dolzarb vazifalaridan biri - ta'lim-tarbiyadagi muammolarni, mahalliy va milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqish, barcha o'quv fanlari bo'yicha yangi milliy dasturlar yaratish, ta'limni pog'onalash, dars jarayonini toifalashdan iboratdir.

Shu munosabat bilan yaqin o'tmishdagi o'zbek o'quv muassasasilari o'qitish tarixiga bir nazar tashlash ayni paytda ta'lim metodlarini o'rganishni osonlashtiradi. Shubhasiz, mazkur ta'lim metodikasi tarixiga oid manba muayyan darajada ta'limning metodik

bo'shliqlarini ma'naviy jihatdan to'ldiradi, pedagog tarbiyachilarning pedagogik meros va xalq pedagogikasiga bo'lgan katta ehtiyoj va qiziqishlarini qondiradi.

Keyingi vaqtlarda taraqqiy etgan mamlakatlarning o'quv muassasasi sohasidagi yutuq va tajribalarini o'rganishga uni bizning sharoitimizga joriy etishga e'tibor kuchaydi. Ta'lim berishda o'qitish metodlari asosiy o'rinni egallaydi.

**Metod**-yunoncha atama bo'lib, usul, yo'l degan ma'noni anglatadi, ya'ni maqsadga erishish yo'lini bildiradi. Metodlar (usullar) har qanday axborotni (maqsadni) uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab quyidagi sinflarga ajratiladi:





Ta'lim jarayonida talabalarni o'zlashtirish, fikrlash jarayonini tashkil etish bo'yicha esa quyidagi metodlarni ajratib ko'rsatish mumkin: Axborotni **so'z orqali yetkazish va qabul qilishga** qaratilgan birinchi guruh metodlariga: hikoya, suhbat, ma'ruza kabilarni kiritish mumkin.

Nutq madaniyatini o'stirishda hikoyaning o'qitish va fikrlarni bayon qilish metodi sifatidagi imkoniyatlari boshqa metodlarga nisbatan yuqoridir. *Hikoya qilish* - pedagog tomonidan yangi o'tilayotgan mavzuga oid fakt, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon etiladi. Bu metod materiallarni bayon qilishdi, obrazlarga xarakteristika berishdi, tabiat hodisalari va ijtimoiy hayotdagi voqealarni tasvirlashda qo'l keladi. Hikoya qilish davomida talabalar passiv tinglovchi bo'lib qolishlariga yo'l qo'ymaslik kerak. Talabalarning diqqatini tasvirlanayotgan ob'ektga qaratibgina qolmay balki xuddi shu ob'ekt haqida ular ongli va aktiv fikr yuritishlarini ham ta'minlamoq lozim.

**O'quv materialini tushuntirish metodi** - pedagog tomonidan o'rganilayotgan mavzuning narsa, hodisa va voqealarning mazmunini xarakterlaydigan tushuncha, qonun va qoidalarni uqtirishdir. Bu metod ko'proq matematika, fizika, ximiya, ona tili, rus tili va shunga o'xshash fanlarni o'qitishda ko'proq qo'l keladi. Pedagogning ma'lum bir fanning u yoki bu mavzuga oid qonun, qoidalarni qanchalik asosli ekanligini faktlar, misol va dalillar keltirish, shuningdek masalalar, misollar ishlash yo'li bilan isbotlab beradi. Bu jarayonga talabalarning aktiv ishtirok etishlarini ta'minlamay turib, ko'tilgan maqsadga erishib

bo'lmaydi. Ayniqsa bayon qilinayotgan materiallarini umumlashtirish va xulosalar chiqarishda talabalarning o'z mulohazalari bilan ishtirok etishlarini ta'minlash muhim.

*Ma'ruza metodi* - bu metod o'quv materialini hajmini kattaligini, mantiqiy tuzilishi, obrazlari isbot va umumlashtirishning anchagina murakkabligi bilan farqlanadi. Agar hikoya darsning bir qisminigina egallasa, ma'ruza odatda ularni to'la qamrab oladi. Ma'ruza davomida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, mavzuga oid ko'rgazmali materiallarni namoyish etish, ma'ruza oxirida umumiy xulosalar chiqarish kabilar samaradorlikni oshiradi. Ma'ruza metodi keng qamrovli axborotni talabalarga yetkazishda juda ham qo'l keladi.

*Suhbat* - bu metod asosan savol-javob yo'sinida olib boriladi. Suhbatlarning ma'lum maqsadga qaratilganligi ularning xarakterini belgalaydi. Suhbat evristik xarakterda, etik xarakterda, instruktiv metodik xarakterda bo'lishi mumkin. Suhbat metodi talabalarni faol ishtiroki orqali o'tkazilganligidan mustaqil fikrlash, xulosalash kabi xislatlarni talabalarda shakllantiradi.<sup>5</sup>

**O'qitishning ko'rgazmali metodlari** - O'qitish jarayonida ko'rgazmalilik metodidan foydalanishning muhimligi o'rganilayotgan narsa va hodisalarni hissiy idrok etishga, ularni kuzatib mushohada qilishga talabani undash, mantiqiy va nazariy elementlarning birligiga ishonch hosil qilish nihoyat, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga o'rgata bilishdadir. Ta'limda ko'rgazmalilik metodi namoyish etish, illustratsiya va ekskursiya tariqasida olib borilishi mumkin. Ta'limda namoyish etish metodidan foydalanish asosan materiallarning xarakteriga-mazmuni, shakli ham hajmiga bog'liqdir. Namoyishning

o‘zi ham turlicha bo‘lishi mumkin, masalan, aslicha ko‘rsatilishi mumkin bo‘lgan buyum va narsalar, o‘simliklar va ularning tarkibi, kolleksiyalar, asbob va mashinalar, modellar va hokazo.

*Ekskursiya metodi* - ekskursiya metodi sinf sharoitida dars jarayonida qo‘llaniladigan o‘qitish metodidan tubdan farq qiladi. Bu metod bilan o‘rganilayotgan narsa va hodisalarni tabiiy sharoitda (zavod, fabrika, tabiatni kuzatishga) yoki maxsus muassasalarga (muzey, ko‘rgazma va hokazolarga) tashkiliy ravishda boriladi. Ekskursiya vaqtida kuzatish, zarur materiallarini yozib olish, rasmga tushirish, o‘lchash, hisoblash ishlarini olib borish mumkin. Ekskursiya davomida suhbat o‘tkazish, xulosalar yasash, o‘z fikrlarini umumlashtirish va yakun yasash lozim.

**O‘qitishning amaliy ishlar metodi** - amaliy metodlarga masalalar yechish, chizmalar tayyorlash, yozma mashqlarni bajarish kabilarni kiritish mumkin. Nazariy jihatdan egallangan bilimlar amalda qo‘llab ko‘riladi. Grafik jadval, kartalar chizish ham tegishli ko‘nikma va malakalarni hosil qilishga va ularni mustahkamlashga yordam beradi.

*Laboratoriya ishlari metodi* - laboratoriya mashqlari frontal tajribalar, laboratoriya ishlari, o‘qitishning texnik vositalari va o‘quv qurollari tipidagi boshqa asbob-uskunalar bilan mashg‘ulotlar tarzida o‘tkaziladi. Laboratoriya metodining boshqa o‘qitish metodlaridan farqi, shundaki, bu metod bilan ish ko‘rilganda har qaysi talaba nimanidir mustaqil, shaxsan tajriba qilib ko‘radi. Dars pedagog rahbarligida talabalarning mustaqil tajriba o‘tkazishlariga qaratilgan

bo‘ladi. Laboratoriya mashg‘ulotlarida mustaqillik, aktivlik, tashabbuskorlik oshadi.

*Mustaqil ishlar metodi* - keyingi davrda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishga katta e‘tibor berilmoqda. Chunki bu metod talabada ijodkorlikni, mustaqillikni rivojlantiradi. O‘quv dasturlarida mustaqil ta‘lim uchun soatlar ajratilmoqda. Talabalarni mustaqil ishlarini tashkil etishda ma‘lum fanning xususiyatidan kelib chiqib mustaqil ishning mazmuni, shakli va vazifalari tanlab olinadi. Topshirishgan mustaqil ishni bajarish uchun pedagog kerakli adabiyotlar va yo‘l yo‘riqlarni ko‘rsatishi, qisqacha tushuntirish berishi lozim. Talaba bajarishi kerak bo‘lgan mustaqil ish ko‘p vaqt egallamasligi va shu bilan bir qatorda talabaga rivojlantiruvchi sifatida ta‘sir ko‘rsatishi kerak.

*Reproduktiv, evristik metod* - reproduktiv metodlar birinchi navbatda talabalarning o‘quv materialini tezroq va mustahkamroq eslab qolishlarini ta‘minlash bilimdagi tipik kamchiliklarni tez aniqlash uchun qulay. Reproductive metodlar ayniqsa o‘quv materialining mazmuni asosan axborot xarakterida bo‘lsa, murakkab va butunlay yangi bilimlar o‘rganilishi lozim bo‘lgan holatda samarali natija beradi. Tafakkurning reproduktivlik xarakteri pedagog yoki boshqa manba orqali xabar qilinadigan o‘quv axborotlarini aktivroq qilishini va eslab qolinishini nazarda tutadi. Hikoya, ma‘ruza, ko‘rgazmalilik va amaliy ishlar ham reproduktiv asosga qurilish mumkin. Reproductive xarakterdagi amaliy ishlar shunisi bilan farq qiladiki, bu ishlarning davomida talabalar namunaga ko‘ra ilgari yoki yaqindagina o‘zlashtirgan faolligini oshirish maqsadida u ko‘pincha evristik ya‘ni

qisman izlanuvchan metod bilan qo‘yib olib borilishi mumkin. Yangi mavzuni bayoni davomida o‘rganilayotgan materialning ba‘zi elementlari ustida talabalarga fikr yuritish imkoni beriladi. Pedagog tomonidan yengil qisqa savollar tuzilib, talabalarning ishtirokida ularga javob topishga harakat qilinadi. Evristik metod talabalarning bilish darajasini aniqlashga ham yordam beradi. Demak, evristik metod yangi mavzuni idrok qilishda talabalarning ham qisman ishtirok etishini ta‘minlaydi.

*Ilmiy tadqiqot metodi* - bu metod ta‘lim tizimida unchalik keng tarqalmagan metod bo‘lib, ma‘lum tayyorgarlikni talab etadi. Pedagog rahbarligida talabalar yoki bir talaba ma‘lum ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazishi va ma‘lum fan uchun yangi xulosalarni yasashi mana shu metodni qo‘llash jarayonida vujudga keladi. Bu metod oliygohlarda ko‘proq qo‘llaniladi. Bu metod davomida ilmiy bilish jarayoni sodir bo‘ladi, ya‘ni xali noma‘lum bo‘lgan bilimlar kashf etiladi va egallanadi. Buning uchun ilmiy tadqiqot rejasi tuziladi. Maqsad belgilanadi va tadqiqot usullari tanlab olinadi. Tadqiqot natijalari asosida xulosalar yasaladi.

**O‘qitishning muammoli-izlanish metodi** - yangi mavzuni o‘rganish jarayoni o‘rganilayotgan materialni tayyor holda talabalarga bayon etmasdan, balki muammo sifatida taqdim etish muammo-izlanish metodini keltirib chiqaradi. Ya‘ni dars davomida yasash kerak bo‘lgan xulosalar pedagog tomonidan emas, balki talaba tomonidan yasalishiga harakat qilinadi. Har bir talaba qo‘yilgan muammoni o‘zicha yondoshib hal etishga harakat qiladi va o‘z fikrlarini bayon etadi. O‘rtaga tashlangan fikrlar muhokama qilinadi va pedagog

tomonidan yoʻnaltiriladi. Pedagog va talabalar birgalikda xulosalar yasashadi. Muammoli-izlanish metodi talabalarni bilish faoliyatini faollashtiradi, mustaqillikka, ijod qilishga oʻrgatadi, oʻqishga boʻlgan qiziqishlarini oshiradi, shaxsiy fazilatlarini tarbiyalashga erdam beradi.

Bu metod oʻrganilayotgan masalani chuqur tahlil etishga va bilimlarning puxta boʻlishiga yordam beradi. Bu metod oʻrganilayotgan masalani chuqur tahlil etishga va bilimlarning tafakkur darajasi hisobga olinishi kerak. Tanlangan mavzuni tahlil etish uchun talabalarda maʼlum bilimlar bazasi mavjud boʻlishi lozim. Shuning uchun ham bu metodni qoʻllash uchun talabalar alohida axborotlar bilan qurollantiriladi. Keyingi davrlarda muammoli-izlanish metodidan foydalanishga alohida eʼtibor berilmoqda.

**Oʻqitishning induktiv va deduktiv metodi** - oʻqitishning mantiqiy metodlari ikki turda: induktiv va deduktiv metodlar bilan olib borilishi mumkin. Darslarga tayyorlanish jarayonida oʻqitishning induktiv, deduktiv kabi metodlarini tanlash zarurati ham tugʻiladi. Keyingi davrlarda deduktiv oʻqitishga talab va eʼtibor kuchaydi. Ammo tafakkurning induktiv usullarini shakllantirmay turib faqat tabiiy-ilmiy emas, balki umum mehnat xarakteridagi tajribalar amaliy faoliyatida ham muvaffaqiyatga erishishga umid qilib boʻlmaydi. Induktiv yoki deduktiv metodlarni qoʻllash oʻrganilayotgan mavzu mazmunini ochishning maʼlum mantiqiy-xususiydan umumiyga yoki umumiydan xususiyga oʻtishni tanlashni anglatadi. Induktiv metodlar texnik qurilmalarni oʻrganishda va amaliy topshiriqlarni bajarishda keng qoʻllaniladi.

Matematika va fizikaga doir ko'pgina masalalar, ayniqsa pedagog talabalarni ayrim umumiyroq formulalarni mustaqil egallashlariga olib kelishi zarur deb hisoblangan hollarda, induktiv metod vositasida yechiladi. Deduktiv metoddan foydalanganda pedagog va talabaning faoliyatida avval umumiy holat, formula va qonunini beriladi, so'ngra asta-sekin ayrim holatlarni chiqarib aniqroq vazifalarni hal etish nazarda tutiladi. Deduktiv metod o'quv materialini tezroq o'tishga erdam beradi, abstrakt tafakkurni aktivroq rivojlantiradi. Nazariy materialni o'rganishda, anchagina umumiyroq holatlardan ayrim oqibatlarini aniqlashni talab qiluvchi masalalarni yechishda deduktiv metodni qo'llash ayniqsa foydalidir.

**Dasturlashtirilgan ta'lim** - dasturlashtirish deganda o'quv materialini o'rganishning har qanday dastur emas, balki dasturlashtirishning kibernetik va matematik qoidalari yoki shartlariga muvofiq dasturgina tushuniladi.

Ma'lumki, kibernetika murakkab tizim yoki jarayonlarni eng qo'lay yo'l bilan ma'lum maqsadga muvofiq holda idora qilish haqida bahs yuritadi. Talabalarga tegishli ilmiy ma'lumotlarni qayta hisobga olishini ta'minlash, tekshirib ko'rish, o'z-o'zini tekshirish kabi vazifalarni kibernetika boshqaradi. Dasturlashtirilgan ta'lim esa, yuqoridagi kabi kibernetika ilmi va metodlariga bog'liq holda ish ko'radi.

Dasturlashtirilgan ta'limning bosh vazifasi, talabalar mustaqil ishining unumdorligini oshirishga yordam berishdan iboratdir. Dasturlashtirilgan ta'lim ikki yo'nalishda: mashina vositasida hamda mashina vositasisiz olib boriladi. U ma'lum fan yuzasidan dastur

hajmida ilmiy bilim berish va shu bilimlarga bog‘liq holda tegishli ko‘nikma hosil qilishga qaratilgan mashqlar, misollar va masalalar ishlatish, ishlangan masala yoki savollarning javoblarini to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini talabalar tomonidan tekshirib ko‘ra olish imkoniyatlarini yaratadi. O‘zlashtirilgan bilim va malakalarni bir tartibga tushurishga yordam beradi.

Dasturlashtirilgan o‘qitish metodlari o‘quv materialini element bo‘yicha nazorat qilishni, o‘qitishni imkoniyati boricha individuallashtirishni, bilimlarni egallashning individual sur‘atini hisobga olishini ta‘minlash maqsadida qo‘llaniladi. Mashinasiz dasturlashtirilgan ta‘lim maxsus ishlangan darslik va metodik qo‘llanmalar vositasida olib boriladi. Bunda darsliklarda ayrim o‘quv fanining alohida qismlaridagi mavzu yuzasidan ma‘lumotlar berilgan bo‘ladi. Bunda ham mashq uchun topshiriqlar, o‘zlashtirilgan bilimlarni amalda masala va misollar yechishda mehnat jarayonida qo‘llana olishlari, o‘zi bajargan vazifalarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini tekshirib ko‘ra olishlari uchun yo‘llanmalar berilgan bo‘ladi. Garchi talaba topshiriqni bajara olmasa yoki xato qilsa, o‘sha joydan, ya‘ni o‘rganilishi lozim bo‘lgan materialning o‘zlashtirilishi qiyin bo‘lgan o‘rnidan boshlab qay darajada ish ko‘rish lozimligi ko‘rsatilgan bo‘ladi.

Bunday darsliklar xususan talabalarning mustaqil ishlari uchun juda muhimdir. Darslikda materiallar shunday taqsimlanadiki, unda berilgan materiallar qismlarga bo‘lib ko‘rsatiladi va har qaysi talaba tomonidan bajarilishi bilanoq o‘zini-o‘zi tekshirib ko‘rish imkoniyati beriladi. Shu yo‘sinda topshiriqlar borgan sari murakkablashib boradi.



Dasturlashtirilgan matnlar bilimlarni o'zlashtirishni muayyan mantiqiy yo'lini vujudga keltiradi. Ammo bu yo'l faqat ma'lum material uchun xarakterlidir, ya'ni ta'lim uslubi materialni mazmuniga bog'liqdir. Mazmun o'zgarsa, axborot berish va o'z-o'zini nazorat qilish usullari ham o'zgaradi. Uni bilimlarning ayrim tarkibiy qismlari bo'lish mumkin bo'lgan mavzularni o'rganishda, chunonchi, grammatikaga doir ayrim masalalarni, matematika teoremlarini, ba'zi bir kimyoviy va fizikaviy formulalarni fanda qaror topgan tizimlar haqida ma'lumot beruvchi tarixiy, biologik va geografik materialni o'rganish vaqtida qo'llash mumkin.

Pedagog shuni nazarda tutish kerakki, dasturlashtirilgan matnlarda aqlni o'stirish dasturi emas, balki o'quv materialni o'rganish dasturi berilgan. Shuning uchun bu metoddan foydalanishda ham uning kamchiliklarini hisobga olish lozim.

Keyingi yillarda respublikamizda akademik litsey, ixtisoslashtirilgan maktab internatlari va ayrim umumiy ta'lim maktablarida tashkil etilgan o'quv seminarlarni o'rganish va tadqiq etish asosiy vazifa qilib qo'yildi. Shunga ko'ra, hozirgi kunda pedagogikadan milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida darslik, qo'llanmalar yaratishga kirishildi. Bu ishda o'quvchi va talabalar hamda bo'lg'usi o'qituvchilarning umumiy madaniyati va ma'naviyatini, pedagogik bilim va madaniyatini, pedagogik tafakkurini o'stirish asosiy maqsad qilib qo'yildi. Bu maqsad pedagogik fikrlashga doir bilim va diniy-axloqiy, tarbiyaviy g'oyalar umumbashariy va milliy-madaniy qadriyatlarni puxta o'rganish bilan amalga oshirilmoqda.

Ta'limda test usuli qo'llanildi, iqtidorli bolalarni aniqlashga, o'qitishga alohida ahamiyat berilmoqda. Mingdan ortiq iqtidorli bolalar Amerika, Angliya, Shvetsiya, Yaponiya va Turkiyada ta'lim olib, mustaqil respublikamiz xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan bilim va kasblarni egallamoqdalar. Ma'lumki, pedagogika tarixi ham boshqa xalqlar, mamlakatlar pedagogika tarixi bilan aloqada rivojlandi va rivojlanmoqda. Shu sababdan hozir Markaziy Osiyo pedagogika tarixini tadqiq etishda xorijiy Sharq va Evropa mamlakatlari ta'lim tizimi ham o'rganilmoqda. Bu sohada respublika fan va texnika qo'mitasining «Milliy ruh», «Qadriyat» nomidagi va O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlari uchun ilg'or pedagogik qo'llanmalar va o'quv darsliklarini ishlab chiqish bo'yicha uyushtirgan tanlovlari bu sohada muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy attestatsiya komissiyasining tashkil etilishi — mustaqillikning muhim timsolidir. Bu Oliy attestatsiya komissiyasi o'z zimmasiga yuklangan ulkan vazifalarni, ya'ni «yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik xodimlar tayyorlashning yangi tizimini shakllantirish, ularni respublika ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy taraqqiyotining ustuvor muammolarini hal qilishga yo'naltirish, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni davlat yo'li bilan ekspertiza qilishni ta'minlash bilan yetuk ilmiy pedagogik kadrlar etishtirishga samarali ta'sir ko'rsatmoqda. Oliy pedagogika o'quv yurtlarida ilmiy daraja beruvchi ixtisoslashtirilgan kengashning tashkil etilishi bilan respublikamizda pedagogika tarixi va nazariyasi, fanlarni o'qitish usullari bo'yicha doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarini o'zbek tilida, turli millat

vakillarining o'z ona tillarida himoya qilishiga keng imkoniyat yaratildi, mazkur kengashlar milliy pedagog olimlar safining o'sishida muhim omil bo'lmoqda. Bu tadbir respublikada sifatli, ilmiy-pedagogik asarlar, o'quv-metodik qo'llanmalarning yaratilishiga, maktabgacha tarbiya muassasalarida, umumiy ta'lim maktablarda, o'rta va maxsus oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiyaning yuksak saviyada bo'lishiga, ta'lim tizimi mazmunining takomillashuviga samarali ta'sir ko'rsatmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaerda ta'lim va tarbiyaga e'tibor katta bo'lsa, o'sha erda taraqqiyot, yuksalish bor. Shuning uchun respublikamizning istiqboli uzluksiz ta'limni qay darajada amalga oshirilishiga bog'liq. Uzluksiz ta'lim barcha fuqarolarni tinimsiz o'qishini, izlanishini, shaxsni yuqori malakali bo'lishini talab etadi.

Uzluksiz ta'lim tizimining hayotga tatbiq etilishi respublikada xalq ta'limi faoliyatini tubdan o'zgartiradi hamda respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga muhim hissa qo'shadi. Uzluksiz pedagogik ta'lim tizimida pedagogik xodimlar tayyorlash pog'onali ravishda amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan uzluksiz pedagogik ta'limning ustuvor yo'nalishlari «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda belgilangan qoidalar asosida hayotga tatbiq etildi va amaliyotga keng joriy qilindi. O'tkazilgan islohotlar, samarali tajribalar respublikada ta'limning davlat standartlarini ishlab chiqish va tatbiq etish davr talabi ekanligi, bu ishni kechiktirmay amalga oshirish zarurligini taqozo etadi. Har qanday mamlakat va xalq taqdiri, uning

kelajagi, taraqqiyotining asosi elat va millatlarning tili, yozuvi va ta'lim-tarbiya maskani bo'lgan maktab bilan bog'liqdir. Shu sababli o'zbek milliy maktabini yaratish va uning asosida hozirgi kunda xalq ta'limi tizimida to'planib qolgan muammolarni ijobiy hal etish bugungi kunning kechiktirib bo'lmaydigan vazifasidir. Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy qayta ishlash intellektual salohiyat darajasini saqlab qolishga qilinadigan sarf-harakatlar moddiy-ashyoviy ishlab chiqarish sarf-xarajatlaridan sezilarli darajada ko'p, zero yaqin kelajakda xo'jalik, ijtimoiy, madaniy va boshqa hayotiy muhim sohalarda etakchilik intellektual salohiyati nisbatan rivojlangan mamlakatlargagina tegishli bo'ladi [8; 24;].

### **1.1-§. Jahon ta'lim tizimida erishilgan yutuqlar**

Dunyo kasbiy ta'limini o'rganmay turib, bu sohada yangi islohotlarni amalga oshirib bo'lmaydi. Bu borada bizga uzluksiz ta'lim tizimini olib boruvchi davlatlar tajribasi, ularning ishlab chiqqan ta'lim standartlarini o'rganish juda zarurdir. Bugungi kunda Buyuk-Britaniyada uzluksiz ta'lim va kasb ta'limining yangi tizimi ishlab chiqildi. Bu tizim turli xil yo'nalishlardagi mutaxassislarni, shuningdek, boshlang'ich o'rta maktablarning bitiruvchilarini tayyorlashni nazarda tutgan. Jahondagi ko'plab mamlakatlarda oliy o'quv yurtlari o'rta umumiy ta'lim tizimidan keyingi, navbatdagi ta'lim bosqichi hisoblanadi. Birinchi bosqich ta'limi 3-4 yil (yoki ko'proq) davom etadi va bitiruvchilarga bakalavr diplomi beriladi (AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Avstraliyada). Fransiyada birinchi bosqich oliy maktab bitiruvchilariga metriz, Belgiyada lisans unvoni beriladi. Ikkinchi bosqich oliy ta'lim maktablariga birinchi siklni tugatgan

bitiruvchilarning 10-25 foizi qabul qilinadi. Masalan, bu ko'rsatkich AQSHda - 20, Buyuk Britaniyada - 15, Avstriyada - 10, Avstraliyada - 7, YAponiyada - 6 foizni tashkil qiladi. Bu davrda tanlangan yo'nalish bo'yicha ixtisoslashtirilmagan, umumiy, fundamental bilimlar o'qitiladi (Angliya, Ispaniya. AQSH). GFR, Fransiya, Belgiya kabi mamlakatlarda esa ikkinchi bosqich oliy ta'lim maktablari talabalari ancha mukammal va muayyan maqsadga yo'naltirilgan bilimlarni egallaydilar. Lekin hali ular tor profildagi yuqori malakali mutaxassis unvonini olish uchun ikkinchisidagi o'qishlarini yana ixtisoslashtirilgan kurslarda 1-2 yil davom ettirishlari lozim.

**Germaniyada kasb ta'limi tizimi** - Germaniyada bir necha murakkab tuzilmaga ega bo'lgan ta'lim tizimi qabul qilingan. Ta'lim oluvchilarni mutaxassislikka yo'llashda 3 ta bosqichdagi maktablar tashkil etilgan bo'lib, ular o'z faoliyatini boshlang'ich ta'limdan keyin davom ettiradi. O'quv jarayonining turli jabhalarida o'ziga xos talablar yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular turli bosqichlarda turlicha amalga oshiriladi.

### **Germaniyada kasbiy ta'limning tuzilmasi:**

**1-bosqich:** Kasbiy ta'limga tayyorgarlikning birinchi yili (nazariy bilimlar berilib, ushbu kasbga yo'naltiriladi).

**2-bosqich:** O'quvchilar nazariy va amaliy oiladosh kasblar bilan ham tanishib boradilar (tugatilganidan so'ng, birinchi sinov olinadi).

**3-bosqich:** Mutaxassislashtirish jarayonidan iborat bo'lib, u imtihon bilan tugallanadi. Bu tizimda ta'lim oluvchilar nazariy va amaliy bilimlarga hamda kasblar haqida tushunchaga ega bo'lishlari kerak.



1-2 bosqichda keng ma'noda ishchilar tayyorlanadi. Ular oddiy ish jarayonlarini bajarib, murakkab jarayonlarga 3-bosqichga o'tadilar.



Germaniya – jahon ilm-fani va madaniyati o‘choqlaridan biri. Bu mamlakat ildizi asrlarga borib taqaluvchi ilmiy maktablarni, Gyote, Gegel, Betxoven, Nitshe, Eynshteyn singari olim va ijodkorlarni bilan dunyoga mashhur. Xalqaro doirada e‘tirof etilgan olmon ta‘lim dargohlarida mustaqil fikr hamda keng dunyoqarash shakllanishiga alohida e‘tibor beriladi. Ta‘lim tizimiga tatbiq etilayotgan yangi usullar, so‘nggi axborot texnologiyalaridan unumli foydalanmaganlarga esa juda qiyin. Taraqqiyot manzili sari oshiqayotgan jamiyatda bilimsiz o‘z o‘rniga ega bo‘lish amri mahol. Darvoqe, olmonlarga xos temir intizom, bir so‘zlilik xislatlari ham aynan ta‘lim dargohlarida shakllanadi. Germaniya Konstitutsiyasiga muvofiq, maktab ta‘limi davlat nazoratidadir. Mamlakatda 16 ta federal hududlar mavjud bo‘lsa, ularning har biri o‘zining ta‘lim to‘g‘risidagi qonuniga ega. Shu sababli federal hududlarning maktab ta‘lim tizimida ayrim farqlar bor.

Masalan, aksariyat hududlarda boshlang‘ich ta‘lim 4 yil (birinchi sinfdan to rtinchiga qadar), poytaxt Berlinda esa – 6 yil. Ammo bu kabi farqlarga qaramasdan, barcha hududlar uchun umumiy tartibqoidalar amal qiladi. Germaniyada maktab ta‘limi majburiy va bepul. 6 yoshdan 18 yoshgacha fuqarolar majburiy tartibda ta‘lim olishi shart qilib belgilangan. Maktab ta‘lim tizimi esa boshlang‘ich, o‘rta va yuqori bosqichlarga bo‘linadi. Asosiy maktabni tugatgan o‘smirlar tugallanmagan o‘rta ta‘lim haqida shahodatnoma oladi. Ushbu hujjat bilan kasb-hunar maktablariga kirish mumkin. Bizdagi kasb-hunar kollejlariga o‘xshab ketadigan mazkur maktablarda talaba muayyan kasb-hunar bo‘yicha bilim va tajriba oshiradi. Mazkur ta‘lim dargohida gumanitar, tabiiy fanlar va xorijiy tillar chuqur o‘rgatiladi. O‘quvchilar

o‘n birinchi sinfdan tanlagan yo‘nalishidan kelib chiqib, asosiy vaqtini bir necha fanni chuqur o‘rganishga sarflaydi. Gimnaziya – oliy ta‘limga tayyorgarlikning hal qiluvchi bosqichi. Negaki, gimnaziyani tugatganlik to‘g‘risidagi imtiyozli shahodatnoma universitetga imtihonsiz kirish huquqini beradi. Ammo imtiyozli shahodatnomani olish oson emas. O‘quvchiga ushbu hujjatni berishda uning o‘n uch yil davomidagi natijalari hamda to‘rtta fan bo‘yicha yakuniy imtihon baholari inobatga olinadi. Olmon zaminida oliy o‘quv yurtiga kirish uchun o‘n uch yil yaxshi natija bilan o‘qish kerak. Ana shundan keyingina universitet yo‘llari ochiladi. Nemis pedagoglari iste‘dodsiz o‘quvchining o‘zi yo‘q, deb hisoblashadi. Shunga ko‘ra ular o‘quvchining ochilmagan qirralarini kashf etish, ularni yangilik va ixtirolar ruhida tarbiyalashga intiladi. "Fikrlayapmanmi, demak, yashayapman!" deydi mashhur faylasuf Rene Dekart. Olmon maktablarida ana shu naql oltin qoida sifatida qabul qilingan. Pedagoglar birinchi navbatda o‘quvchining, hatto xató bo‘lsada, mustaqil fikri bo‘lishiga erishishni maqsad qiladi. Ta‘lim jarayoni esa ota-ona va o‘qituvchi o‘rtasidagi uzviy hamkorlikka tayanadi. Germaniya – jahon ilm-fani va madaniyati o‘choqlaridan biri. Bu mamlakat ildizi asrlarga borib taqaluvchi ilmiy maktablarni, Gyote, Gegel, Betxoven, Nitshe, Eynshteyn singari olim va ijodkorlarni bilan dunyoga mashhur. Xalqaro doirada e‘tirof etilgan olmon ta‘lim dargohlarida mustaqil fikr hamda keng dunyoqarash shakllanishiga alohida e‘tibor beriladi. Ta‘lim tizimiga tatbiq etilayotgan yangi usullar, so‘nggi axborot texnologiyalaridan unumli foydalanmaganlarga esa juda qiyin. Taraqqiyot manzili sari oshiqayotgan jamiyatda bilimsiz o‘z



o‘rniga ega bo‘lish amri mahol. Darvoqe, olmonlarga xos temir intizom, bir so‘zlilik xislatlari ham aynan ta‘lim dargohlarida shakllanadi. Germaniya Konstitutsiyasiga muvofiq, maktab ta‘limi davlat nazoratidadir. Mamlakatda 16 ta federal hududlar mavjud bo‘lsa, ularning har biri o‘zining ta‘lim to‘g‘risidagi qonuniga ega. Shu sababli federal hududlarning maktab ta‘lim tizimida ayrim farqlar bor. Masalan, aksariyat hududlarda boshlang‘ich ta‘lim 4 yil (birinchi sinfdan to\_rtinchiga qadar), poytaxt Berlinda esa – 6 yil. Ammo bu kabi farqlarga qaramasdan, barcha hududlar uchun umumiy tartib qoidalar amal qiladi. Germaniyada maktab ta‘limi majburiy va bepul. 6 yoshdan 18 yoshgacha fuqarolar majburiy tartibda ta‘lim olishi shart qilib belgilangan. Maktab ta‘lim tizimi esa boshlang‘ich, o‘rta va yuqori bosqichlarga bo\_linadi.

### **Kasbiy ta‘limning Fransuz modeli**

Fransiya boshlang‘ich ta‘lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo‘lgan bolalar jalb qilinadilar. O‘quvchilar 11 yoshda boshlang‘ich maktabni tugallab o‘rta maktabga o‘tadilar. O‘rta ta‘lim esa kollejlarda va litseylarda amalga oshiriladi. O‘quvchilar umumiy ta‘lim va texnik litseylarni tugatganlaridan so‘ng bakalavr unvoni va diplom ish uchun imtihon topshiradilar. Ana shunday diplomga ega bo‘lganlarga oliy o‘quv yurtlariga kirish huquqini qo‘lga kiritadilar. Fransiyada talabalar pedagogika, politexnika instituti, oliy ma‘muriy maktablarga kirish uchun imtihon topshiradilar. Bundan tashqari shu kasbga moyilligi ham alohida sinab ko‘riladi. Boshqa oliygohlarga va universitetlarga esa bakalavr diplomi bo‘lgan yoshlar imtihonsiz qabul qilinaveradi. O‘qish muddati 2 yil va , sakkiz haftalik ishlab

chiqarish amaliyotini ham ko'zda tutadi. Fransiyada 300 ga yaqin kollejlarda mavjud. Bu kollejlarda 80 ortiq yo'nalishlar bo'yicha o'rta mutaxassislar tayyorlanadi . Bu kollejlarning o'qitish tizimi turli xil bo'lib o'qish muddati ham turli xil yillarni tashkil qiladi. Aksariyat kollejlarda 1-2 yilni tashkil qilsa ba'zilarida 4-5 yilni tashkil qiladi .

Fransiya kollejlari hozirgi kunda 10000000-dan ziyod yoshlar taxsil olmoqda Har yili 2000000-yaqin yoshlar kollejlarni bitirishadi. Fransiya kollejlari infratuzilmasi, moddiy texnik bazasi yaxshi ta'minlangan. O'quvchilar uchun barcha sharoitlar yaratilib berilgan. Fransiyada maktabni bitirgach, kollejlarda o'qitish tizimi hukmronlik qiladi. Bu esa o'z navbatida erta kasb egallashdan asrab qoladi.

## Fransiyada kasbiy ta'lim

Fransiyada maktabni bitirgach kollejlarda o'qitish tizimi hukmronlik qiladi

Bu esa erta kasb egallashdan asrab qoladi.

Fransiyada 11 -yoshdan keyin kollejlarga qabul qilinadi

Undan keyingi ta'limni o'quvchi umumta'lim yoki texnik litseylarda davom ettirishadi


Fransiyada boshlang'ich ta'lim asosan 11 yoshgacha bo'lib, keyin o'quvchi kollejlarda ta'lim oladi. Undan keyingi ta'limni o'quvchi

umumtaʼlim yoki texnik litseylarda davom ettirishadi. Bugungi kunda texnik litseylar texnik bilimlarni berib, u asosida bakalavr unvonini olish mumkin. Oʻquv muassasining ixtisosligiga qarab, bakalavrlar fransuz tilini, sotsiologiya asoslarini, matematika, tabiiy fanlar va texnologiya fanlarini yaxshi egallaydilar Malakali ishchi-xodimlarni tayyorlashda davlat va xususiy litseylar faoliyat koʻrsatib, ularning hammasi davlat nazorati ostida boʻladi. Kasbiy taʼlimda oʻqish jarayoni Taʼlim vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi, uni moddiy taʼmirlash javobgarligi esa davlat zimmasidadir. Umumiy kasbiy taʼlimda oʻqitish jarayoni Fransiyada bepuldir.

1. Fransuz universitetida taʼlimning dastlabki 2 yilida qator mutaxassisliklar uchun yagona oʻquv dasturlari mavjud.

2. Universitetning 2-kursini tugatib, tegishli guvohnoma olgan talaba shu universitetning 3-kursida oʻzi tanlagan mutaxassislik boʻyicha oʻqishni davom ettirishi yoki boshqa universitetga oʻtishi mumkin.

## Fransiya kasb -talimi tizimi:




- ❑ Fransiyada 300 ga yaqin kollejlarda mavjud.
- ❑ Bu kollejlarda 80 ortiq yoʻnalishlar boʻyicha oʻrta mutaxassislar tayyorlanadi . Bu kollejlarning oʻqitish tizimi turli xil boʻlib oʻqish muddati ham turli xil yillarni tashkil qiladi. Aksariyat kollejlarda 1-2 yilni tashkil qilsa baʼzilarida 4-5 yilni tashkil qiladi .
- ❑ Fransiya kollejlarida hozirgi kunda 1000000-dan ziyod yoshlar taxsil olmoqda. Har yili 200000- yaqin yoshlar kollejni tamomlaydilar.

## Yaponiya kasb ta'limi tuzilmasi

**Majburiy ta'lim.** Ta'limning bu pog'onasiga 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinib, ular shu muddat ichida 6 yillik boshlang'ich maktab va 3 yillik kichik o'rta maktab kursini o'taydilar. 9 yillik bu ta'lim majburiy bo'lib, barcha bolalar bepul o'qitiladilar va tekin darsliklardan foydalanadilar. Yuqori bosqich o'rta maktabi. Bu maktablar ta'lim yo'nalishining 10, 11, 12, sinflarini o'z ichiga oladi.

**Yaponiyada kasb-hunar ta'limi.** Hozirgi kunda yaponiyada 750-ga yaqin kollejlari mavjud bo'lib ularga uch yarim millionga yaqin yoshlar talim olishmoqda 150-ga yaqin texnik yo'nalishdagi kollejlari mavjud. 90- ga yaqin tibbiyot yo'nalishidagi kollejlari mavjud. Yuzdan ortiqroq pedagogika kollejlari mavjud Yaponiya kollejlari 3-xil turkumlanadi.

- I. Kichik kollejlari.
- II. Texnik yo'nalishdagi kollejlari.
- III. Maxsus tayyorgarlik kollejlari.



## **Finlandiya ta'lim tizimi**

Ma'lumki, so'nggi paytlarda Finlandiya ta'lim tizimi dunyodagi eng yaxshi tizim hisoblanib kelinmoqda. Xo'sh, Finlandiya ta'lim tizimi bunday muvaffaqiyatga qanday erishdi? Zero, aksaryat hollarda fin talabalari AQSH va Buyuk Britaniya talabalaridan yuqoriroq natijalarini qayd etishadi. Finlandiyada majburiy ta'lim 9 yil davom etib, o'quvchilar 16 yoshdan maktabni tark etishlari mumkin. Ushbu g'oya Finlandiya talabalarini haqiqiy hayotga tayyorlashga qaratilgan.

Finlandiyadagi maktablar hech qanday tartibda joylashmagan, maktablar, mintaqalar, o'qituvchilar va hatto o'quvchilar o'rtasida taqqoslashlar mavjud emas. Ular raqobat emas, hamkorlik muvaffaqiyat kalitidir deb hisoblashadi. Fin o'qituvchilari dunyodagi eng malakali o'qituvchilardir. Finlandiyada o'qituvchilikka bo'lgan talab juda yuqori.

Finlandiya ta'lim tizimi test natijalarini ko'paytirish matematika, tabiiy fanlar va ingliz tillariga ustuvorlik berish o'rniga, o'qish uchun sog'lom va uyg'un muhit yaratishga e'tibor beriladi. Bunda ta'lim "Ijtimoiy tengsizlikni muvozanatlash vositasi bolishi kerak", degan mafkuraga ega. O'qituvchilar odatda kuniga 4 soatdan amaliy mashg'ulot o'tkazishadi va har hafta ularga kasbiy rivojlanish uchun 2 soat vaqt ajratildi. Bu esa o'z navbatida o'qituvchilarga tushadigan stressni kamaytiradi. Geografiya ta'limida turli matnlar, o'yinlar, immitatsiya keng qo'llaniladi. Masalan, o'quvchi biror kompaniya prezidenti sifatida fikrlaydi, ish yuritadi, biror muammoni hal qiladi, o'zi xulosalar chiqaradi. Umuman, bunda ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarni kelgusi hayotga, ya'ni ishbilarmonlikka tayyorlashdan iborat. Quyi sinflar qo'llanmalarida esa deyarli xarita yo'q, ular o'rnini

xarita sxemalar egallagan. Tekstda raqamli sonlar deyarli uchramaydi, mavjudlari ham taqqoslash xarakteriga ega bo‘lib, ular eng past, eng yuqori, eng kichik, eng baland, eng uzun kabi tarzlarda berilgan. Mavzu yoki bo‘limdan keyin qo‘yiladigan savollar va topshiriqlar mavzu mazmunini aks ettirmasligi ham mumkin. Qo‘yiladigan savollarning aksariyati muammoli topshiriqlar, diskussiya savollari, amaliy o‘yinlar tarzida berilgan. O‘quvchilar uchun chiqarilgan geografiya darsliklarida kompyuterlar bilan ishlash uchun maxsus savollar, qiziqarli topshiriqlar, matematik statistika usullari, turli o‘yinlar, testlar tarzida geografik bilimlarni egallashga keng o‘rin berilgan. O‘quvchilar ularni mustaqil bajarish jarayonida tadqiqotchi rolini o‘ynaydilar.

Demak, geografiya darsligi kapitalistik mamlakatlar geografiya ta'limi metodikasida eng yetakchi o‘rinni egallaydi. Finlandiya ta'lim tizimida geografiya fanining o‘rni va ta'lim samaradorligi bir jihati bo‘lsa, yana bir tomondan mavzuning ba’zi muammolari, kelajakda rivojlanishiga tahdid solib turgan ayrim jihatlari ko‘rib chiqiladi.

Finlyandiyada darsliklar Sanoma Pro, Otava yoki Edita kabi ko‘plab nashriyotlar tomonidan ishlab chiqiladi. Nashriyotlar odatda o‘z mahsulotlari namunalarini maktablarga yuboradi, shuningdek, pedagoglarni bozorda mavjud mahsulotlar bilan tanishib, o‘z tanlovini amalga oshirishi uchun yangi darsliklarning taqdimotlariga taklif qiladi. Xarid qilinadigan darsliklar masalasidagi hal qiluvchi qaror maktab direktorlari va munitsipalitetlar rahbariyati tomonidan qabul qilinadi. Maktablar darsliklarni o‘quvchilarga bepul taqdim etadi va kelgusi avlod o‘quvchilari ham ushbu darsliklardan foydalana olishlari uchun ehtiyotkorlik bilan foydalanishni so‘raydi. Ko‘plab nashriyotlar



darsliklarning raqamli talqinini va darsliklarga ilova qilish mumkin bo'lgan boshqa ko'plab resurslarni ham taqdim etadi.

Tadqiqotchilarning qayd etishicha, darsliklar umumta'lim maktabida hal qiluvchi rolni o'ynaydi va aksariyat o'qituvchilar uchun «o'quv dasturining ekvivalenti»ga aylanadi. Internetdan topish mumkin bo'lgan darsliklar namunalari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, qandaydir o'ziga xos «fincha standart» mavjud emas: fin noshirlarining darsliklari, masalan, Kembrij, Pirson yoki Xodder kabi jahonning yetakchi nashriyotlari chiqargan darsliklari kabi **umumqabul qilingan pedagogik tamoyillar** asosida ishlab chiqilgan. Misol uchun, Finlyandiyaning Otava nashriyoti tomonidan boshlang'ich maktab uchun chiqarilgan ona tili darsligi bilan Britaniyadagi Cambridge University Pressning shunday darsligini, Sanoma Pro va Hodderning tarix bo'yicha yoki Sanoma Pro va Pearsonning biologiya bo'yicha darsliklarini taqqoslab ko'ring.

Finlyandiyaning PISA'dagi muvaffaqiyatiga **darsliklar emas**, balki **yuqorida sanab o'tilgan omillar** (nomarkazlashuv (detsentralizatsiya), o'qituvchilarni tayyorlash va barcha uchun bir xil ta'lim olish imkoniyati) sabab bo'lgan.

### **1.2-§. Dars ta'limni tashkil etishning asosiy zamonaviy shakli**

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2018 yil 5 maydagi PQ-3697 sonli "Faol tadbirkorlik va innovacion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori va 2018 yil 7 maydagi PQ-3698 sonli "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovაციyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha

chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish lozimligi keltirilib, hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalari amaliyotida jahon tajribasini joriy etish o'ta muhimligi ta'kidlangan [1].

Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash sifatini ta'minlash muammosi har doim eng muhim dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan ishlab chiqarish korxonalaridagi mulkchilikka bo'lgan munosabat va talablarning o'zgarishi hamda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash pedagoglar, talabalar va ota-onalar, shuningdek, jamiyatning hamma tizimlariga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Shuning uchun oldimizda turgan asosiy vazifalaridan biri, bu ta'lim sifatini ta'minlash va uni mazmunini boyitish va zamonaviy innovatsion va pedagogic texnologiyalarini tadbiq etish, jahon tajribasini qo'llashda uning samarasini oshirish va ta'lim sifatini ta'minlash bilan bog'liqligini doim ustivor yo'nalishligini bilishimiz kerak [2]. Demak, bugungi kunda sifatni ta'minlashning yo'nalishlaridan biri bu oliy ta'lim muassasalarida nafaqat mamlakat ichkarisida, balki xorijiy mamlakatlar bilan shakllanishi albatta eng taraqqiy etgan ta'lim usullarni tadbiq etishni taqozo etadi. Buning asosida video konferensiyalar, masofaviy ta'lim turlarini amalga oshirish mumkin. Onlayn rejimida o'tkaziladigan bunday faol muloqot jarayonida, ikki tomondagi olimlar o'rtasida dolzarb muammolar bo'yicha bahs-munozaralar, ularning yechimlari, ma'lum bilim sohalari bo'yicha tajriba almashish kabi vazifalar amalga oshirilishi lozim. E'tirof etish kerakki, rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'lim mamlakat ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy



jarayondir. Shu tufayli yurtimizda maktab ehtiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan mablag'lar miqdori yildan-yilga oshib bormoqda. Shu bilan birga respublikamizda ta'lim tizimida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish va ularni natijaviyligini ta'minlash bu borada ta'lim tizimi sifatini nazorat qilishning zamonaviy usullarini qo'llash zaruratini keltirib chiqaradi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini ta'minlashni va nazorat qilishni xorijiy tajribalar asosida oshirish, mazkur mavzu dolzarbligi va bugungi kunda zaruratini ko'rsatadi. Kadrlar raqobatbardoshligini ta'minlash uchun o'qitishni yangi zamonaviy ta'lim texnologiyalarga moslashtirish, zamonaviy metodlarni va tamoyillarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishda xorijiy tajribalar bugungi kunda zarur bo'ladi. Bugungi kunda oliy ta'lim sifatini ta'minlash va modernizaciyalashtirishda avvalombor, zamonaviy o'quv-metodik ta'minotni shakllantirish masalasi paydo bo'ldi. Shu sababli davlatimiz tomonidan oliy ta'lim oldiga qo'yayotgan masalalarni ijobiy hal etish uchun zamonaviy o'quv-metodik ta'minotni yaratish dolzarb masala bo'lib turibdi. Ta'lim sifati va ta'lim samaradorligi jamiyatda hayot sifatini ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Davlat va jamiyat umumiy va kasbiy ta'limga qanchalik ko'p mablag' sarflasa va natijasi eng yuqori xalqaro standartlarga javob bersa, hayot sifati shunchalik yuqori bo'ladi. Ta'lim samaradorligini belgilashda eng optimal qarorlar qabul qilish yuqori ta'lim sifatga erishishni talab etadi. Mamlakatimizning hozirgi davrdagi rivojlanish bosqichida oliy kasbiy ta'lim globallashtirish jarayonlari davrida mamlakatning milliy, iqtisodiy, ekologik, siyosiy xavfsizligini

ta'minlashga qodir bo'lgan shaxslarning shakllanishidagi, insoniyatning universallasuvi va postindustrial axborot jamiyatiga o'tishidagi asosiy vositalardan biri bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga hozirgi kundagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi asoratlari davom etayotgan bir pallada oliy ta'lim jamiyatni birlashtirishning, yagona ijtimoiy-madaniy makonni saqlab qolish, ijtimoiy nizolar va etnomilliy ziddiyatlarni yengib o'tishning eng muhim salohiyatli omili sifatida olib qaralishi lozimdir. Yangicha ta'lim tizimlarining shakllanishi tendenciyalari aniq ravshan turibdiki, hozirgi zamon jamiyatining umumiy rivojlanishi tendensiyalar bilan belgilanadi [3]. Ta'lim sifati an'anaga ko'ra o'qitishning va ilmiy tadqiqotlarning OTM darajasidagi tabiiy elementi va olimlarning kasbiy faoliyatidagi ajralmas bir bo'lagi bo'lib sanaladi. Hozirgi kunda oliy ta'lim sifatini oshirish butun dunyoda ta'lim tizimidagi eng muhim va asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shuning uchun ham oliy ta'lim sifatini baholashdagi yondashuvlarni tadqiq qilishga ehtiyoj tug'iladi. Shunga ko'ra, oliy ta'lim sifatini ta'minlash turli oqibatlarga va xususiyatlarga ega bo'ladi.

Oliy ta'lim sohasidagi turli tadqiqotchilar ta'lim sifatini ta'minlashning adekvat(mos) tizimini ishlab chiqishda har doim ilg'or tajribalarga tayanadilar. Ta'lim sifatini ta'minlash "jangovar harakat qoidalari" deb talqin qilinishi mumkin bo'lgan aniq oqibatlarga ega bo'ladi. Shu bilan birga tashqi intensiv nazorat zaruratini pasaytiradigan ta'lim xizmatlari sifatining shaffofligi borasidagi "yozilmagan qoidalar" ham mavjuddir.

Oliy ta'lim sifatini ta'minlash borasida shu paytgacha mavjud bo'lgan milliy va xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, hozirgi paytda

OTMLlarda alohida, tizimsiz tarzda o'tkaziladigan islohotlar va innovაციyalar samarasiz bo'lib, bu ko'pincha oliy ta'lim sohasidagi umumiy samaradorlikka putur yetkazadi. Shuning uchun oliy ta'lim sifatini oshirish bo'yicha shu paytgacha to'plangan xorijiy tajribalarni milliy ta'lim tizimi yutuqlari bilan o'zaro uyg'unlashtirgan holda ham faqat majmuaviy, tizimli va bir butun tarzda amalga oshirish mamlakatimizda oliy ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarishi shakshubhasizdir. Aqliy rivojlanishning barcha sohalarida shaxs ijtimoiy munosabatlar o'zgaradi. Bu jarayonda o'quv faoliyatining yetakchi roli kichik maktab yoshidagi o'quvchining boshqa tadbirlarga faol qo'shilishini istisno etmaydi, uning davomida bolaning yangi yutuqlari yaxshilanadi va mustahkamlanadi. L.S.Vigotskiyning ta'kidlashicha boshlang'ich maktab yoshining o'ziga xos xususiyati shundaki, faoliyatning maqsadlari asosan bolalar uchun kattalar tomonidan belgilab beriladi. O'qituvchilar va ota-onalar bolaga nima mumkinligini va nima qilib bo'lmasligini, qanday vazifalarni bajarish kerakligini, qaysi qoidalarga bo'ysinishni va hokazolarni aniqlaydilar.

Bolalarga topshiriq berishda muayyan qoidalarga rioya qilish orqali amalga oshirilsa, bu qiyinchiliklardan qochish mumkin. O'zaro hamdardlik va do'stlik paydo bo'lishi uchun mehribonlik, diqqatlilik, mustaqillik, o'ziga ishonch, halollik kabi fazilatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Asta sekin, bola maktab haqiqatni o'rganar ekan, u sinfda shaxsiy munosabatlar tizimini rivojlantiradi. U har kimdan ustun bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri hissiy munosabatlarga asoslanadi [4].

Polshalik mualliflar ishlarida didaktik muvaffaqiyatsizliklar ortishi jarayonini tahlil qilish tahsinga loyiq. V.Okon

o'zlashtirmovchilik vujudga kelishida uch asosiy bosqichni ajratib ko'rsatadi: didaktik muvaffaqiyatsizliklar, ikkinchi yilga qolish va chiqib ketish. Birinchi bosqichda bilimda orqada qolish unchalik sezilmaydi, o'qishni istamaslikning dastlabki belgilari namoyon bo'ladi. Ikkinchi bosqichda o'quvchi o'zlashtirsada, yaxshi deb hisoblanadi, lekin uning bilimida muhim kamchiliklar seziladi. Uchinchi bosqichda dastlabki qoniqarsiz baholar paydo bo'ladi, maktabga salbiy munosabat o'qituvchilarning tavsiyalarini bajarishni istamaslik holatlari vujudga keladi. To'rtinchi bosqichda - ikkinchi yilga o'qishga qoldiriladi. Ya. Konopniskiy didaktik muvaffaqiyatsizliklarni o'z vaqtida aniqlash uchun bilimdagi yetishmovchilikni belgilaydigan diagnostik testlar tizimini ishlab chiqdi. Chunki mualliflar faqat ikki omilning bilimdagi bo'shliq va o'qishga munosabatning o'zgarishini kuzatishadi, intellektual va irodaviy sohalardagi o'zgarish etiborga olinmaydi. Polshalik mualliflar tadqiqotlaridagi yana bir muhim xususiyat shundan iboratki, o'zlashtirmovchilik sabablarini aniqlash va didaktik muvaffaqiyatsizliklarni bartaraf etish vositalarini tanlash bo'yicha original eksperiment tashkil etish muhim hisoblanadi. Polshalik pedagoglarning eksperimentlariga bog'chalarda bolani maktabda o'qishga tayyorlash bo'yicha, o'qishda orqada qolayotgan bolalarga qo'shimcha mashg'ulotlar uyushtirish bo'yicha markazlar tashkil etish kabilar kiradi. Tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'lishicha, o'quvchilar ko'proq bolgar tili, arifmetika va tarix fanlaridan orqadalar. Anketa natijalaridan ma'lum bo'lishicha, o'quvchilar materialni tushunmasliklari, tez charchashlari, diqqatni bir joyga to'plashda

qiynalish, mavzuga qiziqish yo'qligi uchun qiynalishlarini ta'kidlagan. Muallifning ta'kidlashicha, otaonalar, sinf rahbari va o'qituvchilarning birgalikdagi harakati tufayli bunday sabablarni bartaraf etish mumkin. Shunday qilib, tajribalarning ko'rsatishicha, individning o'z harakatlarining natijasini bilishi, oldida turgan vazifani yechishga undaydi, uning harakatlari to'g'rilanadi. Natijalarini bilmaslik esa, yo'nalishning yo'qolishiga va buning asosida o'z harakatlarining to'g'riligiga ishonmaslikning vujudga kelishiga olib keladi.

### **Darsga bo'lgan talablar:**

Dars deb bevosita O'qituvchining rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim mashg'ulotiga aytiladi.

Dars – o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shaklidir.

Dars – o'quv ishlarining markaziy qismidir.

Ayni paytda, o'quv muassasalarida ta'limni tashkil qilish shakllari ikki turda olib borilmoqda.

1. Sinf – dars shaklida olib boriladigan mashg'ulotlar.

2. Amaliy va tajriba ishlari shaklida olib boriladigan mashg'ulotlar.

### **Sinf-dars shaklidagi dars turlari va ularning tuzilishi**

Sinf – dars shaklida olib boriladigan mashg'ulot o'qituvchining kundalik o'quv materialini tizimli bayon qilib berishni, xilma-xil usullardan foydalanishini, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini izchillik bilan hisobga olib borishni, o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Amaliy va tarjiba ishlari shaklida olib boriladigan mashg'ulotlar sinf sharoitidan tashqarida, o'quv ustaxonasi, tajriba yer uchastkalari va

dala tajribalarini olib borish, ekskursiyalar o'tkazish yo'li bilan olib boriladi. Bir o'qish xonasida 6 yoshdan 15 - 16 yoshgacha bo'lgan bolalar guruhi bilan bir vaqtda mashg'ulot olib borilardi. Shuningdek, bir o'qish xonasidagi (20 - 30) O'quvchining bilim darajasi ham turlicha bo'lar edi. Hozirgi zamon didaktikasi ko'p yillar davomida to'plangan o'qitish qoidalari, fan yutuqlari va ilg'or tajribalar asosida boyib bormoqda deyishga asos bor. Ammo o'quv jarayonining hamma qismlarini o'qitishni tashkil qilishning mazmuni, usullari, vositalari va shakllari bilan munosabatlari yaxshi ochib berilmagan. Bularning hammasi didaktik qoidalardan amalda foydalanishni qiyinlashtiradi. Maktab oldida turgan yangi vazifalar va ehtiyojlar O'quvchilarga beriladigan ta'lim va tarbiya sifatini oshirish, uni yanada rivojlantirish va yuqori bosqichga ko'tarishni talab qiladi.

O'qituvchi o'zining aniq sharoitlari va imkoniyatlariga eng ko'p mos keladigan o'quv jarayonini ongli ravishda tanlab olishi foydadan holi emas. Bu ish darsning muhim tomonlarini tanlashga tavakkalchilikka, bilim, ko'nikma va malakalarni uzlashtirish jarayonini boshqarishga qandaydir tasodifiy yondashishga yo'l qo'ymaydi.

Dars, yuqorida aytib o'tilganidek, o'qitishni tashkil etishning o'zgarmas shakli emas. O'quv amaliyoti va pedagogik tafakkur doimo uni takomillashtirish yo'llarini izlaydi. Bu sohada turli xil ko'rik-tanlovlar, respublika miqyosida o'tkazilayotgan pedagogik o'qishlarda o'rtaga qo'yilayotgan ilg'or o'qituvchilarning fikr va mulohazalari diqqatga sazovordir.

Turli - tuman fikr va mulohazalarni hisobga olgan holda dars quyidagi umumiy didaktik talablarga javob berishi lozim: har bir dars ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilgan bo'lmog'i lozim:

1. Har bir dars mustahkam g'oyaviy - siyosiy yunalishga ega bulmog'i lozim.

2. Har bir dars turmush bilan, amaliyot bilan bog'langan bulmog'i lozim.

3. Har bir dars xilma-xil usul, uslub va vositalardan unumli foydalangan xolda olib borilmog'i lozim.

4. Darsga ajratilgan har bir soat va daqiqalarni tejab, undan unumli foydalanmoq lozim.

5. Darsda o'quv materiallarining mazmuniga oid ko'rsatmali qurollar, texnika vositalari va kompyuterlardan foydalanish imkoniyatini yaratmoq lozim.

6. Dars mashg'ulotini butun sinf bilan yoppasiga olib borish bilan xar kaysi

7. O'quvchining individual xususiyatlari, ularning mustaqilligini oshirish hisobga olinadi.

Har bir darsda mavzuning harakteridan kelib chiqib, xalqimizning boy pedagogik merosiga murojaat qilish va undan foydalanmok imkoniyatini izlamoq lozim.

Bir soatlik darsga muljallangan dastur materiallarining mazmunini bayon qilish uchun didaktik maqsad va talablarga muvofiq ravishda tashkil qilingan mashg'ulot turi dars turlari deb yuritiladi.

Ta'lim tizimida eng ko'p qo'llaniladigan dars turlari quyidagilardir:

1. Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
2. O'tilgan materiallarni mustahkamlash darsi.
3. O'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini tekshirish va baholash darsi.
4. Takroriy – umumlashtiruvchi va kirish darslari.
5. Aralash dars (yuqoridagi dars turlarining bir nechtasini birga qo'llanish).

Har bir dars turining ma'lum tuzilishi va xususiyatlari bor, bu narsa o'qituvchining o'quv materialini to'g'ri va samarali tushuntirishiga, mustahkam esda qoldirishga, takrorlashga va uning o'zlashtirilishini nazorat qilib borishiga yordam beradi.

### **1.3-§. Juftlik yoki kichik guruhlariga bo'lib dars o'tish**

**Kichik guruhlariga bo'lib dars o'tish metodi.** Kasb ta'limi fanlarini o'qitishda muvaffaqiyatli ravishda qo'llanilayotgan metodlardan biri talabalar guruhlarini juftlik yoki kichik guruhlariga bo'lib dars o'tishdir. Bu uslubda asosiy mas'uliyat talabalar zimmasiga yuklanadi, ular faolligini oshirishga qaratiladi.

Ilg'or mamlakatlar, shuningdek mamlakatimiz pedogoglarining tajribasi kichik guruhlar tufayli ta'lim oluvchilar o'rtasida ancha mustahkam munosabat o'rnatilishini ko'rsatadi.

#### **Kichik guruhlariga bo'lib dars o'tish:**

-o'quvchi-talabalarni hamkorlikda ishlashga, bilish jarayonini faollashtirishga, ularda kommunikabellik, kirishimlilik, boshqalarni fikrini eshitishni o'rgatadi;



- berilgan topshiriqni birgalikda bajarish jarayonida o'rtoblari tomonidan bildirilgan fikrlarni muhokama qilishga moyillik paydo bo'ladi;

- savollarni aniq shakllantirishni, beradigan javoblarni asoslab berishni o'rganadilar;

- ta'lim oluvchining potensial imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Bilmaganlarini so'rab o'rganish imkoniyati yaratiladi. Ta'lim oluvchilar bilimini o'zaro hamkorlikda boyishini ta'minlaydi;

- tortinchoq talabalar o'z bilimlari, mahoratlarini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar;

- qobiliyatli, iqtidorli o'quvchi-talabalar o'z qobiliyatlarini namoyish qilish, boshqalarga yordam berish, ularga o'rgatishlari va ulardan ham nimanidir o'rganishlari mumkin;

- kichik guruhlarda ishlash har bir o'quvchi-talabaga o'zini guruhning bir bo'lagi sifatida his qilish, bir-birlarining muvaffaqiyatlarini ko'rsatishga o'rganadilar.

**Kichik guruhlariga bo'lib dars o'tish samarali bo'lishi uchun quyidagi qoidalarga amal qilish zarur:**

1. Dars materialani o'zlashtirish jarayonida talabalar jamoa bo'lib ishlashi kerak.

2. Har bir guruhda albatta a'lochilar bo'lishi, kichik guruh tarkibi aralash bo'lgani ( qizlar, yigitlar ) ma'qul.

3. Butun guruh va alohida talabani taqdirlash tizimi ko'zda tutilgan bo'lishi lozim.

Tadqiqotlar yana shuni ko'rsatadiki, o'quvchi, talabalarni kichik guruhlariga bo'lib dars o'tishni tashkil etishning o'zi yetarli emas ekan. Kutilgan natijaga erishish uchun yana ikki komponent: guruhni rag'batlantirish va shaxsan mas'uliyatni his qilish mexanizmi va uni rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish kerak ekan. Agarda guruh miqyosida rag'batlantirish yetarli bo'lmasa, guruh a'zolari o'z o'rtoqlari o'tilayotgan darsni o'zlashtirishiga uncha ahamiyat bermay qo'yadi.

Guruhlarni kichik guruhlariga bo'lishni qanday qoidalar yoki tamoyillar asosida amalga oshirish lozim, guruhlar qanday tuzilganda yuqori samara beradi degan savolga aniq javob, universal qoida yo'q.

Guruhlarni kichik guruhlariga bo'lishda:

a) qo'yilgan ta'lim maqsadlari, shakli, natijasi;  
b) beriladigan topshiriq, texnologik xarita bo'yicha qo'llashni mo'ljallagan ta'lim metodi va usullarini hisobga olishimiz kerak. O'quvchi-talabalarni kichik guruhlariga bo'lishda tasodifiy belgidan mumkin:

- auditoriyada joylashganliklariga qarab bo'lib chiqish mumkin.

-o'qishdagi natijalariga ko'ra.

- baravarlashtirish guruhi sifatida tashkil qilinganda, kichik guruhlariga turla darajada o'qiydigan talabalar birlashtiriladi.

- qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish guruhi tarzida tashkil qilinganda, iqtidorli talabalar, o'qish darajasi nisbatan pastroq guruhlariga ajratiladi.

Bajariladigan topshiriqqa ko‘ra juftlikni, 4-5 kishidan iborat yoki undan ko‘p o‘quvchi-talabalardan tashkil topgan guruhlariga bo‘lish mumkin.

Kichik guruhlarini faoliyat ko‘rsatishi vaqti, bir topshiriqni bajarguncha amal qiladigan guruhlar, bir necha mashg‘ulot mobaynida birgalikda ishlaydigan guruhlar, tarkibi o‘zgarib turuvchi guruhlar tarzida tashkil etish mumkin.

### **Kichik guruh a‘zolarining majburiyatlari:**

Kichik guruhning har bir a‘zosi:

- o‘rtoqlarining fikrini diqqat bilan eshitishi;
- guruh ishida faol qatnashishi va hamkorlikda ishlashdan bo‘yin tortmasligi kerak;
- zarurat bo‘lganda yordam so‘rashi;
- undan yordam so‘rashganda, boshqalarga o‘z yordamini berishi;
- guruh ishining natijalarini baholashda ishtirok etishi;
- o‘zining rolini yaxshi tushunishi va bajarishi;
- topshiriqni bajarishda, aniq vazifalarini bilishi kerak.

Ularni passiv, o‘z fikrini aytmaydigan yoki yaxshi o‘zlashtiradigan, faol talabalardan tanlash mumkin. Yetakchi turli funksiyarni bajarishi mumkin, kichik guruh a‘zolarining topshiriqni bajarishini nazorat qilishi lozim.

Yetakchilar guruhning har bir a‘zosini individual hissasini, rolini ko‘rsatib berishlari kerak. Iloji boricha barcha o‘quvchi – talabalarni yetakchi rolida sinab ko‘rgan ma’qul. Kichik guruhlariga bo‘linib dars o‘tish uslubining bir necha modellari – variantlari mavjud. Ular kichik guruhlarining o‘quv materialini o‘zlashtirish natijasini yaxshilashga

qaratiladi. Bunda o'qituvchi biron-bir material yoki o'tilgan darsni qisqacha tushuntirib, talabalarga topshiriq beradi. Topshiriq masala, mashq, savolga javob va boshqa shakllardagi nazorat ishi bo'lishi mumkin. Topshiriq kichik guruhlar ichida muhokama qilinadi. Keyin o'rganilgan mavzu bo'yicha har bir komanda a'zosi individual tarzda nazorat ishi yozadi. Har bir talabaning ballari jamlanib, umumiy kichik guruhlarning bali chiqariladi. U shaxsiy va kichik guruhdagi to'plagan ball bilan taqqoslanadi. Kichik guruhlarning olgan o'rinlari aniqlanib, to'plagan balga ko'ra rag'batlantiriladi.

Guruhdagi talabalar soni bo'yicha o'qituvchi har bir kichik guruhga 5 yoki 6 tadan talabani jalb qiladi. Har bir kichik guruh tarkibidagi talaba soniga qarab, 5-6 savol yoki qismdan iborat materialni o'rganish uchun topshiriq beriladi. Har bir komandadan bir kishi bitta qismni yoki savolni o'rganadi. Turli guruhchalardan shu qism yoki savolni olgan talabalar birga yig'ilib, o'quv topshirig'ini muhokama qiladilar. Bu guruhlarni ekspert guruhlari deb ataladi. Asosiy guruhlarni alfavitdagi harflar bilan talabalarni raqamlar bilan belgilaymiz.

Aytaylik, guruh 30 ta talabadan iborat. O'qituvchi ularni 6 tadan 5 ta guruhga ( A, B, V, G, D ) bo'ladi. Birinchi guruh A, undagi talabalar A1, A2, A3, A4, A5, A6, ikkinchi guruh B, undagi talabalar B1, B2, B3, B4, B5, B6 va hokazo tarzida bo'linadi. Har bir talaba o'zining raqami bo'yicha asosiy guruhchasidan, ya'ni harf bo'yicha o'quv materialining ma'lum qismini yoki savolni o'rganish bo'yicha topshiriq oladi. So'ngra mutaxassislar guruhida ( raqamlar bo'yicha ) barcha 1 yoki 2 va hokazo raqamlar asosida yangi guruh tashkil bo'ladi.

Guruhning har bir qatnashchisi ekspertlar guruhida o‘zi o‘rgangan masalani gapirib beradi. Guruhning har bir qatnashchisi diqqat bilan o‘rtoqlarining fikrini eshitishga harakat qiladi. Chunki berilgan topshiriqni bajarishning yagona yo‘li o‘rtoqlarining fikrini diqqat bilan tinglab, tahlil qilib, so‘ngra gapirib berishdir. Undan tashqari, har bir talabada o‘z topshirig‘ini mufassal bajarish uchun stimuly mavjud. Sababi, u berilgan savol, topshiriqni o‘rtoqlari qay darajada o‘zlashtirishlariga mas’ul.

Kichik guruhlariga bo‘lib dars o‘tishdagi to‘rtinchi model avvalgi modellardan birmuncha farqlanadi. Bu modelda kichik guruhdagi har bir talaba berilgan topshiriqni avval alohida o‘zi bajarib, fikrini seminar daftariga yozadi. So‘ngra guruh birgalikda hammaning fikrini o‘rganib chiqadi. Kichik guruh nomidan yagona javob tayyorlanadi, darsda barcha guruhlarining javoblari eshitiladi va guruhni erishgan natijasi baholanadi.

### **Kichik guruhlariga bo‘lib dars o‘tishni tashkil etish va uning asosiy fazalari**

Kichik guruhlarda talabalar o‘rtasida fikr almashuv, tahlil qilish imkoniyati keng. Har bir talabaning fikri o‘rtoqlari tomonidan tahlil qilinadi. Bunda har bir talaba, albatta o‘z fikrini asoslashga, hikoya qilishga harakat qiladi. Munozara jarayonida har bir talaba o‘z xatosini tushunadi yoki haqligini sinab ko‘radi, hamkorlikda muammoni yechishga o‘rganadi.

Guruhni juftlik yoki kichik guruhlariga bo‘lib ishlash maqsadga muvofiq, qachonki:

- axborot bilan almashuv;

- g'oya va fikrlarni yig'ish va o'rtoqlashish;
- qiyin yechiladigan muammo va variantlarni tahlil qilish;
- murakkab masalani yechish va xulosa chiqarish zarur bo'lganda.

Guruhda ishlash individual ishlashga qaraganda yaxshi natija beradi. Sababi:

- axborot diapazoni keng, chunki har bir talaba ma'lum axborotga ega;
- hamkorlik natijasida passiv talabalarning ham faolligi ortishi mumkin;
- ko'pgina taklif, fikrlar o'zaro tanqid natijasida saralanadi.

### **Guruh bilan ishlashning maqsadi talabalarning bilimni oshirishdir**

Uslubni qo'llash natijasida talabalar tomonidan:

- birgalikda ishlash shakllanadi;
- nutq so'zlash va o'z fikrini asoslab berishga, himoyalanişga o'rganadi;
- mustaqil fikrlash va muammolarni yechishga ishtiëq shakllanadi;
- o'rganishga, ishlashga ko'nikma hosil bo'ladi.

Kichik guruhlariga bo'lib o'tilgan darsda o'qituvchi yagona axborot beruvchi, taqriz qiluvchi, baholovchi shaxs sifatida markazda turmaydi.

U mavzuni o'rgatuvchidan darsni tayyorlovchi va tashkil etuvchiga aylanadi.

Kichik guruhlarda berilgan topshiriq bo'yicha mavzuni intensiv o'rganishga to'g'ri keladi. Qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash, ularni

chuqur o‘zlashtirishga harakat qilish natijasida olingan bilimni uzoq muddat yodda qolishiga erishiladi.

Juftlik yoki kichik guruhlariga bo‘lib dars o‘tishning muvaffaqiyatli bo‘lishi ko‘p jihatdan unga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishga bog‘liq. Kichik guruhlarda ishlash faqat qo‘yilgan topshiriqni emas, balki uning natijasini muhokama qilishni ham o‘z ichiga oladi. Bunda doskadan, texnik vositalardan foydalanish mumkin. Kichik guruhda ishlashning ahamiyatli jihati kichik guruh, oxir – oqibat umuman butun guruhning ishini unumli bo‘lishini ta’minlashdir. Buning uchun o‘qituvchi avvaldan hamma dars jarayonini rejalashtirishi kerak.

### **1. Tayyorgarlik ko‘rish :**

- maqsad qo‘yish ;
- material tanlash ;
- kichik guruhlariga topshiriqni tushuntirish ;
- zarur materiallar bilan ta’minlash ;
- qo‘yilgan topshiriqni, masalani o‘qituvchining o‘zi yechishi zarurligi.

### **2. Axborot bilan ta’minlash:**

- kichik guruhlar qanday topshiriq oladilar, uni bajarishga qancha vaqt ajratiladi ;
- qanday qoidalarga rioya qilish kerak kabilar e’lon qilinadi.

### **3. Topshiriq ustida ishlash:**

- kichik guruh topshiriqni olgach, vazifalarni bo‘lishib olishi mumkin;
- kichik guruhlar o‘zining topshiriq‘ini bajaradi ;

- kichik guruhdan bitta talaba (dokladchi) erishgan natijani qisqacha doklad qiladi;

**O‘qituvchining roli:**

- qaror qabul qiladi;
- darsni tashkil qiladi va boshlaydi;
- nazorat qiladi va zarur bo‘lganda aralashadi;
- tahlil qiladi va baholaydi.

Bu metodni qanday qo‘llanishini yuqorida kichik guruhlariga bo‘lib dars o‘tishning kooperativ metodi haqida to‘xtalganimizda, qo‘llashning asosiy qoidalarini ko‘rib o‘tdik. Kooperativ metodning darslik, maqola yoki boshqa matn bilan ishlashga qaratilgan bir usuli “Bumerang” deb nomlanadi. Bu metod o‘quvchi-talabalarning dars jarayonida, darsdan tashqari turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o‘rganilgan materialni yodda saqlab qolish, so‘zlab bera olish, o‘z fikrini erkin bayon qilishni o‘rganishga, dars davomida ularni bilimini baholashga qaratilgan. Metodni qo‘llashdan maqsad o‘quvchi-talabalarga tarqatilgan materialni yakka va guruh bo‘lib o‘zlashtirish, suhbat, munozara orqali uning mazmunini tushunishlariga erishishdan iborat. “Bumerang” metodi kooperativ o‘qitish metodi bo‘lib, kichik guruhlar bilan dars o‘tishga o‘xshash bo‘ladi. Bunda dars jarayonida talabalarga o‘rganishi lozim bo‘lgan matn bilan ishlash topshiriladi. Bunda dastlab umumiy mavzu matni kichik guruhlarining soniga ko‘ra bo‘linib, kichik guruhning barcha a‘zolariga bir xil matn tarqatiladi.

Agar guruhni 5ta kichik guruhga bo‘lgan bo‘lsak, u holda 5ta kichik guruh umumiy mavzu bo‘yicha 5 hil matnga, har bir o‘quvchi-talaba o‘z kichik guruhiga tushgan matnga ega bo‘ladi. Talabalar



faoliyati yuqorida kooperativ kichik guruhlarga bo‘linib ishlashni ko‘rib chiqqanimizdek, tashkil qilinadi.

Kichik guruh faoliyatining yana bir turi “Zig-zag” usuli deb ham yuritiladi. Bunda yuqoridagidek dastlab, kichik guruhning barcha a‘zolariga bir xil matn berib emas, balki guruhga ajratilgan matnni mavzuni o‘rganish uchun kichik guruxlar faoliyatini tashkil qilishning ikkinchi bosqichida, har bir guruh a‘zolari o‘rtasida ham taqsimlash orqali amalga oshiriladi. Masalan, bir talabaga matnning birinchi yoki va ikkinchi beti, ikkinchisiga 3-4-beti va hokazo tarqatiladi. Kichik guruh a‘zolari o‘zlariga tekkan matn bo‘yicha ekspert guruhi hisoblanadi.

## **II BOB. KASB TA'LIMIDA ZAMONAVIY TA'LIMNI TASHKILLASHTIRISH SHAKLLARI: MOHIYATI VA MAZMUNI**

**Ta'lim shakllari** (forma-lotincha-tashqi ko'rinish) - bu usul o'quv jarayonini mavjudligi, uning ichki mohiyati, mantiqi va mazmuni uchun qobiq. Ta'lim shakli o'quv jarayonining shunday tashqi tomonlarini namoyon qiladi, ya'ni:

### **1. Uning mavjud bo'lish yo'li: tartib tartibot:**

- *ta'lim oluvchilar soni*: ommaviy, kichik guruhlarda, yakka holda o'qitish;
- *o'qitish vaqti*: 45- sinf darsi, 90-birlashgan dars, «tanaffussiz dars»;
- *o'qitish joyi*: auditoriya, laboratoriya mashg'ulotlari, ustaxonalarda ishlash.

### **2. O'quv ishini tashkillashtirish shakli:**

- ma'ruza, seminar, mustaqil ish va boshqalar.

### **3. Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirish yo'llari:**

- umumiy (frontal), guruhli, yakka tartibli.

### **4. Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirish shakllari:**

*Ommaviy ish* (frontal) - barcha ta'lim oluvchilar oldiga bir xil topshiriq bajarish maqsadi qo'yiladi.

*Jamoaviy ish* (kollektiv) - ham umumiy va guruhliga taalluqli bo'lishi mumkin: 1) oldinda turgan ish rejasini hamkorlikda muhokama qilish; 2) majburiyatlarni bo'lish, hisobot shaklini tanlash; 3) xulosalarni muhokama qilish (tartib bilan alohida ta'lim oluvchilar

fikrlari tinglanadi va muhokama qilinadi); 4) Ma'qul xulosalarni shakllantirish (umumiy kelishuv bilan).

**Guruhli** - kichik guruhlarda hamkorlikda bir topshiriqni bajarish.

**Yakka tartibli (individual)** - o'quv topshirig'ini yakka o'zi bajarishi.

### **Pedagogik amaliyotda innovatsion texnologiyalarni qo'llash**

- pedagogik innovatsiya muhitining ayovsiz bemaorlik qonuni;
- nihoyat amalga oshish qonuni;
- pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonuni;
- qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuni;

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi-talaba asosiy figuraga aylanadi.

Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari-interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir.

Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi-talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi. Interfaol metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni u pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Mamlakatimizning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish va uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda ta'lim tizimining o'rni beqiyosdir. Dunyoda ta'lim tizimida ro'y berayotgan ta'limning internatsionallashuvi, talabalarning xalqaro mobilligi, ta'lim dasturining tez o'zgaruvchanligi kabi global tendensiyalar qatoriga ta'lim sifatini ta'minlash masalasi alohida ahamiyat kasb etib bormoqda. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar hamda bo'lajak mutaxassislarining ma'naviy-ahloqiy, intellektual va kasbiy salohiyatiga nisbatan qo'yilayotgan yuqori talablar ta'lim muassasalari oldiga xalqaro talablarga javob bera oladigan sifatli kadrlar tayyorlash vazifasini qo'ymoqda. Bu vazifalarni bajarish yo'lida esa ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish talab etiladi. Ammo ta'lim tizimida zamonaviy tendensiyalarni, ayniqsa, rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi ta'lim tizimida foydalanayotgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni isloh qilishning zamonaviy tajribalari nisbatan sekin o'zlashtirilmoqda.

**Pedagogik texnologiya** - bu o'quv jarayonini zamonaviy tashkil etish tizimi bo'lib, u ta'limning zaruriy sifatini ta'minlaydi va jadallashgan ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga javob beradigan, ta'lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiiq etishning izchil metodidir. Ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo'lib hisoblanadi. Pedagogik texnologiya-texnika resurslari, odamlar va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning xamma jarayonlarini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodi (YUNESKO). Ta'lim jarayonida yangi innovatsion texnika-texnologiyalardan foydalangan holda dars o'tish, so'nngi texnikalar bilan jihozlangan laboratoriya xonalaridan foydalangan holda mashg'ulotlar o'tkazish, mutaxassislik bo'yicha, masalan kimyo sohasidagi so'nngi innovatsiyalar haqida ma'lumotlar keltirib, jahon tajribasidan namunalar keltirib o'tish talabalarni yangilik yaratish ruhida tarbiyalashga turtki bo'ladi. Bizning fikrimizcha ta'lim jarayonida avval qiziqish uyg'otib, motivatsiya berib, so'ngra raqobat muhiti yaratilsa talabalarda innovatsiya yaratishdagi yashirin qobiliyatlari uyg'otiladi va albatta rag'batlantirish amalga oshirilsa ko'zlangan maqsadga erishiladi. Talabalarga ilm-fan va innovatsiya yaratishda yutuqlarga erishgan insonlardan misol keltirib, iloji bo'lsa ulardan birini o'rnak bo'luvchi inson sifatida darsga taklif qilib, yoki innovatsiyalar markaziga talabalarni ekskursiyalarga etishni yo'lga qo'yilsa maqsadga tezroq erishilgan bo'lardi. Innovatsiyalar

yarmarkasiga va hududdagi IT parklarga talabalarni ekskursiyaga etishni tashkil qilsak ta'limda berilgan nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lashda erishilgan yutuqlarni ko'paytirishiga ishonamiz. Mutaxassisligiga mos ravishda mamlakatimizdagi ishlab chiqarish korxonalariga va zavodlarga talabalarni amaliyotga yuborishni institutlarimizda allaqachon yo'lga qo'yganmiz. Lekin bizning taklifimiz shundan iboratki, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan bir vakilni faxriy mehmon sifatida institutga taklif qilib, seminarda shaxsan nutqlarini eshitish sharafi va bundan olingan taassurotlar ko'lami iqtidorli talabalarni ruhlantirgan bo'lardi [6].

1. Innovatsion ta'lim (ingl. "innovation"-yangilik kiritish,ixtiro) ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllanirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim.

2. Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb yuritiladi [4].

O'qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor,elektron doska va hokazo) foydalanishi, interfaol metodlar asosida dars o'tishi ham mumkin. O'qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko'p bo'lsa, mazmun shunchalik oshadi. Ta'limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar haqidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e'tirof etish lozim. Har bir

o'qituvchi ta'limda individual ravishda yangilik kiritishi mumkin. O'z fanining mazmun-mohiyati, mavzulari, shu sohadagi yaratilgan ilm-fan yutuqlari va innovatsiyalar haqida yangi ma'lumotlarni o'rgangan holda o'qitish jarayonida ularni qo'llab, misollar keltirib, ta'limda yangi metodni yaratishi, hamda shu asosida dars o'tishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar o'qituvchi o'z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi, uni yaxshilashga doir yangilik kiritishga harakat qiladi. "Faoliyatni yangilash 3 bosqichda, ya'ni tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish bosqichlarida amalga oshiriladi."-degan edi mashhur pedagog A.Nikolskaya [3]. Innovatsion texnologiyalardan asosiy maqsad o'qituvchi va o'quvchi mushtarakligiga erishish, o'quvchilarni fanga qiziqtirish, ta'limga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, o'rganilgan bilimlarni ijtimoiy sharoitlarda qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lish, axborot kommunikatsion texnologiyalar va didaktik materiallarni mavzu bilan uyg'unlashtirish kabilarni keltirish mumkin. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim

jarayonida o'quvchi talaba asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'рни va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog maxoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi-talabalarning bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar kelajakda ham mehnat bozorida talab mavjud bo'ladigan zamonaviy mutaxassis-kadrlarni tayyorlash uchun ta'lim jarayonida juda muhim ahamiyatga egadir. Zamonaviy kadrlar tayyorlash uchun pedagogning o'zi ham zamonaviy AKT vositalaridan foydalangan holda, eng so'nngi ilm-fan yutuqlaridan, o'zi bilim berayotgan soha yangiliklaridan xabardor bo'lishi va eng yangi pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tishi talab etiladi. Oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish bo'yicha konsepsiyada mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarini xalqaro 1000talik ta'lim muassasalari safiga kiritish maqsad qilingan. Ammo innovatsion pedagogik texnologiyalarning xalqaro tajribasini o'rganish va unlarni tadbiiq etish nisbatan sekin amalga oshirilmoqda. Fikrimizni aniqroq bayon etish uchun turli xildagi abituriient tayyorlash o'quv kurslarini misol qilib keltirsak, bir tayyorlov kursi pedagogining maqsadi eng avvalo nomi eng yaxshilar safiga kirishi emas, mehnati samarasi bo'lgan tahsil oluvchilarning ko'zlangan maqsadiga erishishi bo'lib hisoblanadi. Misol uchun, ingliz tilidan IELTS kurslarini tahsil oluvchilari ushbu sertifikatni yuqori ballarda egallashi, fanlar bo'yicha abituriientlarning o'zi tanlagan oliy ta'lim muassasasigaga yuqori



natijalar bilan o'qishga kirishi- o'sha pedagogning birinchi o'rindagi maqsadi bo'lib hisoblanadi va shu maqsadga erishishi o'z-o'zidan uni eng yaxshi kurslar qatoriga kiritib qo'yadi. Ushbu yutuqlarning barchasi o'sha pedagogning nafaqat kuchli bilimiga, balki shu bilimni yetkazib berishga doir pedagogik texnologiyasiga ham bog'liqdir. Oliy ta'lim muassasalarida ham maqsadni ushbu dargoh tayyorlagan mutaxassislar karyerasidagi yutuqlari va yuqori talabga ega yetuk kadr bo'lganini bilan bog'lash kerak deb hisoblaymiz. Chunki har qanday faoliyatning sifatli amalga oshirilganligi uning natijasida aks etadi. Ta'lim jarayonining sifatli amalga oshirilishida o'qitishni innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali amalga oshirishning o'rni beqiyosdir. OTMlardagi muayyan yo'nalishdagi mutaxassisni tayyorlashda shunday sifatli, amaliyot bilan bog'liq bo'lgan holdagi ta'lim berish kerakki bitiruvchilar ishga kirish jarayonida yana qo'shimcha kurslarga borishiga hojat qolmasin. Masalan buxgalteriya sohasida tahsil olayotgan talabalarga 1S va 1UZ kabi buxgalteriya dasturlarida ishlash talabalik davrida o'rgatilsin, ular diplom olgandan keyin yana pul to'lab kurslarga borib o'rganishga zarurat sezmasin. Yoki ingliz tili yo'nalishida tahsil oladigan, OTMda berilgan bilimlar asosida IELTS sertifikatini olishga qodir bo'lsin, yana kurslarga qatnamasdan.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida ishlashda o'qituvchida innovatsion faoliyat haqida tushuncha bo'lishi kerak. Mohiyatiga ko'ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratishdan iborat. Pedagogning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- yangilikni qo'llashga tayyorligi;
- pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
- novatorlik darajasi;
- kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;
- ijodkorligi.

Innovatsion faoliyat-yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmualar muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat. Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida bilim, ko'nikma, malakani egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi.

1-bosqichda tayyor metodik tavsifnoma (mavjud innovatsiya, masalan xorij tajribasida qo'llanilgan ammo biz uchun yangi)lardan foydalanish amalga oshiriladi.


2-bosqichda mavjud tizimga pedagog o'zining yangi g'oyalarni, metodini kiritadi.

3- bosqichida o'sha ikkinchi bosqichda yaratgan g'oya, innovatsion metodini o'zi faoliyat yuritayotgan muassasada amalga oshirish mazmuni, shakl va metodlarini tizimlashtiradi.

4-bosqichda esa pedagog o'qitish va tarbiyalashga oid o'z konsepsiyasi( g'oyalari yig'indisi) yoki metodikasini yaratadi.

Mana shu bosqichlarda pedagog innovatsion yondashuvlarini amalga oshirsa va pedagogik texnologiyalarda yangilik kiritib, ulardan

foydalanib dars o'tsa ta'lim sifati albatta oshadi. Umuman olganda mamlakatimizda ta'lim sohasiga, hamda innovatsiyalarga katta e'tibor berilmoqda. Pedagoglarda innovatsion yondashuvni qaror topishi ham murakkab jarayon bo'lib, u bir necha bosqichda kechadi. Ya'ni:



### **Pedagoglarda innovatsion yondashuvni qaror toptirish bosqichlari**

Mutaxassislarning fikricha, innovatsion elektron darslik inson aql-zakovatining katta hajmdagi axborotni eslab qolish va bu ma'lumotlar orqali muloqot va fikrlash jarayonlari assotsiatsiyasi orqali izlash qobiliyatiga taqlid qiladi. Boshqacha aytganda, innovatsion elektron darslik ko'plab statistik va dinamik ma'lumotlarni o'zida

mujassam etgan va umumlashgan tarmoq tuzilmasiga ega bo'lgan murakkab o'quv materiallari tizimidir: video, bajariladigan dastur va animatsiya. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PF-5264 son "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni hamda 2017-yil 30-noyabrdagi PQ-3416 sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq shu nomli vazirlik tashkil etilgan bo'lib, uning vazifalari qatoriga ijtimoiy rivojlanishga, shu jumladan ta'lim va sog'liqni saqlash tizimiga innovatsiyalarni joriy etish ham kiritilgan [2; 16].

### **2.1-§. Zamonaviy ta'lim shakllarida o'quvchilar o'zlashtirishdagi ko'rsatkichlar**

Ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash ham yangicha mazmun kasb etdi. Davlat ta'lim standartlarining ishlab chiqilganligi, yangi o'quv dasturining amaliyotga joriy etilganligi, erkin va mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashga nisbatan yuqori talabning qo'yilayotganligi, ta'lim amaliyotiga pedagogik texnologiyalar olib kirilayotganligi, o'quvchilarni kasbga muvaffaqiyatli yo'llash maqsadida psixologik va pedagogik diagnostika barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng ko'lamda amalga oshirilayotganligi kabi holatlar ko'zga tashlanayotgan bir vaqtda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini eng samarali shakl, metod va vositalar yordamida nazorat qilish hamda baholash muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish **metodlari** qo'yidagilar: **og'zaki tekshirish, yozma tekshirish, amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish, uy vazifalarini tekshirish.**

**Og'zaki tekshirish.** Bu metod bilimlarni nazorat qilish va baholashning ancha keng tarqalgan an'anaviy usullaridan biridir. Og'zaki tekshirishning mohiyati shunda ko'rinadiki, o'qituvchi o'quvchilarga o'rganilgan mavzuning mazmunidan kelib chiqib, savollar beradi va ularni javob berishga undaydi. Ana shu tarzda ularning o'zlashtirish darajasini aniqlaydi. Og'zaki tekshirish o'quvchilarning bilimlarini tekshirishni savol-javob usuli asosida amalga oshiriladi. Ushbu usul ayrim hollarda suhbat usuli deb ham ataladi. Og'zaki tekshirishda o'qituvchi o'rganilayotgan mavzuni alohida qismlarga ajratadi va ularni har biridan o'quvchilarga savollar beradi. Biroq o'quvchilarning nutqini o'stirish hamda ularning chuqur va mustahkam bilimga ega bo'lishlari uchun ulardan shu yoki oldingi mavzuni butunlay esga tushirishni talab qilish mumkin

**Yozma tekshirish** – o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning eng samarali usullaridan biri bo'lib, ularning ijodiy qobiliyatlarini baholash imkonini beradi. Mazkur usulning mohiyati shundaki, o'qituvchi alohida mavzu yoki o'quv dasturining ma'lum bo'limini o'tib bo'lganidan so'ng oz vaqtning chida barcha o'quvchilarni tekshirishi mumkin. Yozma tekshirish nazorat ishi, insho, bayon, diktant va boshqalar yordamida olib boriladi. Ammo o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida bevosita aloqaning yo'qligi sababli, uning fikrlashini kuzatish imkoni bo'lmaydi.

### ***Amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish.***

Bajarilayotgan amaliy harakatlar (sport, mehnat harakatlari)ning to'g'riligini kuzatish yoki olingan natijalarga tayanishdan iborat bo'lishi mumkin. Amaliy tekshirish tabiiy-matematik sikldagi fanlardan o'quvchilarning o'zlashtirishini xisobga olishda keng foydalaniladi. Bu usul yordamida o'quvchilarning olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish malakasi aniqlanadi.

***Uy vazifalarini tekshirish.*** O'quvchilarning o'zlashtirishini nazorat qilish uchun ularning uyga berilgan vazifalarni bajarishini tekshirish katta ahamiyatga ega. Uy vazifalarini tekshirish o'qituvchiga o'quvchilarning o'quv ishiga bo'lgan munosabatini, o'rganilgan materialni qanchalik egallaganligini, uy vazifalarini bajarishdagi mustaqillik darajasini aniqlashga imkon beradi. Ma'lumki, bugun ta'lim tizimida reyting nazoratidan keng foydalanilmoqda.

**Reyting deganda** baholash, tartibga keltirish, klassifikasiyalash, bironta hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash tushuniladi. Reyting nazorati o'quvchining ma'lum bir fandan reytingini aniqlaydi.

**Shkalalash** – aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish. Reyting nazoratida o'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilishning yuqorida keltirilgan metodlari bilan birga test usulidan ham samarali foydalanilmoqda. Test so'rovidan nafaqat o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, balki 1993 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasida abituriyentlarni oliy o'quv yurtlariga tanlov asosida qabul qilish jarayonida ham samarali foydalanib kelinmoqda.

**Test** – aniq maqsad asosida, muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko‘rsatkchlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi. Pedagogik amaliyotda testning bir qator afzalliklari ko‘zga tashlanadi. Ular quyidagilardir:

- 1) nazorat uchun vaqtning kam sarflanishi;
- 2) nazariy va amaliy bilim darajasini ob‘ektiv sharoitda aniqlash imkonining mavjudligi;
- 3) bir vaqtning o‘zida ko‘p sonli o‘quvchilar bilan nazoratni tashkil etish mumkinligi;
- 4) bilim natijalarining o‘qituvchi tomonidan qisqa muddatda tekshirilishi;
- 5) barcha o‘quvchilarga bir xil murakkablikdagi savollar berilib, ular uchun bir xil sharoitning yaratilishi. Ta’lim tizimi uzluksiz ravishda islohotlarni amalga oshirishni talab etadigan sohadir. Ta’lim tizimida islohotlarni amalga oshirish jarayonida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash ham yangi mazmun kasb etdi. Davlat ta’lim standartlarining ishlab chiqilganligi, yangi o‘quv dasturining amaliyotga joriy etilganligi, erkin va mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashga nisbatan yuqori talabning qo‘yilayotganligi, ta’lim amaliyotiga pedagogik texnologiyalar olib kirilayotganligi, o‘quvchilarni kasbga muvaffaqiyatli yo‘llash maqsadida psixologik va pedagogik diagnostika barcha turdagi ta’lim muassasalarida keng ko‘lamda amalga oshirilayotganligi kabi holatlar ko‘zga tashlanayotgan bir vaqtda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini eng samarali shakl, metod va vositalar yordamida nazorat qilish hamda baholash muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilar bilimini

baholashning besh balli tizimining eskirganligi va zamon talablariga javob bera olmagan uchun uni reyting tizimi asosida baholash uslubi bilan almashtirish davr taqozasiga aylandi. Shu o‘rinda «qanday sabablarga ko‘ra besh balli baholash mezoni o‘zini oqlamadi?» degan savolga javob berish o‘rinlidir:

***Birinchidan,*** Besh balli baholash tizimi qattiq qo‘llikni, o‘qituvchining mustabidligi hamda uning ta‘lim jarayonida yakka hukmronligini ta‘minlashga xizmat qilib kelgan. Demak, ushbu jarayonda talab va amaldagi holat bir-biriga muvofiq kelmaydi.

***Ikkinchidan,*** baholash mezoni o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida ixtiloflarni keltirib chiqarishga emas, aksincha, o‘zaro faol hamkorlik, bir-birini tushuna olishlari uchun xizmat qilishi lozim.

***Uchinchidan,*** baholash mezoni faqatgina o‘quvchilar tomonidan bilim, ko‘nikma va malakalarning o‘zlashtirilish darajasini nazorat qilish uchungina emas, balki ta‘limni tashxis etishning faol ko‘makchisiga aylanishi zarur. Baholashning besh balli tizimi birdan beshgacha farqlanuvchi dastlabki baholar qo‘yish tartibini bildirib, mohiyati esa baholarning o‘rtasidan kelib chiqqan holda choraklik (yillik) o‘zlashtirish natijalarini aniqlash tartibidan iborat. Masalan, o‘quvchi biror o‘quv fanidan uchta nazorat ishini 3, 4 va 5 ga bajargan, joriy nazorat bo‘ycha ham shunday natijalarni qayd etgan bo‘lsa, unga chorak uchun “4” baho qo‘yiladi. Bu esa joriy, oraliq va yakuniy nazorat paytida yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan o‘quvchining ijobiy baholanishi o‘rniga, chorak yoki yil oxirida muayyan mavzudan “5” bahoga berilgan javoblarining mutlaqo inobatga olmasligiga sabab bo‘ladi. Reyting tizimida o‘zlashtirish natijasi nazoratning ko‘rsatilgan



barcha shakllardan o'tish jarayonida to'plangan ballarni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi. Har bir nazorat turi uchun 10 balldan taqsimlanganda (o'quv fani uchun 100 ball hisobida) unga 7, 5, 8, 7 ball qo'yilsa, o'quvchining chorak yoki yarim yillik uchun to'plagan bali 27 ballni tashkil etadi, bu esa 55 foizdan kam, shuning uchun u etarlcha reyting balini to'plamaguncha va barcha nazorat shaklidan o'tmagancha attestasiya qilinmaydi. Demak, reyting tizimi olingan baho bilan egallangan bilim o'rtasida tafovut kelib chiqishining oldini oladi.

Reyting tizimi yana bir qator afzalliklarga ega, chunonchi:

- ta'lim jarayonida baholash tizimi imkoniyatlarini kengaytirish
- o'quvchi bilimni eng adolatli mezonlar yordamida aniqlash;
- ta'limni standartlashtirish jarayoni uchun zarur imkoniyatlarni ochib berish;
- ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan o'quv dasturiga kirgan majburiy ixtiyoriy mavzularning to'laligcha o'zlashtirilishi;
- o'quvchilarda o'z ustida mustaqil ishlash intilish, erkin fikr yuritish, bilimlarni egallashga nisbatan izchil yondashuv yuzaga keladi;
- o'quvchilarda yomon bahoolishga bo'lgan qo'rquv yo'qolib, uning o'rniga bilimlarni ixtiyoriy o'zlashtirish, mavjud kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish yo'lida mustaqil ishlash imkoniyati yaratiladi. Boshqacha aytganda, qo'rquv o'rniga intilish, rejalashtirish, harakat qilishga ehtiyoj tug'iladi, o'rganishga nisbatan qiziqish ortadi.

**O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari.** O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari hamma vaqt bahstalab mavzu bo'lib kelgan. Chunki u turli adabiyotlarda turlcha yoritilgan. Biroq mavjud qarashlarni

umumlashtirib aytish mumkinki, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash mezonlari har bir fanning maqsad va vazifalariga, shuningdek, sinf (guruh)dagi o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasiga tayangan holda belgilanadi. Shuningdek, baholash mezonlarini ishlab chiqishda o‘quvchilarning og‘zaki javob berishlari, ko‘nikma va malakalariga alohida-alohida yondashiladi. Masalan, ximiya darsidan baholash mezonlariga o‘quvchilarning og‘zaki javoblari, amaliy topshiriqlarni bajara olishlari va amalda mavjud bilimlarini namoyish eta olishlari inobatga olinadi. Buni “4” baho misolida aniqlashtiramiz.

*Og‘zaki javob berishda “4” baho qo‘yiladi, agar:*

- a) o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan to‘g‘ri javoblar bersa;
- b) material mantiqiy ketmaketlikda aniq bayon etilsa;
- v) o‘qituvchi talabi bilan tuzatilgan ikki-uchta unchalik ahamiyatga ega bo‘lmagan xatolarga yoki ba’zi to‘liq bo‘lmagan javoblarga yo‘l qo‘ysa.

*Yozma topshiriqni bajarishda “4” baho qo‘yiladi, agar:*

- a) masalani echishda va izohlashda muhim xato bo‘lmasa;
- b) b) topshiriqni bajarish va izohlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lmagan bir-ikki xatoga yo‘l qo‘yilsa yoki bitta izohning mohiyati ochib berilmagan bo‘lsa.

*Amaliy bilimlarni namoyish etishda “4” baho qo‘yiladi, agar:*

- a) ishni to‘liq, muhim xatolarsiz bajarsa, natija chiqara olsa;
- b) b) ishni bajarishda, tajribani tugallashda ikki-uch muhim bo‘lmagan xatolarga yo‘l qo‘ysa.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa chiqarish mumkin:  
**“5” baho qo‘yiladi, agar:** a) o‘quvchi dasturdagi materialni to‘liq o‘zlashtirib olgan bo‘lsa;

b) o‘rganilgan mavzu bo‘yicha asosiy fikrlarni ochib bera olsa; v) egallangan bilimlarni amalda erkin qo‘llay olsa;

g) o‘rganilgan mavzuni bayon qilishda, yozma ishlarda xatolarga yo‘l qo‘ymasdan, ma’lumotlarni tushuntirib bera olsa.

**“4” baho qo‘yiladi, agar:** a) o‘quvchi o‘rganilgan mavzuning mohiyatini bilsa;

b) o‘qituvchining savollariga qiynalmasdan javob bera olsa;

v) egallangan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olsa;

g) og‘zaki javob berishda jiddiy xatolarga yo‘l qo‘ymasdan, o‘qituvchining qo‘shimcha savollari bilan xatolarini to‘g‘rilay olsa hamda yozma ishda uncha jiddiy bo‘lmagan xatoga yo‘l qo‘ysa qo‘yiladi.

**“3” baho qo‘yiladi, agar:** a) o‘quvchi o‘rganilgan mavzuni o‘zlashtirgan, lekin mustaqil tushuntirib berishda o‘qituvchining aniqlashtiruvchi savollariga ehtiyoj sezsa;

b) savollarning mantiqiy tuzulishini o‘zgartirib berganda, javob berishga qiynalsa;

v) yozma ishdaxatolari bor bo‘lsa.

**«2» baho qo‘yiladi, agar:** a) o‘quvchi o‘rganilgan mavzu haqida tushunchaga ega, biroq mavzuni o‘zlashtirmagan,

b) yozma ishda qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘ysa qo‘yiladi.

Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi 997-son “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni

tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori bilan Xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o‘rnatish, o‘quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etildi.

- Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta‘minlash;

- O‘zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash;

- xalqaro baholash dasturlarini ta‘lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg‘or tajribani ommalashtirish va uning asosida ta‘lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo‘llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish;

- o‘qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlar bo‘yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash kabilar Milliy markazning asosiy vazifalari va faoliyatining yo‘nalishlaridan etib belgilandi. Quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish belgilandi:

- Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) — boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash;

- Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) — 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash;

- The Programme for International Student Assessment (PISA) — 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash;

- The Teaching and Learning International Survey (TALIS) — rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish.

Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha «Yo'l xaritasi» ishlab chiqildi, unga ko'ra, o'quvchilarning yozma va nutq savodxonliklarini oshirish bo'yicha ilg'or milliy va xalqaro tajribalarni joriy etish; o'quvchilar mustaqil ta'lim olishlari uchun elektron shakldagi ta'limni rivojlantirish, unda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan xalqaro tadqiqotlar bo'yicha savollar bazasini yaratish hamda boyitib borish; o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish uchun mustaqil ta'limni joriy etish; xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish yuzasidan malakali o'qituvchi-trenerlar bilan hamkorlikda hududlarda o'quvlar tashkil etish kabilar belgilangan.

TIMSS (Trends in Mathematics and Science Study) maktabda matematika va tabiiy fanlarni o‘qitish sifatining xalqaro monitoringi bo‘lib, Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan tashkil etiladi. Ushbu dastur asosidagi tadqiqot turli davlatlardagi 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan tayyorgarlik darajasini baholashga qaratilgan.

50 dan ortiq mamlakatlar o‘quvchilarining bilim, ko‘nikma, malakalari darajasini aniqlashning global resursi jahonning eng ilg‘or tajribasi asosida ishlab chiqilgan. TIMSS yordamida o‘quvchilarning ta’limiy yutuqlari: bilish, qo‘llash, mulohaza yuritish baholanadi.

“Bilish” bo‘limi o‘z ichiga matematikadan masalalar yechishni olgan bo‘lib, masalalar yechish o‘quvchilardan sonlarning xususiyatlari va oddiy geometrik jismlar haqidagi nazariy bilimlar, ta’riflarni takroran aytib berish, standart grafik va diagrammalardan ma’lumot olishni o‘z ichiga qamrab oladi. O‘quvchilar tabiiy fanlardan alohida organizmlar va ob’ektlarning xususiyatlari, hodisa va jarayonlar, tabiiy-ilmiy atamalar va o‘lchov birliklari haqidagi bilim darajasini namoyish etishlari kerak.

“Qo‘llash” ga oid test topshiriqlarini bajarishda o‘quvchilar hayotiy vaziyatlarni o‘zida aks ettiradigan matematik va tabiiy-ilmiy masalalarni yechish, jadval, sxema, diagramma, grafiklarni talqin qilish, tajribalarni o‘tkazish ko‘nikmalarini namoyish etishlari zarur.

“Mulohaza yuritish”ga oid topshiriqlar o‘quvchilarning mantiqiy va tizimli fikrlash malakalarini aniqlaydi. Mulohaza yuritishni talab etadigan masalalar taklif etilayotgan vaziyatning yangiligi, savolning murakkabligi, yechish bosqichlari sonining ko‘pligi, turli bo‘limlardan

bilimlarni integratsiyalashning zarurligi bilan bir-biridan farqlanishi mumkin. O'quv faoliyati turlari bo'yicha o'quvchilarning o'quv yutuqlarini baholashga qo'shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha berilayotgan ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni, o'quv muassasasi imkoniyati, o'qituvchilar salohiyati, o'quvchilarning oilalari bilan bog'liq omillar ham o'rganiladi. Ushbu ma'lumotlar belgilangan fanlarni o'zlashtirish holatini ko'rsatishda asos bo'ladi. Tadqiqot to'rt yilda bir marta dunyoning ko'plab ilmiy-tadqiqot markazlari va tashkilotlari, xususan, AQShning Ta'lim sohasidagi test xizmatlari (ETS-Educational Testing Services), Kanadaning statistik markazi (Statistic Canada), Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA)ning Sekretariati ishtirokida o'tkaziladi. Shuningdek, turli davlat mutaxassislaridan iborat maslahat qo'mitalari tashkil etiladi.

O'qituvchilar o'quvchilarning o'quv faoliyati turlari (bilish, qo'llash, mulohaza yuritish) bo'yicha o'quv yutuqlarini baholashda o'tgan yillar davomida tadqiqotda ishlatilgan, biroq konfidentsiallik rejimidan chiqqan topshiriqlarni didaktik material sifatida ta'lim jarayonida qo'llashlari mumkin. Bu esa TIMSS xalqaro tadqiqotining o'quvchilarning o'quv yutuqlarini baholashning o'ziga xos yondashuvlarini tushinishni ta'minlaydi. Muhimi, matematika va tabiiy fanlardan savodxonlikni baholash vositalari ta'lim texnologiyalari va o'qitish metodikasini takomillashtirishga imkon beradi.

Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha «Yo'l xaritasi»ning 13-bandida xalqaro tadqiqotlarda o'tgan

yillarda foydalanilgan savollar mazmunini o‘rganib chiqib, tahlil qilish belgilangan. Shuni inobatga olib, TIMSS savollaridan “Botanika”, “Zoologiya” darslarida foydalanish mumkin [11; 26;].

### **Bolajon otalar**

Kolyushka balig‘ining erkagi urushqoq jonivor. U boshqa erkak baliqlar bilan doim urishadi. Juftlashish vaqti kelganda uning har kungi och yashil tangasi ham xushrangroq bo‘lib qoladi: orqa tomoni va qornida tangalari ko‘k va qizg‘ish yashil tovlanadi. Urishish va mudom har tomonga qarab sandiraklashdan asar ham qolmaydi. Ishlash va g‘amxo‘rlik qilish damlari keldida. Erkak kolyushka ishga tushadi: suv o‘simliklarining ildizlari bilan poyalarini yig‘adi va suv turib qolmaydigan qumli yerdan joy hozirlab, bo‘lg‘usi nasl uchun uya quradi. Uya qurishda ingichka kumushsimon oq iplardan foydalanadi. Bu ipsimon moddalar erkak baliqning buyragidan chiqadi, juftlashish payti kelganda shu oqish yopishqoq shilimshiq baliqning qovug‘ida to‘planadi. Uyaga urg‘ochilari tuxum tashlab, chiqib ketadi. Erkak baliq urg‘ochi baliqni endi uyaga yaqin yo‘latmaydi: bu zarur ehtiyot chorasidir, chunki onalik instinktidan mahrum bo‘lgan urg‘ochi baliqlar o‘z tuxumini yeb qo‘yadi.

1-savol. Baliqlarda naslga g‘amxo‘rlik qilish qanday ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi?

2-savol. Jinsiy hujayralari yetilgan vaqtda baliqlarning qaysi vakilida o‘zgarish kuzatiladi. Bu o‘zgarishlarni qanday izohlaysiz?

3. Kolyushka balig‘ining erkagi uya qurishda ishlatiladigan suyuqlik qaysi a‘zoda to‘planadi. Sabablarini sanab bering.



---

---

---

---

---

4. Tabiatda bu kabi hodisalarga misollar keltiring.

---

---

---

---

---

### **PISA xalqaro tadqiqoti**

PISA (Programme for International Student Assessment) 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligi va kompetensiyasini baholovchi xalqaro dastur bo'lib, Xalqaro Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti tomonidan har uch yilda bir marta o'tkaziladi.

PISA tadqiqotlarida o'quvchilarning alohida fanlardan bilimi tekshirilmaydi, balki hayotda zarur bo'ladigan bilim va malakalarining holati o'rganiladi, shuningdek, o'quvchilarning fanlararo kompetentligi baholanadi. PISA tadqiqotlari uchta yo'nalishda olib boriladi: o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik, tabiiy fanlardan savodxonlik, 1000 ballik tizimda baholanadi. Tadqiqotlar uch yillik siklda o'tkaziladi. Har qaysi siklda yuqorida qayd etilgan uchta yo'nalishdan bittasiga asosiy e'tibor qaratiladi. Mamlakatlar ta'lim tizimida muayyan yo'nalishdagi o'zgarishlar atroflicha tahlil qilinadi.

O‘qish savodxonligi	Matematik savodxonlik	Tabiiy fanlardan savodxonlik
2000	2003	2006
2009	2012	2015
2018	2021	2024 va h.k.

Ushbu xalqaro dastur 1997 yili ishlab chiqilib, 2000 yilda ilk marotaba amaliyotda qo‘llangan. Dastur ko‘magida turli davlatlar ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar aniqlanadi, solishtiriladi, baholab boriladi. Bu tadqiqotlarning natijasi dunyo bo‘yicha katta qiziqish bilan kuzatib kelinadi. Shu bois yildan-yilga uning ahamiyati va qamrovi oshib boryapti. Misol uchun, 2000 yilda dastur testlarida 32 davlatdan 265000 nafar o‘quvchi ishtirok etgan bo‘lsa, 2018 yilda bu ko‘rsatkich 2 barobarga oshishi, ya’ni 78 davlatdan 540000 nafardan ziyod o‘quvchi qatnashishi kutilgan edi.

PISA topshiriqlari komyuterda bajariladi. Test topshiriqlari tayyor javobli bo‘lib, ulardan to‘g‘risi tanlanadi. Shuningdek, javobsiz testlar ham bo‘ladi. Bularga o‘quvchi to‘liq yoki qisqa javob berishi so‘raladi. Ayrim test topshiriqlari bitta hayotiy vaziyatga oid, biroq turli qiyinlik darajasidagi test savollaridan iborat bo‘ladi. Testlar bir necha variantda tuziladi. Ba’zi testlar ayrim variantlarda takrorlanishi mumkin.

Shuningdek, tadqiqotda o‘quvchilar o‘zi va maktab direktorlari o‘z maktablari haqidagi ma’lumotlarni so‘rovnomaga yozishadi. To‘plangan ma’lumotlar ta’lim natijasiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashga yordam beradi.

PISA tadqiqotlari natijalari quyidagilarni aniqlashga imkon beradi:

- 15 yoshli o'quvchilarning asosiy bilim va ko'nikmalarini ifodalovchi miqdor ko'rsatkichlar;

- o'quvchilarning ta'lim natijalari va maktabda ishning yo'lga qo'yilishiga ta'sir etuvchi omillarning holatini ifodalaydigan miqdoriy ko'rsatkichlar;

- vaqt o'tishi bilan erishilgan natijalarning o'zgarishi yo'nalishini ifodalovchi miqdoriy ko'rsatkichlar.

Tadqiqot natijalari hamda turli mamlakatlarning ta'lim tizimini tavsiflovchi ko'rsatkichlar har uch yilda chop etib boriladi. Bu ma'lumotlardan mamlakatlarning ta'lim tizimidagi yutuqlarni o'zaro taqqoslash va maktab ta'limi sohasidagi siyosatni aniqlashda foydalaniladi.

Dastur yetakchi xalqaro tadqiqotchilik tashkilotlari va milliy markazlar, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotini o'z ichiga olgan Konsorsium tomonidan amalga oshiriladi. Konsorsium ishini Pedagogik tadqiqotlar bo'yicha Avstraliya kengashi (The Australian Council for Educational Research - ACER) boshqaradi.

“O'qish savodxonligi” atamasi o'qish tezligini tekshirishni emas, balki “savodli o'qish”ni anglatadi. Unga ko'ra, o'quvchi mantlarni tushunishi, ularning mazmunini mushohada qilishi va baholay olishi, o'z fikrini bildira olishi zarur. O'quvchilarga turli matnlar taqdim etiladi: badiiy asarlardan parchalar, biografiyalar, shaxsiy xatlar, hujjatlar, gazeta va jurnallardagi maqolalar, yo'riqnomalar, reklama

e'lonlari, geografik kartalar va b. Ularda axborot turli ko'rinishlarda aks etadi: diagramma, rasm, xarita, jadval, chizma va h.k.


“Matematik savodxonlik” yo‘nalishidagi topshiriqlar yordamida o‘quvchilarning maktab matematika kursida egallagan bilimlari tekshirilmaydi, balki ularning turli vaziyatlarda matematik bilim, ko‘nikmalarni qo‘llay olishlariga asosiy e‘tibor qaratiladi. O‘quvchilarga, asosan, o‘quv emas, balki kundalik hayotga xos bo‘lgan amaliy vaziyatlar taklif etiladi (tibbiyot, uy-joy, sport va h.k.). Bunda o‘quvchilar ko‘p hollarda nafaqat matematikaning turli mavzulari va bo‘limlaridan, balki boshqa fanlar, masalan, fizika va biologiyadan olgan bilim va ko‘nikmalaridan foydalanishlari talab etiladi. Tadqiqotning “Tabiiy fanlardan savodxonlik” yo‘nalishi o‘quvchilarning fizika, biologiya, kimyo, geografiya fanlaridan egallagan bilim va ko‘nikmalarini kompleks holda tekshiradi. O‘quvchilarga taklif etiladigan hayotiy vaziyatlar har bir insonning shaxsiy hayotida uchraydigan dolzarb muammolar bilan bog‘liq (masalan, parhez davomida iste‘mol qilinadigan mahsulotlar), jamoa yoki jamiyatning a‘zosi sifatida (masalan, shaharga nisbatan elektrostansiyaning joylashgan o‘rnini aniqlash) yoki dunyo fuqarosi sifatida (masalan, “issiqxona samarasi”ning oqibatlarini anglash).

Aytish joizki, shu vaqtga qadar mamlakatimiz ta‘limi PISA baholash tizimi doirasiga tushmagan. Ammo bu borada harakatlar boshlangan. Yurtimiz ta‘limi PISAning 2021 yilgi xalqaro baholash dasturida ishtirok etishi va “Xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi” ochilishi haqidagi murojaati ma‘qullangani buning bir tasdig‘idir. Bu markazning zimmasiga mamlakatimiz ta‘lim tizimini

xalqaro standartlarga moslashtirish, 2019-2021 yillar oralig‘ida amaliy ko‘nikmalar shakllantirilishini baholashga qaratilgan sinovlarni tizimli ravishda o‘tkazib borish, o‘quv adabiyotlarini modernizatsiya qilish, xalqaro ta‘lim standartlariga asoslangan holda o‘qish, matematika, tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan davlat ta‘lim standartlari, o‘quv dasturlari hamda o‘quv adabiyotlari mazmuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish kabi bir qator vazifalar yuklatiladi.

Xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishga tayyorgarlik ko‘rish uchun o‘tgan yillarda foydalanilgan savollar mazmunini o‘rganib chiqib, tahlil qilish va ulardan ta‘lim jarayonida foydalanish kerak [11; 12;].

Botanikani o‘qitishda “To‘pgullar” mavzusida quyidagi topshiriqdan foydalanish tavsiya etiladi:



To'pgullarga mos raqamlarni jadvalga yozing.

To'pgul nomi	Raqamlar	To'pgul nomi	Raqamlar
Boshoq		Kuchala	
Shingil		Murakkab boshoq	
Soyabon		Murakkab soyabon	
Qalqoncha		Gajak	
Savatcha		Murakkab shingil	
Sohta		Kallakcha	

## **2.2-§. O'quvchi yoshlarni kasbga yo'naltirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar**

Jamiyatda ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik yo'nalishi – bu insonning turli sohalarida maqsadli mustaqil faoliyati asosida uning intellekt va ahloqiy rivojlanishidir. Jahonning rivojlangan davlatlari qatori mamlakatimizda ham ta'limdagi islohotlar jarayonida mustaqil ta'limni rag'batlantirish muhim yo'nalish sifatida kelmoqda. Pedagogning kasbiy layoqatligini tarbiyalash fenomenini tadqiq qilishga bir qator olimlarning ishlarida o'z ifodasini topgan. Bu mualliflar kasbiy layoqatlilik – ishonchlilik sifatlari bilan birgalikda o'qituvchining kasbiy – individual hodisa sifatida pedagogik madaniyatini tavsiflaydi degan fikrni olg'a surganlar. O'z navbatida, kasbiy layoqatlilik tushunchasi, V.A.Slastenin ta'kidlaganidek, pedagogning pedagogik faoliyatini amalga oshirishga nazariy hamda amaliy tayyorligining birligini ifodalaydi va uning kasbiy

shakllanganligini tavsiflaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida insonlarning yaxshi yashashida, faoliyatida to'g'ri kasb tanlashning ahamiyatini turli xil kasblarning insonga qo'yadigan talablarini; kasblar olami, kasblar shajarasi, O'zbekiston xalq xo'jaligidagi muhim kasblar, kasblar tasniflagichi; kichik mutaxassislar tayyorlash tizimi; kasblar, mehnat shartsharoitlari, vositalari, fani, maqsadi bo'yicha shajaralanishi, o'quvchilarni o'z qiziqish va moyilliklari, o'z xarakterining o'ziga xos xususiyatlarini, o'z nerv tuzilishi, psixikasi, o'z qobiliyati va ehtiyojlarini kasblar to'g'risida ma'lumot olish maktablarini ayrim kasb mehnat bozori talablari asosida ehtiyojning o'zgarib borishini, salomatligining tanlagan kasbiga mos kelishi, hududda joylashgan o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarida ta'lim yo'nalishini ixtiyoriy tanlashi; o'qishni davom ettirish imkoniyatlari. Kelgusi mavqeini bilishi zarur. Kasbni to'g'ri tanlash – inson turmushida muhim qadamdir, yosh avlodning butun hayotidagi muvaffaqiyat ko'p jihatdan kasbning qanchalik to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Kasbni to'g'ri tanlash har bir maktab o'quvchisining qiziqishiga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo'lishi uchun uning sog'lig'ini, o'zlashtirishini va hissiyotlarini hisobga olish lozim, bular ijtimoiy foydali va unumli mehnatda hammadan ko'ra ko'proq qaror topadi va namoyon bo'ladi. Odam bajarayotgan ishlariga ijodiy munosabatda bo'lib, mehnat unumdorligini doimo oshirib borsa, tanlagan kasbiga zo'r qiziqish bilan qarasa, o'z ishining ijtimoiy ahamiyatini tushunsa, uning qobiliyatlari mehnatda takomillashib borsa, o'shandagina u mehnatdan qoniqish hosil qiladi va xursand bo'ladi, bunday hoolda har bir shaxs jamiyatga eng ko'p naf keltiradi. Mana shu aytgan gaplardan kasb tanlashning

g'oyat muhim ijtimoiy ahamiyati kelib chiqadi. Kasb-korni erkin tanlash juda katta ahamiyatga ega. Odam shug'ullanayotgan ishini yaxshi ko'rsa, bundan u xursand bo'ladi, qoniqish hosil qiladi, zo'r tashabbus ko'rsatadi, toliqmay mehnat unumini oshiradi. Maktab o'quvchilarining kasb tanlashi ongli zaruriyat bo'lishi va ayni vaqtda jamiyat manfaatlariga mos bo'lib tushishi, yigit va qizlarning kamolot yo'lida shaxsiy mudaolarini qondirishi lozim. Buning uchun yuksak darajada ma'lumotli bo'lish zarur, hozirgi asrimizda bunday ma'lumotsiz fan-texnika ildam taraqqiy etishi mumkin emas. Umummehnat va maxsus malakalarni, kasbga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishning bunday imkoniyatlari ob'ektiv zaminga ega bo'lib, voqelikda har kuni amalda oshirilmoqda Kasbga yo'naltirish – bu har bir individumning o'ziga xos individual xususiyatlari va mehnat bozorining ehtiyojlarini hisobga olgan holda, o'z kasbiy o'rnini topishi uchun shaxsga ta'sir etishning ilmiy asoslangan shakl, usul va vositalar tizimidir. U insonning kasbiy qiziqishi va imkoniyatlari hamda jamiyatning aniq bir kasbiy faoliyat turiga ehtiyojlarining mutanosibligiga erishishga yo'naltirilgandir. Kasbga yo'naltirish – mohiyat va samaradorlikni baholash ko'rsatkichlariga ko'ra ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Kasbga yo'naltirishni hal etish vazifalari bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy-fiziologik va psixologik-pedagogik mohiyatga ega muammodir. Kasbga yo'naltirish insonning qobiliyati va iqtidorini maqsadli rivojlantirishda, uning kasb mahorati, ish qobiliyati va salomatligini asrashga imkon yaratadi hamda aholini ijtimoiy himoyalash va uning bandligi sohasidagi davlat siyosatining muhim elementlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. kasbga



yoʻnaltirish shaxsning mehnat salohiyatidan samarali foydalanish, uning ijtimoiy va kasbiy faolligini oshirish hamda majburiy ishsizlikning oldini olishda muhim rol oʻynaydi. Kasbga yoʻnaltirish tadbirlari inson tomonidan oʻz kasbiy malakasini oshirishning qulay shakllarini izlash, ijtimoiy-iqtisodiy tashabbuskorlik, intellektual va mehnat mustaqilligini rivojlantiradi. Yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashga, uni har tomonlama va barkamol rivojlantirishning shart-sharoiti sifatida qaraladi. Bu shaxsning maʼnaviy, aqliy, mehnat, estetik va jismoniy tarbiyasi, yaʼni barcha oʻquv-tarbiya jarayoni bilan uzviy birlikda amalga oshiriladi. Kasbga yoʻnaltirish quyidagi qismlarni oʻz ichiga oladi: Kasbiy axborot, kasbiy maslahat, kasbiy tanlov va saralash, kasbiy moslashish. Kasbiy axborot – maʼlum bir kasbni egallash hohishi boʻlgan shaxsga, turli mutaxassisliklarni egallashning shakl va sharoitlariga, kasbiy malakalarning oʻsish imkoniyatlariga mehnat bozorining holati va ehtiyojiga, kasbiy qiziqishlarning shakllanishiga, shaxsning istak va koʻnikmalariga qoʻyilgan talablar hamda zamonaviy kasblarning istiqboli va mazmuni toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni toʻplash, targʻibot qilish chora-tadbirlaridir. Kasbiy maslahat – kasb tanlash yoki faoliyat turini oʻzgartirishda yordamga muhtoj boʻlgan shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, shaxsiy fazilatlari, kasbiy qiziqishlari, moyilligi, sogʻligi va mehnat bozori ehtiyojlarini oʻrganish asosida psixologik-maslahatchi bilan ilmiy tashkil etilgan oʻzaro muloqot tizimidan iborat. Kasbiy tanlov va saralash – kasbiy faoliyatning alohida turlariga yaroqlilik darajasini aniqlashga yoʻnaltirilgan shaxsning psixofiziologik xususiyatlari (tanlash) yoki aniq bir kasbga

bo'lgan psixofiziologik me'yoriy talablar (saralash) asosida shaxsni har tomonlama o'rganish tizimidir. Kasbiy moslashish – ishlab chiqarishda kasbiy faoliyatning ijtimoiy-psixologik va tashkiliy-texnik sharoitlariga shaxsni moslashtirishga, uni muvofaqqiyatli ravishda kasbni egallashi uchun shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan choralarning majmuaviy tizimidir. Professiografiya (axborot, tashxis, korreksiyalovchi, shakllantiruvchi) va kasbiy tashxis (shaxsni o'rganishning psixologik, psixofiziologik, tibbiy va boshqa usullarining majmui) kasbga yo'naltirishning axborot uslubiy ketma-ketligining asosi hisoblanadi. O'quvchilar kasblarni tahlil qila olishi; o'zlarining shaxsiy sifatlarini, qiziqishini va salomatlik darajalarini to'g'ri baholay olishlari, kasblarning insonga qo'yadigan talablari bilan o'zlarining individual xususiyatlarini taqqoslay olishlari, shaxsiy kasbiy rejalarini tuza olishlari zarur. O'quvchilar Xalq xo'jaligi asoslari bo'limi bo'yicha xalq xo'jaligi sohalarini, xalq xo'jaligida ro'y berayotgan islohotlarni, bozor iqtisodiyoti talablarini, davlat xususiy korxonalarini, kooperasiya, firma, shirkat, konsernlar, ularda ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari, texnologik jarayonlar, mahsulotlarni tayyorlash bosqichlari, tabiatni ishlab chiqarishning zararli ta'siridan muhofaza qilish, mahsulot qiymatini arzonlashtirish yo'llari, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning davriyligini, maromli, oqimligi; ishlab chiqarishni rejalashtirish, irrigasiya va meliorasiya ishlarini; mehnat qonunchiligini. Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini rivojlantirishning asosiy bosqichlari. Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini rivojlantirishning asosiy bosqichlari quyidagicha:

- **Birinchi bosqich** (maktabgacha ta'lim yoshi) – maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda (katta guruh) mehnat bilan band bo'ladigan insonlarga, ularning mashg'ulotlariga, shuningdek, qo'llaridan keladigan faoliyat turlari bo'yicha dastlabki mehant ko'nikmalarini ijobiy, hissiy-ta'sirchan shakllantirish;

- **Ikkinchi bosqich** (1-4 sinflar) – kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bilishga oid va o'yin ko'rinishidagi ijtimoiy-foydali mehnat faoliyatini amalga tatbiq qilish orqali, mehnatga hurmat, uning inson hayotida va jamiyatda tutgan o'rnini anglashini, ota-onalarining kasblariga hamda ommaviy kasblarga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish;

-**Uchinchi bosqich** (5-7 sinflar) – o'smirlar kasbiy yo'naltirilganlik bo'yicha kasb tanlash va jamiyatdagi o'z o'rnini topish bilan bog'liq bo'lgan qiziqishi, qobiliyati, ijtimoiy qadriyatlarining izlanuvchan – sinchkov ko'rinishlarini shakllantirish;

- **To'rtinchi bosqich** (8-9 sinflar) – o'quvchilarda kasbiy o'zlikni anglashni shakllanish davri, ya'ni o'quvchilarni aniq bir kasbni tanlashning shaxsiy ma'noga egaligini tushunib yetishi, qadriyatlar to'g'risidagi o'z tasavvurlarini, faoliyat sohasini tanlashning jamiyat maqsadlari bilan qiyoslay olshini shakllantirish davri;

- **Beshinchi bosqich** (akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning birinchi kurs o'quvchilari) – ijtimoiy-kasbiy maqomni aniqlash, ya'ni aniq bir mehnat faoliyati sohasidagi bilim va ko'nikmalar haqida har taraflama tasavvurlarni shakllantirish, ularni o'zlashtirishga kirishish, ishlab chiqarish mehnat jamoasining tartib-qoida va qadriyatlariga qo'shilishni shakllantirish davri;

- **Oltinchi bosqich** (kasb-hunar kollejlarining oxirgi kurs o‘quvchilari, oliy o‘quv yurtlari talabalari) – kasbiy faoliyatga kirishish. Bu kasbiy faoliyatga jiddiy tayyorgarlik hamda mehnat jamoasidagi ish va tajribaning shakllanish davri;

- **Yettinchi bosqich** (katta yoshdagi mehnat bilan band bo‘lgan odamlar, ishsizlar) – shaxsiy imkoniyatlar va oldingi kasbiy – ijtimoiy tajribalarni hisobga olgan holda, zarurat bo‘lganda boshqa kasbiy faoliyatga qayta yo‘naltirish. Davlat kasb-hunarga yo‘naltirish tizimi bilan bir qatorda fuqarolar va korxonalariga kasb-hunarga yo‘naltirish masalalari bo‘yicha pullik xizmat ko‘rsata oladigan, jumladan, tijorat yo‘nalishidagi byuro, agentliklar tuzilishi mumkin. Cheklangan mehnat qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxslarni kasb-hunarga yo‘naltirish mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, sog‘liqni saqlash vazirliklari zimmasiga yuklatiladi. Tizimning barcha boshqaruv bosqichlarida mazkur vazirliklar shu ish uchun mas’ul xodimlar ajratadi.

Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida turli patologiyalarga mansub nogironlarni kasbiy tayyorgarlik olishlari uchun maxsuslashtirilgan bo‘linmalar tarmog‘i yaratilishi lozim. Kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini umumiy ilmiy-metodik ta’minoti, tegishli toifali xodimlarni qayta tayyorlash, malakasini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik-pedagogik va tibbiy-fiziologik muammolari bo‘yicha ilmiy tekshirishlarni muvofiqlashtirish ishlarini O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining O‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika Tashxis markazi amalga oshiradi. Agar bolalar erkin fikrlashni o‘rganmasa, berilgan ta’lim samarasi past bo‘lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo

bilim o‘z yo‘liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir. Umumta’lim maktablarining oqsoq tomonlari haqida gapirar ekanmiz, bir muhim muammoni ta’kidlamasdan o‘tolmaymiz. Bu muammo – bugun 9-sinfni bitirayotgan bolalarimiz taqdiri. Respublikamizda taxminan 5 million 200 ming maktab o‘quvchisidan 9-sinfni bitirayotganlar 450 ming nafar bolani tashkil qiladi. Xo‘sh, o‘zimizcha bir tasavvur qilib ko‘raylik 9-sinfni tugatayotganlarning keyingi yo‘li – taqdiri qanday bo‘lib qolmoqda? Ma’lumotlarga qaraganda, ularning 250 ming nafarga yaqini, ya’ni 55 foizi 10- sinfda o‘qishni davom ettirar ekan, taxminan 100 ming nafari hunari – texnika yoki maxsus o‘quv yurtlariga kirishi mumkin. Qolganlari esa – gap 100 ming nafar bolalarimiz haqida ketayapti – hisob-kitob bo‘yicha, umuman ko‘chada qolmoqda. Bu ma’lumot ham to‘liq emas. 11-sinfni bitirayotganlardan 20-25 ming nafari, ya’ni hammasi bo‘lib, 10 foizi oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga kirishi mumkin. Qolgan 90 foizi esa na bir aniq ixtisos, na bir ertangi hayotga kerak bo‘ladigan malaka va na bir kasb-hunarni egallay olmayapti. Va shuning oqibatida 16-18 yashar yigit-qizlarimiz o‘z qobiliyati, havasi, intilishiga mos, hayotda o‘ziga munosib o‘rin topolmayapti. Kimki bu raqamlarni, bu achinarli holatni chuqur tahlil qilsa, yuragidan o‘tkazib, o‘zining shaxsiy dardiday anglasa, albatta, bunday vaziyatga beparvo bo‘lib qolishiga ishonmayman. Spuning uchun ham bugungi zamon talabi, ertangi kelajagimizning tashvishlari bizdan xalq ta’limi tizimini isloh qilish zarurligini taqozo etmoqda.

### **III BOB. MAKTABLARDA O‘QUV ADABIYOTLARINING (DARSLIKLARINING) BUGUNGI HOLATI**

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi Respublika ta’lim markazi darsliklar, o‘quv-metodik adabiyotlar hamda ularning mazmun-mohiyati, sifati va nashri bilan shug‘ullanadigan mas’ul tashkilotdir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 29 dekabrda Uzluksiz ta’lim tizimi uchun o‘quv dasturlari, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarni qayta ko‘rib chiqish hamda yangilarini yaratish bo‘yicha hukumat komissiyasi majlisi bayonida ko‘rsatilgan ustuvor vazifalarga muvofiq, mazkur markaz darsliklar va o‘quv-metodik adabiyotlarni ishlab chiqish hamda ulardagi sifat samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratmoqda.

Aytish joizki, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 5 sentyabrda “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bu boradagi ishlarni zamon talabi darajasida takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni kunda mazkur qarorning 3-ilovasi bilan “2018-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar” dasturi ishlab chiqilgan. Unga muvofiq, darslik va ilmiy-metodik adabiyotlar yaratish, nashrga tayyorlash va tajriba sinovdan o‘tkazish tartibi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilmoqda. Kelgusida maktab darsliklarini ushbu tartib asosida yaratish ko‘zda tutilgan.

## **Surxondaryo viloyatidagi umumiy o‘rta ta’lim maktablari kutubxonalari to‘g‘risida ma’lumot**

Bugungi kunda Surxondaryo viloyatidagi umumiy o‘rta ta’lim maktablari kutubxonalari soni 948 tani tashkil qiladi. Viloyatdagi umumta’lim maktablarida jami o‘quvchilar soni 531069 nafar bo‘lib, shundan 493994 nafar o‘quvchilar kutubxonalarga a‘zo bo‘lgan. Hozirda umumta’lim maktablari kutubxonalarida jami 1202 nafar kutubxonachilar. Shundan, 47 nafari oliy ma’lumotli, kutubxona mutaxassisligi bo‘yicha oliy ma’lumotli 38 nafar, o‘rta-maxsus ma’lumotli 547 nafar, kutubxonashunoslik bo‘yicha o‘rta maxsus 570 nafar mutaxassis xodimlar faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Viloyatdagi umumiy o‘rta ta’lim maktablari kutubxonalarida bugungi kunda jami 1190 441 ta nusxa adabiyot fondlari mavjud bo‘lib, Shundan, 654409 ta nusxa lotin alifbosidagi adabiyotlar, 484305 kirill alifbosidagi adabiyotlar, shundan qog‘ozli 1138714 ta hamda 51727 ta elektron adabiyotlar, mavjud.

### **Jumladan yo‘nalishlar kesimida:**

- badiiy adabiyotlar – 549857 nusxa;
- bolalar adabiyotlari - 375092 nusxa;
- ijtimoiy siyosiy adabiyotlar – 70284 nusxa;
- o‘quv-metodik adabiyotlar – 79642 nusxa;
- ma’lumotnoma lug‘atlar – 29728 nusxa;
- boshqa turdagi adabiyotlar – 34111 nusxa.

### **Jumladan tillar kesimida:**

- rus tilida – 25545 *nusxa adabiyot*;
- xorijiy tillarda - 5919 nusxa (*ingliz, nemis, frantsuz*);

- qardosh tillardagi kitob fondi– 18874 nusxani tashkil etadi

Aksiya, xayriya va boshqa tadbirlardan 11788 mingta adabiyotlar kelib tushgan. 5 ta muhim tashabbus doirasida ta'lim muassasasida tashkil etilgan 1890 ta kitobxonlik klublariga 37800 nafar o'quvchi-yoshlar jalb qilingan.

Viloyatdagi umumiy o'rta ta'lim muassasalari kutubxonalarini raqamli kutubxonaga aylantirish va Wi-Fi zonalari tashkil etish bo'yicha bosqichma-bosqich ishlar amalga oshirilmoqda. IFLA xalqaro tashkilotining me'yorlariga muvofiq, har bir o'quvchiga, o'rtacha 7-9 donadan kitob to'g'ri kelishi belgilangan bo'lib, viloyat bo'yicha o'quvchilarning har biriga o'rtacha 2,6 donadan, shundan lotin alifbosidagi 1,6 donadan kitoblar to'g'ri kelmoqda.

Qardosh tillarda ta'lim beriladigan umumta'lim maktab kutubxonalarining kitob fondini ta'minlash uchun jami 38000 dona badiiy adabiyotlarga extiyoj mavjud bo'lib shundan, rus tilida 31000 dona, tojik tilida 35000 dona tashkil etadi. Shuningdek, maktab kutubxonalarini uchun zamonaviy org –texnika vositalari xamda kutubxona uchun maxsus jixozlar, kitobxonlar uchun zamonaviy o'quv xonalari, kitob javonlari, stol-stullar jamlanmasi, yangi katalog yashikchalariga extiyoj mavjud. Mavjud standartlar asosida bib-texnika uskunalari bilan ta'minlash, shu bilan birga, so'nggi yillarda nashr etilgan adabiyotlar bilan tizimli ravishda to'ldirish, qardosh tillardagi maktablarda badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, kutubxonachilar uchun qulaylik yaratish, shuningdek, kitob taqdimotlarini o'tkazish maqsadida elektron doska bilan ta'minlash.



## XULOSA

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy attestatsiya komissiyasining tashkil etilishi — mustaqillikning muhim timsolidir. Bu Oliy attestatsiya komissiyasi o‘z zimmasiga yuklangan ulkan vazifalarni, ya‘ni «yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik xodimlar tayyorlashning yangi tizimini shakllantirish, ularni respublika ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma‘naviy taraqqiyotining ustuvor muammolarini hal qilishga yo‘naltirish, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni davlat yo‘li bilan ekspertiza qilishni ta‘minlash bilan yetuk ilmiy pedagogik kadrlar etishtirishga samarali ta‘sir ko‘rsatmoqda. Oliy pedagogika o‘quv yurtlarida ilmiy daraja beruvchi ixtisoslashtirilgan kengashning tashkil etilishi bilan respublikamizda pedagogika tarixi va nazariyasi, fanlarni o‘qitish usullari bo‘yicha doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarini o‘zbek tilida, turli millat vakillarining o‘z ona tillarida himoya qilishiga keng imkoniyat yaratildi, mazkur kengashlar milliy pedagog olimlar safining o‘shida muhim omil bo‘lmoqda. Bu tadbir respublikada sifatli, ilmiy-pedagogik asarlar, o‘quv-metodik qo‘llanmalarning yaratilishiga, maktabgacha tarbiya muassasalarida, umumiy ta‘lim maktablarda, o‘rta va maxsus oliy o‘quv yurtlarida ta‘lim-tarbiyaning yuksak saviyada bo‘lishiga, ta‘lim tizimi mazmunining takomillashuviga samarali ta‘sir ko‘rsatmoqda.

- Mamlakatimizning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish va uning iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlashda ta‘lim tizimining o‘rni beqiyosdir. Hozirgi kunda ta‘lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot

texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim - tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli qarori ilovasining 4-bandiga ko'ra "Maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim o'quv dasturlari va fanlarning uzluksizligini ta'minlash" vazifasi belgilangan. Surxondaryo viloyatidagi umumiy o'rta ta'lim maktablari kutubxonalarida bugungi kunda jami 1190 441 ta nusxa adabiyot fondlari mavjud bo'lib, Shundan, 654409 ta nusxa lotin alifbosidagi adabiyotlar, 484305 kirill alifbosidagi adabiyotlar, shundan qog'ozli 1138714 ta hamda 51727 ta elektron adabiyotlar, mavjud.

## ILOVALAR

### “Atamalar zanjiri”

“Atamalar zanjiri”dan oʻtgan mavzuni yakunlash qismida foydalanilganda talabalarning kichik guruh aʼzolaridan ogʻzaki holda atamalarni ketma-ket avvalgilarni takrorlagan holda mazmuni va mohiyatiga koʻra oʻzaro bogʻliq holda yangi atama qoʻshishi talab etiladi. Guruhning birinchi ishtirokchisi bitta atama bilan boshlagan oʻyin yakunida guruh aʼzolari soniga teng atamalar zanjiri vujudga keladi. Ikkinchi bosqichda mazkur atamalarga taʼrif berish va ularni izohlash talab etadi.

Yangi mavzu yuzasidan oʻquvchilar bilimini nazorat qilish va baholash uchun topshiriqlar.

**Topshiriq.** Atamalar raqamini ularning taʼrifi bilan juftlang.

1	Plazmid	A	Asosiy xromasomaga birika olmaydigan va asosiy xromasomadan mustaqil ravishda oʻz-oʻzidan replikatsiz qiladigan halqasimon DNK molekulalari.
2	Transmissibl plazmid	B	DNK zanjirining kesuvchi fermentlar. (Restriktaza)
3	Avtonom plazmidlar	D	Xromosomadan tashqarida joylashgan oʻz-oʻzini replikatsiya qila oladigan halqali DNK molekulasi
4	Endonukleaza	E	i-RNK matritsa vositasida oʻz nusxasini sintezlab, genomning boshqa joyiga koʻchib oʻtadigan virussimon DNK molekulasi.
5	Retrotranspozon	F	Bitta hujayradan hosil boʻlgan, irsiy jihatdan oʻxshash hujayralar koloniyasi.
6	Transpozon	H	Molekulalarning elektr maydonida joylashtirilgan maxsus gel ichida kattaligiga koʻra ajratish usuli.
7	Restriktaza	G	DNK molekulasini maxsus nukleotidlar izchilligiga koʻra boʻlaklarga boʻluvchi ferment.
8	Klon	J	Hujayra xromosomalari tarkibiga rekombinatsiyalana oladigan plasmid.
9	Transpozaza	I	Genomdan oʻzini qirqib genomning boshqa joyiga koʻchib oʻtadigan genetik tuzilma.
10	Elektroforez	K	Transpozonlarning koʻchib yurishini taʼminlovchi ferment.

Topshiriqning javobi: 1 - D; 2 - J; 3 - A; 4 - B; 5 - E; 6 - I; 7 - G; 8 - F; 9 - K; 10 - H.

## **Biologik diktant.**

Diktantning birinchi turida talabalardan nuqtalar o'rniga mos keluvchi tushunchalarni qo'yish tavsiya etiladi.

### **1 - topshiriq.**

1. Organizmlarning irsiyat, irsiylanish va o'zgaruvchanlik qonuniyatlarini o'rganadigan fan - ...
2. Gomologik bo'lmagan xromosomalarda joylashgan bo'lib birnecha belgining mustaqil irsiylanishi va alternativ namoyon bo'lishini ta'min etuvchigenlar - ...
3. Gomologik xromosomolarning birxil qismida joylashgan bo'lib bitta belgining keskin farq qiluvchi-alternativ holatda rivojlanishi ta'minlovchi dominant varetsetsiv shaklda bo'ladigan genlar - ...
4. Organizm miqdoriy belgilarining irsiylanishi va rivojlanishi darajasini belgilovchi, bir xil funktsiyasi kuchiga ega bo'lgan noallelgenlar
5. Genlarning epistatik ta'siri natijasida patlari oq rangdagi tovuq zotlarini o'zaro chatishtirilganda  $F_2$ da fenotip va genotip jihatidan ajralish nisbati - ...
6. Kumulyativ polimeriyada fenotip bo'yicha ajralish nisbati - ...
7. O'simliklardagi xromosomalar sonining karra ortishi - ...
8. Belgilarning xilma-xillik darajasi yoki o'zgaruvchanlik chegaralari.....
9. Genetik materialning irsiy o'zgarishi - ...
10. Bir gen doirasidagi bitta yoki bir nechta nukleotidlarning o'zgarishi yoki almashinishi bilan bog'litsmutatsiyalar- ...

**Biologik diktant javoblari:** 1. Genetika. 2. Noallelgenlar. 3. Allelgenlar. 4. Polimergenlar. 5. 13:3; 1:2:1:2:4:2:1:2:1. 6. 1:4:6:4:1.

7. Poliploydiya. 8. Reaksiya normasi. 9. Mutatsiya. 10. Nuqtali mutatsiya.

Diktantning ikkinchi turida talabalardan ta'rifga mos keluvchi tushunchalarni qo'yish tavsiya etiladi.

**2 - topshiriq.** Savollarga mos keladigan javoblarni juftlab ko'rsating.

1. Biotik munosabatlarning qaysi ko'rinishida birga yashaydigan organizmlar bir-biriga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi?
2. Biotik munosabatlarning qaysi ko'rinishida birga yashaydigan ikki organizmlarning bittasi yoki ikkalasi ham salbiy ta'sir ostida bo'lishadi?
3. Biotik munosabatlarning qaysi ko'rinishida bunda ikki organizmlarning har ikkalasi yoki bittasi birga yashashdan o'ziga foyda oladi?
4. Biotik munosabatlarning qaysi ko'rinishida bir organizm ikkinchi organizmdan yashash muhiti va ovqat manbayi sifatida foydalanadi?
5. O'simliklar zamburug'lar yoki bakteriyalar bilan zararlanganda o'simliklarning ularga qarshi ishlab chiquvchi antibiotik nomi.
6. Biotik munosabatlarning bu ko'rinishida bunda bir organizm o'z o'ljasiga hujum qilib, undan ovqat manbayi sifatida foydalanadi, bu munosabat ko'pincha o'ljaning o'limi bilan tugaydi.
7. Simbioz munosabatlarning turlari.
8. O'zaro biologik bog'lanishning bir shakli bo'lib, bunda birga yashash har ikkala organizmga ham foyda keltiradi.

9. O'zaro munosabatdan bir organizm ikkinchisidan uy – joy sifatida foydalanadi, ikkinchisi bunday munosabatdan hech qanday naf ko'rmaydi.

10. Bunday o'zaro munosabatda bir organizm ikkinchisidan asosan ovqat manbai sifatida foydalanadi, lekin hech qanday zarar yetkazmaydi.

**Topshiriq javoblari:** 1. Neytralizm. 2. Antibioz. 3. Simbioz. 4. Parazitizm. 5. Fitoaleksin. 6. Yirtqichlik. 7. Mutualizm, hamsoyalik, kommensalizm. 8. Mutualizm. 9. Hamsoyalik. 10. Kommensalizm.

### “SWOT-tahlil” metodi

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash asosida muammoni hal etish yo'llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga mo'ljallangan.

### Gul tuzilishi. Meva va urug'.

S	Kuchli tomonlari- Asalarichilikni rivojlantirish orqali o'simliklardan yuqori hosildorlikka ega bo'lgan mevalarni olishga erishiladi.
W	Zaif, kuchsiz tomoni- Barcha ekin maydonlarini to'liq asalarilar bilan ta'minlay olmaymiz, kimyoviy preparatlar ishlatilganda entomofillarga ziyon yetkaziladi.
O	Imkoniyatlari- Biologik kurash usullaridan va entomofillardan

	<p>keng foydalanib ekologik toza hosildor meva mahsulotlari olishga erishiladi. Kimyoviy preparatlarning ishlatilishini qisqartirilishi sarf xarajatlarning kamayishiga olib keladi.</p>
T	<p>To'siqlar- Mahalliy sharoitga moslashgan asalari zotlarining yetishmasligi, asalarilarni boqish, qish mavsumidagi sovuq haroratning ta'siridan saqlab qolish, tashish, xarajatlarni qo'pligi bilan izohlanadi.</p>

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qatiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T: O‘zbekiston, 2017. 104 b.
2. Mirziyoev Sh.M. “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5264 son Farmoni. 2017. 29.11.
3. Mirziyoyev Sh.M. “Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, O‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzası.// “Xalq so‘zi” gazetasi 2018-yil 8-dekabr
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018 yil 8 dekabdagi 997-son Qarori.
5. Asqarova O‘.M, Usmanova S.U., Zamilova R.R., M.X.Tashibekova, D.A.Abdusamiyev Pedagogika nazariyasi va tarixi (1-qism) / Darslik /– Namangan: Usmon Nosir media, 2022. – 376 b
6. Asqarova O‘. va boshqalar. “Pedagogika va psixologiya fanlarini o‘qitish metodikasi” darslik Navro‘z, 2020 y. 456.
7. Asqarova O‘., Xayitboyev M., Nishonov M. Pedagogika. – T.: Talqin, 2008.
8. Hasanboev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Hasanboeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2009.



9. Ismailova Z.K. Pedagogika. Darslik. – T.: Moliya-iqtisod, 2008.
10. Khodjamkulov U., Botirova S., Shofkorov A., & Abdirimova I. (2020). Bases of Organizing Cooperation between Educational Institutions through Clusters (on the Example of the Education System of Uzbekistan). *Journal of Critical Reviews*, 7(12), 166-169.
11. Muxtorov A., Sultonov T., Mustafaqulov Sh.I. Ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. 2012. 4. 9 b
12. Nosirov A. "O'quvchilar bilimi va kompetensiyasi xalqaro mezonlar asosida baholanadi"/O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi: [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz).
13. Ochilova G.O., Musaxanova G.O. "Pedagogika" Toshkent. TDIU, 2005 yil.
14. "Педагогика профессионального образования." Под. ред. Сластенина В.А Москва «Академия».2005. 48-стр.
15. Психология-педагогика. Под.ред. А.А.Радугина. Москва, 2003.
16. Shamsiyeva M.O. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 December 2021 / Volume 2 Issue 12
17. Sulliyeva S.X., Ravshanova U.B., Boltayeva S.J. Sinf rahbari faoliyati. Monografiya. TerDU NMM . 2022. 99 b.
18. Sulliyeva S.X., Zokirov Q.G'. Biologiya o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. "Complex Print" nashriyoti. Toshkent-2023. – 224 b.
19. To'xtaxadjaeva M. Pedagogika. – T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010. 29 – 44 b.
20. Tolipova J.O. Biologiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalar. Darslik. "Cho'lpon" T.: 2011 - 128 b.

21. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A., Tojiboyeva H.M., Nazirova G.M., Umaraliyeva M.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari. O'zPFITI nashriyoti, 2014 yil.
22. Xasanboyev I.J. va boshqalar, Pedagogika nazariyasi va tarixi, Toshkent – 2021.
23. Xo'jaev N. va boshqalar. "Pedagogika asoslari". Toshkent. TDIU, 2003.
24. Xodjayev B. X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti, Toshkent-2017.
25. Hakimova M.F. Kasb pedagogikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2007.
26. Yuzlikaeva E.R., Madiyarova S.A., Yanbarisova E.E., Morkova I.V. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. Toshkent 2012 yil. 385.
27. Ермаков А. С., Ермаков Д. С. Особенности преподавания биологии в Великобритании // Биология в школе. – 2011. – №1. – С. 38 –43.

## Mundarija

	Kirish.....	4
I BOB.	Ta'limni tashkil etish shakllari.....	7
1.1-§	Jahon ta'lim tizimida erishilgan yutuqlar.....	52
1.2-§.	Dars ta'limini tashkil etishning asosiy zamonaviy shakli .....	65
1.3-§.	Juftlik yoki kichik guruhlariga bo'lib dars o'tish.....	72
II BOB.	Kasb ta'limda zamonaviy ta'limni tashkillashtirish shakllari: mohiyati va mazmuni.....	82
2.1-§	Zamonaviy ta'lim shakllarida o'quvchilar o'zlashtirishdagi ko'rsatkichlar.....	92
2.2-§	O'quvchi yoshlarni kasbga yo'naltirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar .....	110
III BOB.	Maktablarda o'quv adabiyotlari (darsliklarining) bugungi holati.....	118
	Xulosa.....	121
	Ilovalar.....	123
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	128